

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Andijon davlat universiteti

Qo'lyozma huquqida

Karimova Dilobodoy Halimovna

**O'ZBEK ADABIYOTIDA DINIY MAVZUNING
ISHLANISHI**

Ixtisosligi: 5A220101 – “Filologiya”

**Filologiya bo'yicha magistr darajasini olish uchun
magistrlik dissertatsiyasi**

Ilmiy rahbar: dots S. Mirzayeva

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga tavsiya etildi:

____ dots. B. Rahmonov

Andijon – 2010

MUNDARIJA:

- I. **Kirish**.....
- II. **I bob.** 90-yillargacha bo`lgan davrda diniy motivlar masalasi.....
- III. **II bob.** “Jannatga yo`l” dramatik asarida din va umuminsoniy g`oyalar.....
- IV. **III bob.** “Haj daftari” turkumida diniy, falsafiy va ijtimoiy masalalar.....
- III. **IV bob.** “Hikmat sadolari” turkumida islom dini g`oyalarining aks etishi.....

- Xulosa**.....

- Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati**.....

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda ro`y berayotgan turli hil o`zgarishlar adabiyotimizning ochilmagan sahifalarini varaqlashga, tesha tegmagan joylarini izlab topishga turtki bo`lmoqda. Bizga ma`lumki, adabiyotimiz juda ko`p qirrali, uning qanchadan-qancha qirralari ochilishga muhtoj. Ollohga shukrlar bo`lsinki, mustaqillik sharofati bilan urf-odatlarimiz, bayramlarimiz, eng asosiysi, dinimiz o`z o`rnini egalladi. Prezidentimiz o`zining “Eng asosiy mezon hayot haqiqatini aks ettirish” asarida shunday deydi: “Biz mustaqillikka erishganimizdan so`ng Imom Buhoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg`inonoy, Abdulholiq G`ijduvoni, Bahouddin Naqshband singari aziz avliyolarimiz, Muhammad muso Horazmiy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug`bek singari allomalarimiz, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk arboblarning, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutaffakirlarimizning nomlarini, asarlarini tom ma`noda qayta kashf etdik.”¹

Adabiyotimiz sahifalarida diniy mavzular, she`rlar, maqolalar paydo bo`la boshladi. biz necha-necha yillardan beri o`zimizni-o`zimiz aldab yashadik. O`zbek adabiyotimiz vakillari o`rniga Pushkin, Mayakovskiy, Lermontovlarning asarlarini qayta-qayta o`qidik, she`rlarini yod oldik, asta-sekin o`zbek maktablaridan voz kechib rus maktablariga o`ta boshladik. To`g`ri, aslida, 20-asr o`zbek adabiyoti rus adabiyotidan andoza olgan. Bizning ko`p namoyondalarimiz shu rus adiblaridan, xususan, Mayakovskiy, Lermontov, Chexovlardan o`rganib, so`ng o`zimizning o`zbek adabiyotimizni yaratishgan. Va bizning yangi adabiyotimiz shu tariqa shakllangan. Lekin har narsada me`yor bo`lganidek, o`sha davr vakillari bu me`yorni unitib qo`yayozdi. Ya`ni biz nima qildik, Alisher Navoiyning asarlaridagi botiniy, asosiy mazmuni emas, balki yuzaki, zohiriy ma`nosinigi ko`ra oldik, xolos. Aslida mumtoz adabiyotimiz tub mohiyat asosida qurilganligini unutib qo`ydik. Amir Temur, Z. M. Boburlarni bosqinchi sifatida ko`z oldimizga keltirib, ulardan nafratlandik ham. Eng asosiysi ularni tushunib yetishga harakat ham qilmadik. Yaratganga shukrlar bo`lsinki, mustaqillik sharofati bilan zamonlar o`zgarib, dinga shu bilan birga tasavvuf she`riyatiga qiziqish beqiyos kuchaydi. Ko`pgina ijodkorlarimiz o`zlarinig ijodlarini diniy mavzular bilan boyitmoqda, ular mumtoz adabiyotimiz an`analarini davom ettirish bilan o`z qalamlarini charxlamoqdalar.

Bizga ma`lumki, mumtoz adabiyotimiz, asosan diniy motivlarga asoslangan. Deyarli barcha qadimda yashab o`tgan ijodkorlar devon tuzishga muvaffaq bo`lganlar. Devon tuzishning ham o`ziga yarasha qonun-qoidalar mavjud. Shularning, ehg birinchisi, devonning boshlanishida, ya`ni muqaddimasida, albatta, hamd va na`tdan boshlanishi shart va bu qat`iy hukm bo`lgan.

¹ Islom Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T.: O`zbekiston, 2009. 16-bet.

Hamd-bu bizni yaratgan yagona Allohga, hamdu sanolar va borliqni qanday yaratilish xususida bo`lishi mumkin.

Na`-t-bu ollohning rasuli bo`lmish payg`ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vassalam va ularning sahobalariga bag`ishlanib, ularning butun umri davomida bajargan amallari haqida .

Bu esa, o`z-o`zidan o`sha paytdagi asarlarning barchasi diniy motivlar asosiga qurilganligidan darak beradi. Ma`lumki turkiy adabiyot tarixida tasavvuf, so`fiylik yetakchi ahamiyatga ega. Tasavvuf tariqatidagi ma`naviy komillik yo`lini to`rt bosqichga ajratadi. To`rt bosqichning birinchisi, Shariat bo`lib, u tayyorgarlik bosqichi deb yuritiladi. Unda Qur`on va hadisning qonun-qoidalari o`rganiladi. Ularni puxta o`zlashtirib olgandan so`ng 2-bosqichga o`tiladi. 2-bosqich Tariqat hisoblanib tavba, taqvo, fikr, sabr, tavakkul, rizo kabilar tariqatning maqomidir. Bu bosqichni o`zlashtirib olgandan so`ng, 3-bosqich Ma`rifatga yo`l oladi. 4-bosqich Haqiqat bo`lib, bu bosqich Olloh vasliga vosil bo`lish hisoblanadi.

Ma`lumki, Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she`riyatining yirik namoyondasi hisoblanadi. A. Yassviy Turkistonda Yassaviya tariqatiga asos soldi. Ular din va tasavvuf g`oyalari targ`ib qilish uchun she`r shaklidan foydalanganlar. Ahmad Yassaviy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, uning har bir satrlarida Ollohga hamdu sanolar va Haq yo`lida jon kuydirib unga yetishish yo`llarini ko`rsatib bermoqchi ekanligiga guvoh bo`ldik.

Masalan:

Har kim Haqni quli bo`lsa, Haqqa yonsin,
Haqqa yonmas o`zni degan nari borsun.

Ushbu baytda A. Yassaviy “Ollohdan o`zga iloh yo`q, u yaratguvchi, biz uning qulimiz”, degan fikrlarni ilgari surmoqda. A. Yassaviy hikmatlarining ildizi Qur`on g`oyalari va payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislariga borib taqaladi.

G`arib, faqir yetimlarni qilg`il shodmon,
Haqlar qilib aziz joning, ayla qurbon.
Taom topsang, joning bila qilg`il ehson,
Haqdan eshitib bu so`zlarni aydim ma`no.

Bu baytdagi ma`no, aslida, 93-suraning 6-10-oyatlarida keltirilgan bo`lib bu oyatlarda yetim va faqirlar haqida hamda ularga qanday muomola qilish to`grisida ma`lumotlar berilgan. Ahmad Yassaviy o`zining hikmatlari orqali kishilarni xudojo`ylikka, toat-ibodatga bandalik qoidalari to`la amal qilishga chaqiradi.

Bunday misollarni Xazrat Alisher Navoiy ijodida ham uchrarish mumkin. Yuqorida aytib o`tganimizdek, A. Navoiyni dinga ya`ni islom diniga

bag`ishlab yozilgan “Sirojul-muslimiyn”(musulmonlar chirog`i) nomli asarida islom asoslarini bayon etganligi uchun hanuzgacha o`rganilmagan, nashr qilinmagan.

Buyuk bobokalonimiz,buyuk sarkarda Amir Temur hayoti davomida juda ko`p Qur`onga murojaat qilar edi. Ular harbiy yurishlaridan oldin Qur`ondan fol ochirib unga qarab ish titgan ekanlar. Ular xalqi, saltanati orasida islom dinini keng yoyganlar.

Shulardan o`rnak olgan holatda mustaqillikka erishganimizdan so`ng O`zbekiston hukumati ham O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratishda ozgina bo`lsa ham shariat qonun-qoidalaridan foydalangan.

Xususan, Prezidentimiz I. A. Karimovning ham adabiyotimizga, dinimizga bildirgan fikrlari biz adabiyotshunoslar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Ularning “Yuksak ma`naviyat-engilmas kuch” asarining “Ma`naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar” qismida adabiyotni inson ma`naviy olamini yusaltiruvchi asosoy kuch sifatida qaragan. “Biz milliy ma`naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o`z oldimizga maqsad qilib qo`yar ekanmiz, bugungo kunda ma`naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta`sir o`tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o`rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo`ladi.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma`naviyatini uning tarixi, o`ziga xos urf-odat va an`analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi. Bu borada tabiiyki, ma`naviy meros, madaniy boyliklar, ko`hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo`lib xizmat qiladi.

Bizning qadimiy va go`zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklardan biri bo`lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e`rirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilazatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog`liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko`tarilashida ona yurtimizda tug`ilib kamolga yetgan ulug` allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g`urur va iftixor bag`ishlaydi.

Ota-bobolarimizning asrlar davonida to`plagan hayotiy tajribasi, diniy, ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muaqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma`naviy obida alohida o`rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, o`z ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo`ri mahsuli bo`lmish bu noyob yodgorliklarning zamon to`fonlaridan , qanchadan-qancha og`ir sinovlardan o`tib bizning davrimizgacha yetib kelganining o`zida katta

ma`no mujassam. Bunday o`lmas osori atiqalar bu ko`hna o`lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo`lganidan darak beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz ularda ifoda etilgan teran fikr va g`oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo`lamiz.

Ma`limki, bu dunyoda har qaysi millatning o`z afsonaviy qahramonlari, o`zi sevib ardoqlaydigan paxlavonlari bo`ladi. Xalqimiz azaldan o`z vujudi, o`z tomirida ilohiy qudratga munosib bo`lmoqqa intilib, o`z og`lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan.

Bir paytlar anoqrog`i, o`tgan asrning 50-yillarida, milly merosimizning ko`pgina namunlari kabi, "Alpomish" dostoni ham millatchilik ruhidagi asar sifatida qoralanib, qatag`onga uchragan edi. O`sha og`ir yillarda fidoyi ziyolilarimiz jasorat ko`rsatib, uni saqlab qolishga muvaffaq bo`lganliklarini bugun minnatdorchilik bilan eslaymiz.

Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab, uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi.

Shu o`rinda ma`naviyarning yuksalishi bilan chambarchas bog`liq bolgan yana bir mezon-muqaddas dinimiz haqida alohida to`xtalib o`tishni zarur, deb bilaman.

Barchamizga yaxshi ma`lumki, din azaldan inson ma`naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to`g`risidagi orzu-armonlarini o`zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahlamlab kelayotgan g`oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko`p asrlar davomida xalqimiz qalbida chuqur joy olib, hayot ma`nosini anglash, milliy nadaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an`analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo`lib kelayotganini alohida ta`kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o`ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo`lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning hayrixoh va tarafdorlari ko`payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi, bag`rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o`zini oqlagan qadriyat va an`analarni ajdodlardan-avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o`rni va ahamiyati bilan bog`liq. Va xalqimizning ma`naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Olloh marhamat qilgan bu hayotda to`g`ri yo`l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka

intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi, deb o'ylayman.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotganyosh avlodimizga tog'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng tag'ib qilish vazifasi hamon dolzarb bo'lib kelmoqda.

Taasufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli niyatda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaasib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida faydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Ma'lumki, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelmoqda. Bu haqiqarnu jahon jamoatchiligi, butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot bo'lmish Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi-AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007-yilda Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilingani ham ana shunday yuksak e'tirofning yana bir tasdig'idir.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan hissasi to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo xaqli ravishda musulmon olamida "muhaddislar sultoni" deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buhoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo'tabar zot merosining gulto'ji bo'lmish eng ishonchli hadislar to'plami-"Al-jome' as-sahih" kitobi islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo'lib, ahli islom e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'i hisoblanadi. Mana o'n ikki asrdiki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo'lga chorlab kelmoqda.

Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buhoriy vafot etgan yili, ya'ni 870-yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo-Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog'liqlik, Ollohning buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buhoriyning nurli qalamini Imom Moturidiy olib, ul zotning hayrli ishlarini davom ettirishga bel bog'lagandek tuyuladi. Imom Moturidiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat hatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat

namunasini ko`rsatib, islom olamida “musulmonlarning e`tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafiga sazovor bo`lgani bu nodir shaxsning ulkan zakovati va matonatidan dalolat beradi.

U zot asos solgan Moturidiya naktabi Sharq mamlakatlarida bunday shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g`oyalat islom dinimizning asosini to`g`rilik, ezgulik va insonoylikdan iborat deb biladigan jamiki mo`min-musulmonlarning qarash va ibtilishlari bilan hamohang edi.

O`zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratib, go`zal Farg`ona diyorini jahonga tarannum etgan islom huquqshunosligining yana bir ulkan namoyondasi Burhoniddin Marg`inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi yuz yillar davomida e`zozlab kelmoqda. Bu mo`tabar allomaning Sharq olamida “Burhoniddin va milla”, ya`ni “din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo`lgani ham buni yaqqol isbotlaydi.

Marg`inoniyning o`lmas merosi, xususan, ellik yetti kotobdan iborat “Hidoya”-“To`g`ri yo`l” deb atalgan asari, mana, sakkiz asrdirki, musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e`tirof etib kelinayotgani albatta bejiz emas.

Butun dunyoga ma`lum va mashhur buyuk alloma va aziz avliyolarimiz orasida Abdulholiq G`ijduvoni va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug` avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo`yib, uni “Bahouddin Balogardon” deb ta`riflab kelishida teran ma`no bor. Uning “Diling Oллоhda, qo`ling mehatda bo`lsin” degan hayotbaxh hikmati dinimizning olijanob ma`no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki, shu bugun aytilgandek jaranglaydi.”¹

Aytmoqchimizki hozirda islom dininig ko`rinishi nafaqat o`zbek adabiyotida balki, boshqa jabhalarda ham ko`rinmoqda. Asosan adabiyotda dolzarb kechayotganligi uchun esa asosiy e`tiborimizni adabiyotda qo`llangan diniy g`oya, diniy motiv va diniy atamalarning qo`llanishiga qaratmoqchimiz.

Biz mazkur magistrlik dissertatsiya ishimizni O`zbek adabiyotida diniy mavzuning ishlanishini shoir Abdulla Oripov ijodi misolida tahlil qilishga harakat qildik.

Biz tanlab olgan mavzunung dolzarbligi shundaki, haligacha asarlardagi diniy mavzular to`liq o`rganilmagan. Shoir Abdulla Oripov ijodi ko`p adabiyotshunos olimlar tomonidan, xususan, B. Saidjonov, M. Qo`shjonov, O. Sharofutdinov, U. Normatov kabi adabiyotshunoslar tomonidan keng o`rganilgan bo`lsada, shoirning ijodidagi diniy motivlar haligacha o`rganilmagan.

Magistrlik dissertatsiyadagi ishning o`rganilish ob`yektini bu shoirning istiqlolgacha yozgan she`rlarida qo`llangan diniy motivlar va “Jannatga yo`l” dramatik dostonidir. Istiqloldan

¹ Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008. 39-40-betlar.

keyingi yillaridagi o`rganilish ob`yekti esa, o`sha paytda yozilgan she`rlaridagi diniy motivlar va “Haj daftari”, “Hikmat sadolari”turkumlari asos qilib olindi.

Magistrlik dissertatsiyamdagi ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, o`quvchilarga A.Oripov ijodini targ`ib va tashviq qilishda katta yordam beradi.

I bob. 90-yillargacha bo`lgan davrda diniy motivlar masalasi

Aksariyat paytlarda shoirlar hayot gavjum bo`lmagan joylarda, qishloqlarda tug`iladilar. Qishloqlarda tug`ilishiga qaramasdan shaharda ta`lim-tarbiya oladilar. Shunday gap yuradi xalq orasida: “Shoirlar qishloqda tig`iladilar, Parijda o`ladilar.”

Abdulla Oripov ham shunday shoirlar sirasiga kiradi. A. Oripov tug`ilib o`sgan oila ziyo qadriga yetadigan bo`lishiga qaramasdan ziyoli emas. Oripovlar oilasi oddiy mehnatkash dehqon oilalardan biri. Ammo oila boshlig`i Orif aka ko`pni ko`rgan, hayot tajribasiga boy, har bir ko`rgan-bilgani va eshitganini, aql-tarozisiga solib o`lchay oladigan, fahm-farosatda o`z tengqurlari va hamqishloqlari ichida obro`ga ega bo`lgan siymo. Orif ota intellektual shaxs. U hatto ancha donishmand, ilmu urfon qadrini biladigan ma`rifatparvar, shu sabab bo`lsa kerak Orif otaning bolalari biri o`qituvchidan chiqqan katta ho`jalik rahbari, yana biri oily o`quv yurtida dars beradigan olim-professor, uchinchi yetuk tarixchi faylasuf, oilaning kichigi Abdulla esa she`r bitish kasbi nasib etgan.

Abdulla Oripov O`zbekistonning janubida joylashgan, Qarshi shahrining Neko`z qishlog`ida tavallud topgan. Tassavur qilish mumkin, u yoshligida o`z tengqurlari bilan oyoqyalang, qishloqning chang to`zon ko`chalahrada yugurib-yelib, ona zamindan quvvat olib o`sgan ulg`aygan. Oila mehnatkash bo`lganidan, tabiiyki, shoir yoshligidan mehnatga o`rganadi, yer chopadi, mol boqadi, xullas, tirikchilik nima ekanini o`sha qishloqda anglay boshlaydi. Shoirning o`zi shunday eslaydi: “Bir qo`shnimiz g`yat pokdomon Kamolxon eshon degan kishi bo`lardir. Rahmatlikning onasini Bibi momo derdilar. Bilmadim, balki ular Kattaqo`rg`on yoqlardan kelib qolishgan. Bibi momo o`ta darajada savodxon buvi edilar. Onam rahmatlikka ergashib ularning suhbatiga qatnashib qolardim. Bibi momoning kattaligi sandiqdek keladigan katta kitobi bo`lib, kitobni Navoiy kitob derdilar. Bibi momo Farhodu Shirin, Layliyu Majnunni chunonam qiroat bilan o`qirdiki, ma`nosini ko`pam tushunmasam ham, qiroatdan mazza qilardim”, -deya eslaydi.

Balki Abdulla Oripovning shoir bo`lib yetishishida shu kitoblar ta`sir qilgandir. A. Oripov maktabni oltin medal bilan bitirib, 1958 yili Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti, jurnalistika bo`limiga o`qishga qabul qilinadi. Shoring she`rlari avval tuman, viloyat gazetalarda bosilib chiqqan. Bo`lsada, birinchi marta respublika bolalar gazetasida “Qushcha” degan she`ri bosilib chiqadi. She`rlari tez-tez matbuotda bosila boshladi. Ozod Sharofutdinovning oq yo`li bilan shoirning “Sharq yulduzida” she`rlari chiqdi. Yozuvchilar uyushmasidagi mushoiralardan birida “Munojotni tinglab”, “Bulut” degan she`rlarini o`qiydi. O`sha kuni Abdulla Qaxorning nazariga tushadi. Mirtemir domla atrofida ko`p shogirdlari qatorida saboq oladi. Shayhzodadek donishmand ustozga ergashib, u kishi she`r o`qigan minbarda she`rda o`qiydi. Bu orada kitoblari

ketma-ket nashr qilinadi. Va o`z she`rlari bilan Oybek domlaning nazariga tushadi va Oybek domla shoirning qo`liga O`zbek Yozuvchilr uyushmasiga a`zolikka tavsiya qog`ozini tutqazadi. Ikkinchi tavsiya Mirtemir domladan keldi. Shu yo`sinda uyushmaga Komil Yashin raisligada a`zo bo`lib kiradi, so`ng turli matbuot idoralarida xizmat qilib kichik-kichik mukofotlardan Xalq shoiri unvoniga sazovor bo`ladi. Mustaqillik yillarimizning buyuk in`omi “O`zbekiston qahramoni” unvoniga sazovor bo`ladi. Va yana shuni aytish kerakki, mustaqil O`zbekistonning birinchi Davlat madhiyasining muallifi bo`lish nasib etdi. Hozirda shoirning asosiy ish faoliyati ijod va ijodiy sohaga tegishli xizmat bilan o`tayapti.

90-yillargacha bo`lgan o`zbek adabiyotida diniy motivlar masalasi juda ham murakkab bo`lgan. Chunki sho`rolar paytida xudosizlik ya`ni ateistik ruh hukm surayotgan paytlar edi. Bizga ma`lumki, A. Oripov istiqloldan keyin bir qancha diniy mavzudagi she`rlar va “Haj daftari turkumini yaratdi. A. Oripov ijodida diniy motivlarni o`rganar ekanman, shunday savol tug`ildi, shoir ijodida qachondan boshlab diniy motiv, diniy atama yoki diniy mavzu qo`llana boshlagan. Shoir istiqloldan keyin yozishni boshlaganmi yoki istiqlolgacha bo`lgan davrda ham shoir ijodida diniy mavzu uchraydimi? Quyida ana shunday haqli savolga javob topishga harakat qilamiz.

A. Oripov ijodini tahlil qilar ekanmiz, shoirning deyarli har bir she`rida xoh istiqlolgacha bo`lgan davr, xoh undan keyingi davr bo`lsin diniy atama, diniy e`tiqod, eng asosiysi, islom diniga e`tiqod qiluvchi mo`min siymosini ko`ramiz. She`r xoh muhabbat, xoh tabiat, xoh ustozlar, xoh ijtimoiy voqealar haqida bo`lsin hammasida yagona Allohga bo`lgan va islom diniga bo`lgan ishonchni aks etgan.

Shunday she`rlaridan biri, 1960 yilda yozilgan “Suv parisi” she`ridir:

Sen kimlarning hayolida yurmoqdassn sarsari,¹

Hiyonatkor bir go`zal ruhimisan, yo pari.

Bizga ma`lumki, ruhga dinsizlar ishonmaydi, ular uchun shu hayotgina bor, o`limdan keyingi hayot yo`q. Islom dinida esa, har bir inson jismida ruh mavjud. U o`zining “men”i hisoblanadi. Insonning jismi yo`qolsa ham ruhi mangudir. Bu she`r oddiygina suv parisi haqida bo`lsa ham shoir ruh timsolini garchi ongi shuuridan tashqarida qo`llagan bo`lsa ham, ruh timsolini kirgizish orqali biror bir dinga e`tiqod qilishini bildiradi.

Yana “Pahlavon Mahmud qabri qoshida” nomli she`ridagi ruh atamasini qo`llanishim ham xarakterlidir

Yulduzlar misoli kulganda ruhim,

Bo`ronli hislarga to`lganda ruhim,

¹ Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-tom. 23-bet

Ba`zan she`r ustida so`lganda ruhim,

Pahlavon Mahmuddan so`radim madad.¹

Tasavvufning asosiy maqsadi, komil insonni tarbiyalashdir. Komil insonni tarbiyalash uchun esa, ruhni poklash kerak. Ruh Alloh izmidadir. U abadiy va ilohiy makonda yaratilgan va unda qo`nim topadi. Yuqoridagi misralar ana shu ruh haqida. To`g`ri, yuqoridagi she`rning birinchi va ikkinchi misralarda ruh atamasi nafaqat insonning ichki “men”i ruh to`grisida, balki kayfiyat ma`nosida ham keltapti. Bir so`zninig bir joyda ikki ma`noda uchrashi, shubhasiz, shoirning mahoratidir. Shoirning ”Pahlavon Mahmuddan so`radim madad” deb yozishida ham alohida pragmatik ma`no, ya`ni tag ma`no bor. Ma`lumki, Pahlavon Mahmud tasavvuf ta`limoti asosida ijod qilgan O`rta Osiyodagi yirik mutassavuf hisoblanadi.

Tag ma`nolar sulardan iboratki, Pahlavon Mahmud mutassavvuf shoir bo`lganligi uchun shoir o`zining ruhi poklanishiga madad so`raydi va madad so`rash bilan birga shoir Pahlavon Mahmud siymosi orqali o`tmishdagi ajdodlarimizni hurmatlab va ularni ulug`lash maqsadida ham shu so`zlarni qo`llamoqda. Biz yuqorida, ruhga ta`rif berishga harakat qildik. Ammo yetarlicha ta`rif berolmadik. Ruh-insondagi eng oily manbadir va o`zining oily manbasi bilan bo`g`liq ekanini doimo sezib turadi. Ruh insonda ahloq qonunini vujudga keltirganki, u boshqa jonzotlarda yo`q. Ruh mavzusi ilmda ham, falsafasada ham qadim-qadimdan eng murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu muammoning yechimini Qur`oni Karimda ko`ramiz. Jumladan “Isro” surasida shunday deyiladi: “Va sendan ruh haqida so`rarkanlar Sen: “Ruh Robbimning ishidir, Sizga juda oz bilim berilgandir”-, deb ayt.” (85-oyat)²

Mana shu keltirilgan fikr yuqoridagi so`zlarimizni tasdiqlaydi. Quyidagi 1969-yilda yozilgan shoirning “Ruhim” she`ri ham ruhning eng to`g`ri berilgan ta`rifi desak, mubolag`a bo`lmaydi. Shoir ta`rifni butun she`r davomida berganligi uchun she`rni butunicha keltiraman.

Vujud deganlari asli nimadir,
Dayr dengizida yurgan kemadir.
Bir kun qoyaga urilgay kema,
Ruhim, sen vujudning g`amini yema
Yuksak fazolarda aylagin parvoz,
Senda na ohang bor va na ovoz.
Senga na bo`ronlar kor qila olur,
Seni na yo`qotib bor qila olur.
Sen misli kamalak yuksak va so`lmas,

¹ O`sha kitob 142 bet.

² Qur`oni Karim

Kamalakni esa parchalab bo`lmas.¹

Darhaqiqat ruh vujudan ayrilganda unga na bo`ron, na shamol ta`sir qila oladi. Bu esa uning abadiyligiga ishoradir. 1971-yilda yozilgan “Chorlash” she`rida xuddi shu mavzu davom etadi

Yuksaklarga charx urib aylan,
Ruhing mangu tursin yorishib.
O`lganda ham vujuding bilan,
Ketmagaysan yerga qorishib.²

Yuqoridagidek, vujud o`lib qaro yerga singishib ketsa ham, lekin ruhning mangu qolishi nazarda tutilmoqda.

Berilayotgan misollardan ko`rinib turibdiki, A. Oripov diniy bilimlardan 1969-yillardayoq ancha bilimga ega ekanligini bilishimiz mumkin.

Yana bir 1969-yilda yozilgan “Yurtim shamoli” she`rida ham ruh so`zi yuqoridagi sher`lar kabi motiv sifatida emas, balki termin sifatida qo`llanmoqda: uh

Shamollar ichida men ham bir shamol,
Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu hayoli,
O, yurtim shamoli, yurtim shamoli.³

Sharhlashga harakat qilib ko`raman, shoir bu she`rida aytmoqchi bo`lgan asosiy fikr bu – sho`rolar davrida men o`zimni qanchalik yaxshi his qilsamda, lekin ruhim erkin o`z yurtining erkin shamolini, ozod, hur yurtini ko`rishni istaydi, degan ma`no mavjud.

Keltirilgan misollar shunu anglatyaptiki, A. Oripov ruh haqida o`z tushunchalariga ega bo`lgan va she`rlarida to`g`ri talqin qila olgan. Bundan ko`rinadiki, shoir tasavvuf ta`limotidan ham bohabor bo`lgan. O`z-o`zidan ma`lumki, tasavvuf ta`limotiga ishongan inson bu islom diniga e`tiqod qiluvchi musulmondur. Yuqoridagi misralardan shu narsa ma`lum bo`lyaptiki, A. Oripovni biz bemalol istiqlolgacha bo`lgan davrda ham o`z fikrlarini qo`rqmasdan, dadil aytgan.

Shoir ijodida dinga ishonishning har hil ko`rinshlari mavjud. Shulardan biri taqdir atamasining, taqdir motivining har xil o`rinlarda kelishi xarakterlidir. Shuning uchun biz quyida taqdir so`zini shoir ijodida 1968-yildan, 1990-yilgacha ishlatilish o`rinlarini ko`rib chiqamiz.

Quyidagi “Kursdoshlarimga” she`rida dinlardan aynan islom diniga e`tiqod qilishiga ishora bor.

¹ A. Oripov “Tanlangan asarlar” !-tom, 177-bet.

² O`sa kitob, 204-bet.

³ O`sha kitob, 167-bet.

Taqdir to`plarmikin sizlarni yana,
Ko`zimdan sachragan tomchi yoshlarim.

Islom dinida iymonning yetti sharti mavjud.

1. Allohga ishonish.
2. Farishtalarga ishonish.
3. Alloh yuborgan payg`ambar va rasullarga ishonish.
4. Islomning muqaddas kitobi Qur`onI Karimga ishonish.
5. Qayta tirilishga ishonish.
6. O`limdan keyoingi hayotga ishonish.
7. Taqdirga ishonish.¹

Aslida har bir inson o`zining yaqin odami yoki do`stini ko`rishni xohlasa uning uyiga borishi yoki qo`ng`iroqlashi mumkin, lekin shoir yuqoridagi she`ri orqali agar inson biror do`stini bilan ko`rishishni xohlagan taqdirda uning peshonasiga buni yozmagan bo`lsa u bilan ko`risha olmaydi, degan ma`noni uqishimiz mumkin.

Yana taqdir motivini “Asrimiz odami” she`rida ham uchratishimiz mumkin.

Goh bemor qoshida jarroh bo`lib,
Taqdiri azalga ko`rsatsa kuchin.²

Shoir bu she`ri orqali nima demoqchi: islom dinida taqdir ona qornidayoq bitiladi. Taqdiri azal bu insonni biror vaqtda biror manzilga yetib boridhi aniq bo`lsa, mana shu manzilga qay holatda yetib kelishi esa, taqdiri qadar hisoblanadi. Bu she`rda inson xohlasa-xohlamasa keladigan, hamisha haq bo`lgan o`lim haqida gap ketyapti. Ya`ni 20-asrning eng ilmli jarrohi o`z bilimi, salohiyati bilan o`lim yoqasida turgan insonga jon bag`ishlay oladimi uning olgan bilimi taqdiri azalga kuchini ko`rdsata oldimi yo`qmi, shu savollarga shoir javob topmoqchi bo`ladi.

Shoir she`rlaridagi oddiy muhabbat mavzusi ham bora-bora diniy ruhiyatga borib taqaladiganday, nazarimda.

Sen Pushkinning sevgan malagi,
Sen Gyote orzu etgan qiz.
Tole`yimda nozlanib yurgan,
Ey, sen, mening erka go`zalim.³

Bir qarashda o`qisangiz, bir go`zal ta`rifi haqida chiroyli she`r. Lekin shu go`zalni mening tole`yimda ya`ni taqdirimga yozilgan ekansan, shuning uchun hozir yonimdasan, deyapti. Botiniy ma`nosi esa, taqdirimga yozilmagan bo`lmaganingda yonimda bo`lmasding,

¹ “Iymon” kitobi.

² O`sha kitob, 49-bet.

³ O`sha kitob, 54-bet.

degan ma`noni ham uqishimiz mumkin. T`ogri yuqoridagi she`rda taqdir so`zini uchratmaymiz. Birgina tole` so`zi ikki hil ma`noda biri o`z ma`noda ya`ni baxt ma`nosini tushunsak, uikkinchi ma`no esa, yuqorida biz keltirgan taqdir ma`nosi. Yana bir 1965-yilda yoozilgan “Muhabbat” she`rida esa shoir muhabbat taqdiridan maqtana olmasligini yozadi.

Hayot mendan ayamadi ne`matlarini,
Ne istasam berdi doim, hech bir tonmayman.
Faqatgina bir g`am o`rtar yuraklarimni,
Men muhabbat taqdirimdan maqtanolmayman.¹

Sher`da yozilishicha, oshiq qancha muhabbat yo`lida kurashmasin, taqdirida omadli muhabbat yozilmagan ekan u muhabbatiga erisholmaydi.

1967-yulda yozilgan “Ona” she`rida A. Oripov ijodida diniy motivlarning hamisha ustuvor turganligidan darak beradi.

Ko`kda yulduz uchsa nogahon,
Bitdi derlar qaysi bir taqdir.²

Demak, inson o`limi ham, avvaldan unig taqdiriga bitiladi. Va u faqatgina Arshi a`loda hal qilinadi. Shoir shu misrada:

Ko`kda yulduz uchsa nogahon,
O`ldi derlar qaysi bir inson,

deyishi ham mumkin edi. Lekin yuqoridagi misra orqali barcha narsani boshqarib turuvchi yagona kuchga hammamiz hoxlasak, hoxlamasak boshqarib turishiga ishoradir..

A.Oripov ijodini tahlil qilar ekanmiz, shoirning deyarli har bir she`rida diniy motivlar uchraydi. Shunday sher`laridan biri, “Armaniston” she`ridir. She`rning o`rtalarida shunday misralar bor:

Tarix deb atalgan qismat bu axir,
Qarshida yuztuban hattoki, xudo.³

Nainki shoir har bir oddiy inson ishonadiki, yuqorida inson ihtiyoriga bog`liq bo`lmagan, uni boshqaruvchi katta kuch bor. Bu albatta hammani boshqarib turadigan Ollohning kuchidir. Darhaqiqat tarixda bo`lib otgan voqea-hodisalarni hech kim o`zgartirolmaydi. Shoir yuqoridagi she`rida taqdir so`zining orniga uning to`liq sinonimi qismat so`zini qo`llayapti. Qismatni hattoki xudo ham o`zgartirolmaydi deb, shoir san`atlardan mubolag`a san`atini qo`llamoqda.

1968-yilda yozilgan “Gorkiy” she`ri quyidagi misralar bilan boshlanadi.

Adib taqdiringga ta`zim qil bu kun,
Bu kun ehtirom qil tole qoshida.

¹ O`sha kitob, 91-bet.

² O`sha kitob, 128-bet.

³ O`sha kitob, 130-bet.

Qaro kechmishingga razm qil bu kun,
Ne kunlar o`tmagan Rusning boshidan.¹

misralarida shoir Gorkiyga murojjaat qila shunday deydi: senga Olloh shunday qismat berganiga shukr qil, xalqing boshidan shuncha qora kunlar o`tsa ham, ulardan omon qolganing uchun qismatingga ta`zim qilishing kerak. Agar Ollohim bunu hoxlamaganida bunday baxtli kunlar senga nasib qilmas edi, degan ma`noni tushunishimiz mumkin.

Barcha o`zbek xalqi yod biladigan O`zbekistonimizning ta`rifi yuqori cho`qqida berilgan 1964-1970-yillar davomida yozilgan “O`zbekiston” she`rida shunday misralar bor:

Toleingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding gohida sharob.
Etmoq bo`lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob.²

Yurtimizga toleyingda yashash bor ekan deya yana har bir ish faqatgina Olloh izmidaligiga ishonganligi uchun shu misralarni keltiradi. 1983-yilda yozilgan “So`nggi urush” she`rda taqdir so`zi yuqoridagi misralardan farqliroq, boshqacharoq qo`llanadi. Yuqorida taqdir so`zining orniga tole, qismat so`zlari kelib ular taqdir so`ziga to`liq sinonim bo`lib kelishayotgan edi. Biz keltirmoqchi bo`lgan she`rda esa aksincha, taqdir so`zi o`z manosida emas, ko`chma ma`noda qo`llanmmoqda. Bu, albatta, shoirning anchagina mahoratli ekanligidan darak beradi.

Ummon ortidagi mitti qiz Smit,
Jahon taqdiri deb jar solar shu choq.
Hayxot o`shal joyda qaysidir palid,
Uning qismatiga qayraydi pichoq.³

Mitti qiz Smitni kimlardir jahon taqdiri deb jar dolayotgan bir paytda qaysidair yaramas uning qismatiga nuqta qo`ymoqchi. Bu misralarda jahon taqdiri seb atalishiga sabab, u qizning inson manfaatiga hissa qo`shganligi uchun. Qismat so`zi esa, har doimgidek Olloh yozgan qismat emas, balki inson hayotiga, umriga nuqta qo`ymoqlik haqidadir. Bu misralarda taqdir va qismat so`zlari ko`chma ma`noda qo`llanmmoqda. 1986-yilda yozilgan “Tiriklik” she`rida qo`llangan qismat so`zini olaylik.

Oh, qandoq shirindir shu tahir hayot,
Oh, qandoq go`zaldir shu juldir qismat.⁴

¹ O`sha kitob, 153-bet.

² O`sha kitob, 180-bet.

³ A. oRipov, Tanlangan asarlar, 2-tom, 44-bet.

⁴ O`sha kitob, 79-bet.

Shoir bu misrada inson qismati nechog`lik beshafqat bo`lmasin, lekin insonni bu dunyoda tirik bo`lib yashab yurishining o`zi ham katta baxt ekanligini o`quvchilarga uqdirmoqchi. 1990-yilda yozilgan “Elim deb yongaydir sohib jur`atlar”she`rida :

Toleda borini sen ham ko`rgaydan,
Bir kun to`qlikka yuzni burgaysan.
O`shanda she`rimni eslab yurgaysan,
Yo`qchilik yomondir, yo`qchilik qursin.¹

Bu misralarda ham yuqoridagidek, tole o`z ma`nosida emas, taqdir ma`nosida kelyapti.

Shoirning taqdir motivi, taqdir atamasi ishtirok etgan she`rlarida, asosan, taqdirdan nolish kuzatilgan edi. Lekin 1987-yilda yozilgan to`rtligida shoir taqdiridan nolimaydi, aksincha Oллоh bergan taqdirga rozi ekanligini bildiradi:

Taqdir yo`rig`idan roziman ming bor,
Menga duch ayladi seni ey nigor.
Ko`zingda poyonsiz umrimni ko`rdim,
Sensiz bir lahzaning o`tmo`g`i dishvor.²

Yuqorida biz taqdir so`zi ishtirok etgan misralarni tahlil qilishga harakat qildik. Shoir ijodini tahlil qilar ekanman ularning ijodida biz xohlagan diniy motivimizni uchtratismiz mumkin. Masalan, Oллоh, taqdir, ruh, rasul, Hizr, mahshar, janoza, shahid, Ka`ba... kabi. Yuqorida biz ruh, taqdir atamasi, motivi qo`llangan she`rlarni tahlili qilishga harakat qildik. Endi esa shoir ijodida qo`llangan Oллоh, Rabb, Tangri, Xudo so`zlari ishtirok etgan she`rlarni ko`zdan kechiradigan bo`lsak:

Shoir ijodidagi ko`p bahs-munozaralarga sabab bo`lgan sher`i “Birinci muhabbatim” she`ridir. Birinchi misradan to oxirgi misraga yetguncha o`quvchi she`rni birinchi muhabbatini esga olib yozgan degan xulosaga kelishi mumkin. Lekin oxirgi misrasi nafaqat oddiy o`quvchini, balki, yetuk adabiyotshunos olimlarni ham o`ylantirib qo`yishi tabiiy.

Masalan:

Kecha oqshom falakda oy bo`zarib botganda,
Zuhra yulduz miltirab xira handa otganda,
Ruhimda bir ma`yuslik, sokinlik uyg`otganda,
Men seni esga oldim oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab hayolga toldaim birinchi muhabbatim.

Yo`lin yo`qotsa odam muhabbatga suyangay,

¹ O`sha kitob, 153-bet.

² O`sa kitob, 106-bet.

G`ussaga botsa odam muhabbatga suyangay,
Chorasiz qotda odam muhabbatga suyangay,
Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim,
Faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.

Nido bergil qaydasan, sharpangga quloq tutdim,
Sirli tushlar ko`rib men bor dunyoni unutdim,
Tongda tirib nomingga ushbu she`rimni bitdim,
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yo`lg`iz Oллоhim mening, birinchi muhabbatim.¹

Shoir bu she`rida inson ruhiyatida kechuvchi barcha murakkabliklarni mahorat bilan yoritadi va bora-bora barchaning yagona ishonchi Allohligiga o`quvchilarni ishontirmoqchi bo`ladi. She`rning ma`nosiga yuzaki qaraydigan bo`lsak yuqorida diniy motivlar qatnashgan she`rlarining tahlili ham bir taraf, “Birinchi muhabbatim” she`ri ham bir taraf bo`ladi. Xo`sh shoir, birinchi muhabbatim Oллоhim demoqchimi yoki o`zining birinchi muhabbatini yolg`iz Oллоhga qiyoslayaptimi? Bu muammoli yechimni yechish uchun biz tasavvufga murojaat qilishimizga to`g`ri keldi. Bizga ma`lumki, tasavvuf ta`limotida tajalli nasariyasi bor. Tajalli nazariyasi bu har bir insonda Allohning zarrasi bor. Shuning uchun har bir inson sevishta arzigulik, har bir insonda Oллоhning zarrasi bor ekan, uni hafa qilishga, dilini vayron qilishga hech kimning haqqi yo`q. Shuningdek tasavvuf ahli orasida falsafa va hikmat ta`sirida insonni Iloh darajasiga ko`tarish, inson bilan Xudoni barobar qo`yish hollari bo`lgan. Shu o`rinda tasavvuf ahli tez-tez murojaat qiladigan uch hil bilim bosqichlari-ilmul yaqin, aynul yaqin va haqqul yaqin tushunchalari mavjud. Arabcha “yaqin” so`zi ishonch, biror narsaga qat`iy ishonchni bildiradi. Bu so`z Qur`oni Karimda ko`p qo`llangan. Ilmul yaqin, aynul yaqin va haqqul yaqin-bilishning uch bosqichi. Birinchi bosqich kitobi, tahsiliy bilimga ishora bo`lsa, Ikkinchi bosqich o`z ishtirokidagi tajribaviy bilimni anglatadi. Uchinchi bosqich esa o`zi tajriba vositasiga aylanib, haqiqatni anglash bilimidir. Ilmul yaqin bilim orqali ishonish. Masalan deylik, menga tushuntirib aytdilarki, olov issiqdir va u kuydiradi, men bunga ishondim. Aynul yaqin-to`liq lm tajriba qilib ko`rib ishonish. Men o`zim sinab ko`rdaim: Olov haqiqatdan ham issiqdir va u kuydiradi. Haqqul yaqin-haqiqiy ishonch, ya`ni: men o`zim olovda yondim, va olovning yondirish kuchi va yondirish xususiyatiga batamom ishondim. Bu-Haqqga yetish ilmi.

A. Navoiuning “Lisonut- tayr” asarida “Parvonalar majmu`i sha`m haqiqati sharhida” (“Faqr fani vodiysining adosi” bobi) degan hikoyat bor. Unda keltirilishicha, parvonalar bir

¹ A. oripov, Tanlangan asarlar, 1-tom, 155-bet.

kecha yig`ilishib sham`ga tolib bo`ladilar; Kelishib olib, sham`ning mohiyatini anglamoqchi bo`ladilar. Shunda ulardan biri sham`ga yaqinlashdi, uning munavvar nurini ko`rib, qaytib kelib boshqalarga hikoya qilmoqchi bo`ladi, ammo parvonalar uning so`zidan hech narsa anglamaydilar, chunki, u sham` nima ekanini tushuntirib bera olmaydi. Shu zasylda yana bir necha parvona sham` atrofini aylanib kelib, ko`rganlarini so`zlaydilar. Lekin “Topmadi mushkul kushod andin dog`i”, maqsad amalga oshmaydi.

Sham` davrida qanot ko`p urdilar,
Har biri o`z bolu parin kuydirdilar.

Har biri kuygancha ondin topdi kam,
Sharhi dushvor erdiyu naqli harom.

Har bir parvona sham` nuridan lazzatlanadi, ammo uni sharhlab berolmadi. Chunki shu`lani til bilan sharhlab tushunturib bo`lmaydi, kishi to kuymasa olov haroratini anglamaydi. Navoiy bundan ikkita xulosa chiqargan: biri-Haq nuriga g`arq bo`lib uning jamoli haroratida yonmaguncha Haqni anglab bo`lmaydi. Ikkinchisi-Haqqa yetgan odam (kuygan parvona kabi) bu sirni bayon qilib bera olamaydi. Bu-Haqqul yaqinning o`zidir. Ya`ni foniy bo`lish, sub`yektning ob`yektga aylanishi, solik vujudining batamom yo`qolib ilohiy ilmga qo`shilib ketishi. Mansur Halloj ana shunday martabani egallagan zot edi-Haq olamiga qo`shilib “men Haqman” (Anal haq) dedi. Mansurning ustozlartidan Boyazid Bistomiy ayni hol ilhomi paytlaridan birida “Subhoni, subhoni, mo a`zam sho`ni” deb yuboradi, ya`ni “Sharaflanganman, sharaflanganman, men, mening martaba sha`nim ulug`ligiga qarang”. Qur`on bo`yicha bandasi bunday deyishga haqli emas, chunki bu Parvardigorning sifatlaridir. Ammo Boyazid o`zini Haq bilan birga his etib, Uning sifatlarini o`z sifati deb hisoblaydi. Boyazid Bistomiyning mana bu izhori ham qiziq: Bir payt U meni O`z huzuriga olib chiqdi va oldiga qo`ydi va menga dedi: “Ey Abu Yazid, haqiqatan ham mening maxluqim yuz ko`rishni sevadi, mayli, sening yuzingni ko`rsin”. Va men javobida dedim: “Meni o`z vahdating ila bezagin, o`z sifatlarining ila sifatlagin, tavhiding martabasi-la sharaflagin, toki maxluqlaring meni ko`rganda: “Biz Seni ko`rdik” va “bu sen bo`libdi” desinlar va men bu yerda bo`lmayin”.

Bu so`zlarda insonni ilohiylashtirish, komil inson sifatleri bilan Iloh sifatleri orasida tenglik alomatini qo`yish bor. Darvoqe Boyazid Bistomiy va Mansur Halloj ham shu fikrni olg`a surganlar. Bu xudolikka da`vo emas, hulul ham (hulul –Ilohning odamda singishi haqidagi nazariya)emas, balki insonni ulug`lash va tavhid bilan vahdat-kulliyatni nihoyatda chuqur anglashdir. Diqqat qiling: Boyazid so`zining oxirida “va men bu yerda bo`lmayin” deydi. Nima demoqchi u? U aytmoqchiki, mening bashariy qiyofam butkul yo`qolsin, ilohiy mohiyat kasb

etayin, butun vujudim Iloh ma`rifatiga aylansin. Shunda odamlar mening suratimda Xudoni ko`rsinlar.

Bu ma`nini ulug` shoir va so`fiy Jaloliddin Rumiy she`rbilan quyidagicha ifodalagan:

Onho ki talabgori xudoyes, xudoyed,
Berun zi shimo nest, shumoyed, shumoyed!
Chize, ki nakarded gum, az bahri chi chuyed,
V-andar talabi gumshuda az bahri charoyed?
Ismedu hurufesu kalomedu kitobed,
Jibrilu aminedu rasuloon shumyed.

(Ey xudoning talabida yurganlar, o`zingiz xudosiz. U sizdan tashqarida emas, balki siz bilan birgadir-sizdir. Yo`qotmagan narsangizni nega izlad yurasiz, agar yo`qolgan bo`lsa, yo`q narsani nega izlaysiz? Ismlar ham, kalomu kitoblar ham, So`z ma`ni sizsiz, Jabroilu Payg`ambarlar ham o`zingizsiz).

Zotu sifat, arshu kursi, lavhu-qalam hammasi Insondadur. Shunning uchun Xudo izlab har qayoqqa borishning hojati yo`q, jumladan, Makkatullohga borishning ham. Chunki har bir inson Xudoni o`zidan izlasin. Uning qudrati va shavkatini o`zidan ko`rsin, mazkur aqida “kimki o`zini tanisa, Rabbini taniydi”, degan hadis mazmunidan kelib chiqadi. Barcha hikmatlar, hodisot va mojizalar inson hilqatida joylashgan. Zero, Alloh Ta`oloning So`zi bor: “Men Yashirin hazina edim va sizni sevib qoldim, toki meni bilib olinglar va jinlar (malaklar), odamlarni yaratdim, toki meni biln olinglar”.

Inson mahluqotning, Odamlarning gultoji, Allohning yerdagi halifasi ekan, demak unda Alloh sifatleri bo`lishi mantiqiy hol. Bundan tashqari, “yashirin hazina” bo`lgan Alloh taolo ilmu hikmatning bir qismini inson qalbiga joylagan. Ya`ni inson “yashirin hazina”ni saqlovchi hazinadordir. Shu bois inson ko`ngli “irfon mahzani”. Alloh yashiringan tilsimotdir

Ko`nglin oni mahzani arfon qilib,
Ul tilsim ichra o`zin pinhon qilib.
Rozi mahfiy ganj o`lub bu turfa jism,
Sun`idin ui ganj hifziga tilsim.¹

Yuqoridagi fikrimni dalillash maqsadid “Tasavvuf” kitobidagi fikrimizga oid qarashlarni to`lalgicha keltirdim. Muhabbat ilohiy tuyg`u bo`lganligi uchun shoir o`z muhabbatini, o`zining sevganiga bo`lgan muhabbatni Ollohga bo`lgan muhabbatga qiyoslaydi. Tasavvuf tariqatida shunday rivoyat bor: “Tasavvuf ilmini egallamoqchi bo`lgan bir odam so`fiyga shogird tushadida, undan tasavvuf ta`limotini o`rgana boshlaydi. Bu ilmni chuqur egallamoqchi bo`lgan odam o`zini

¹ Najmiddin Komilov, “Tasavvuf”, 1-kitob, 39-41-bet

butkul bu olamdan uzib, butun fikru hayolini Oллоh yodi bilan band qilishi kerak. Ularning sevgan yori bu Oллоhdir. Shu kishi bir kuni ko`chada ketayotib g`ayridin bo`lgan bir ayolga ishqiq tushib tunu kun uning hayoli bilan band bo`ladi. Shunda so`fiylik ta`limotini egallaganlar shogirdning qilayotgan hatti harakatlarini ustoziga aytib, uni buy o`lga nomunosib ekanligini aytishadi. Shunda ustoz: “Qo`yaveringlar uning ishqida yonavrsin, toki Oллоhga bo`lgaan muhabbat, Oллоhning ishqida yonish qanday bo`lishi kerakligini tushunsin”, deb javob beradi.” Bu misollardan keyin aziz o`quvchi ham tushungan bo`lsa kerak, A. Oripovning “Birinchu muhabbatim” she`ri kimga bag`ishlanganini.

Shoirning inson ruhiyati bilan bog`liq yana bir she`ri, “Yolg`izlik”dir:

Bobolar gohida o`kinchga qolib,
Shohlarning nomiga noma bitganlar.
Inson sharafin xotira olib,
Tangrining yodini zikr etganlar,
Deganlar boqishib sirli samoga,
-Yolg`izlik yarashar faqat Xudoga.¹

Bu she`rda dono xalqimizning hikmatli so`zi “Yolg`izlik yarashar faqat Xudoga” birikmasidan foydalanish bilan birga Oллоhning yolg`izligiga ishora bor. Qur`oni Karimda keltirilgan, eng fazilatli suralardan biri “Ihlos”surasida ham Oллоhimning yo`lg`izligiga ishora bor. “Qul huvallahu Ahad. Alloh-somad. Lam yalid va lam yulad va lam yakul lahu kifivvan Ahad”. Ma`nosi: “Ey habibim: Makka ahlining:” Xudoying kim va qanaqa” degan savollariga sen javoban aytginki: U-yakkayu yolg`iz Oллоhdir! Alloh behojat, ammo hojatbarordir. U tug`magan va tug`ilmagan. Unga teng keladigan Biror zot bo`lmagan bo`lmaydi ham”.²

Yolg`izlik yarashar faqat Xudoga satrida Yarashar so`zining keltirilishi orqali insonning Tangridan naqadar kuchsiz ekanligini aytmoqchi. Oллоh hamisha yolg`iz unga hamrohning keragi yo`q, unga hamroh bo`ldigan zotning o`zi yo`q, inson esa, aksincha, yolg`iz yashay olmaydi, u hamrohga muhtoj, yolg`iz yashagan taqdirda ham u azobga mahkumdur. Shoir bu she`rida inson qanday holatda bo`lmasin, u baribir doim Oллоhga suyanishini shoir zo`r mahorat bilan yoritib beradi. A.Oripovning “Qardosh shoirga” she`rida:

Kechmish daholarning aytgan so`zlari,
Ahli diyonatning mulkidir bari.
Tangrini ilk bora o`ylab topgan kim,
Bu savol qoshida barchamiz ham jim...³

¹ A. oripov, “Tanlangan asarlar”, 1-tom, 205-bet.

² “Muqaddas oylar va mustajob duolar”, 168-bet.

³ A. Oripov, “Tanlangan asarlar”, 2-tom,54-bet.

Shoir ushbu she`rida qardosh shoirga bir qancha savollar beradi, agar savollarimga javob bersang men seni chin qardoshim, deb atayman. Shoir o`zining millatini boshqa millatdan ustun bo`lishni xohlagani uchun qardosh shoirga hech qachon javob topilmagan, bundan keyin ham topilmaydigan azaliy muammo, azaliy savolni beradi. “Tangrini ilk bora o`ylab topgan kim”, 2-bandida shoirning o`zi javob beradi: “Bu savol qoshida barchamiz ham jim”

Darhaqiqat, islom dinini miridan sirigacha bilaman, deydi odan ham bu savol qoshida jim. Boshqa bandlardan farqli o`laroq, aynan shu misraning oxirida (...) Ko`p nuqta qo`yilgan. Punktatsion bu belgining qo`yilishi ham bejiz emas. Chunki ko`p nuqta qo`yilgandan demak fikrning davomi bor, degan xulosaga kelinadi.

Quyidagi she`rda esa, Tangri boshqa bir so`z orqali ifodalanadi.

Aytchi, sobit kuning bor bo`lsa magar,
Bizni ne murodda yaratding, falak.

Savol tugiladi: bizni falak yarata oladimi? Albatta yo`q. Biror narsani yaratish faqat Yaratgangagina xos. Aslida shoir, falak deya, Tangriga murojaat qilyapti. Va aynan falak timsolida ifodalanishidan maqsad, Tangrining osmon qadar kuch-qudratga ega ekanligi va osmon qadar bepooyonligidadir.

Yuqorida Tangri so`zini falak timsoli orqali ifodalanganligini ko`rib o`tdik. 1977-yilda yozilgan “Momo oftob” she`rida ham shoir timsollardan foydalanadi.

Ey, sen, momo quyosh, Ey bibi oftob,
Yo`lgiz sen charog`san, yorsan boshimda.

Xo`sh, biz nimaga asoslanib, falak, oftob so`zlarini o`z ma`nosida emas, ko`chma ma`noda qo`llanyapti, nima uchun Falak, oftob so`zlarining zamirida Ollah so`zi yashiringan, degan fikrlarni ilgari surmoqdamiz. Bunday deyishimizning asosiy sababi, “Momo oftob” she`riga G`afur G`ulomning “Sog`inish” she`ridan parcha epigraf qilib keltirilgan: “Eng kichik zarradan yupitergacha o`zing murabbiysan”. O`zbek adabiyotida Tangriga timsollar orqali murojaat qilish yangilik emas. Bunday murojjaat, G`afur G`ulomning “Momo oftob” she`riga epigraf qilib olingan “Sog`inish” she`rida uchraydi.

Zo`r karvon yo`lida yetim bo`tadek,
Intizor ko`zlarda xalqa-xalqa yosh.
Eng kichik zarradan yupitergacha,
O`zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

Yuqoridagi she`rda ham quyosh o`z ma`nosida emas, ko`chma ma`noda qo`llanmoqda. Eng kichik zarradan yupitergacha kim xabardaor bo`lishi mumkin, albatta, Yagona Ollahning o`zi. G`afur G`ulomning quyosh deb murojaat qilishga majbur bo`lga. Chunki sho`rolar davrida

Tangriga ochiq-oshkora murojjaat qilishning iloji yo`q edi. O`sha paytdagi ateistik ruh bunday so`zlarni qo`llashga yo`l bermagan. Shuning uchun yuqoridagidek timsollardan foydalanishga majbur bo`lishgan. A. Oripov G`. G`ulomning aynan shu she`ridan epigraf qilib olishi bizning yuqoridagi fikrimizni dalillaydi. Yana “Momo oftob” she`ridagi ikkinchi misralari fikrimizni yanada mustahkamlantiradi.

Zardushtiy misoli yukinib shu tob,

O`tinib tururman yigit yoshimda.

Barchaga birdek ma`lumki, bizning zardushtiylik bu din. Zardushtuy misoli yukinmoqdaman, deyish bilan dinga ishora qilmoqda. Bundan ko`rinib turibdiki, A.Oripov o`zidan oldin o`tgan ustoz-shoirlarni ham an`analarini davom ettirgan.

Oftobim, shu kelar yilda ham faqat,

Shodliklar taratgin elga barobar.

Bu she`r asosan, Ollohdan biror narsa so`rash tarzida ketadi. Kim bo`lishidan qat`iy nazar har bir inson hayotidan ma`lumki, odam biror narsaga muhtojlik sezganda birinchi yaqinlaridan madad kutadi. Yon-veridan, yaqinlaridan madad bo`lmagach, hamma qo`lini duoga ochib, Ollohdan madad kutadi. Bu she`rda ham shoir xalqi uchun, millati, yurtining ravnaqi uchun Yaratganga duo qiladi.

Oftobim, himmating tutmagil darig`,

Dunyoda hech bitta inson zotidan.

Oftobim garchi bu koinot aro,

Mo`l senga aytgulik orzu ham tilak.

Oftobim mayliga, bir tong, biror zum,

Taftingga chulg`ama dala-tuzlarni.

Oftoboim, shular ham kun ko`rsin, axir,

Zulmat qalblariga yubor nur, ziyo.

Oftobim, shu munis zaminni zinhor-

Mehru shafqatingdan etma mosuvo.

Har o`tgan zum uchun shukrona aytib,

Senga talpinurman, ey momo oftob!¹

Bizga ma`lumki, insoniyatni boshqarib turuvchi bir katta kuch bor. Faqat shu kuch orqaligina inson hayotida nimadir sodir bo`ladi, shularning barchasi Yaratganning izmi bilangina bo`ladi. Hamma oftob so`zining zamirida Alloh so`zi yashiringan.

¹ A. Oripov. “Tanlangan asarlar”, 1-tom, 273,274-bet.

Tahlil davomida shunga amin bo`dimki, diniy motivlar, diniy atamalar A.Oripov ijodida mustahkam o`rin egallagan. Sho`rolar davridagi ateistik ruhga qaramasdan, she`rlari orqali ateistik ruhga dadil qarshi chiqa olgan. She`rlaridan bilishimiz mumkinki, A. Oripov o`zining diniga, o`zining diniy qarashlariga sobit turgan. Faqatgina ikki she`rdagina Allohni boshqa timsollar orqali ifodalagan. Bu ham Ollohga ochiq-oydin murojaat qilgan ilk she`ridan 15 yil o`tgandan keyingina ustoz shoir an`anasini davom ettirgmoqchi bo`libgina timsollardan foydalangan. Bungacha shoir Alloh, Tangri, Rabb so`zina dadil qo`llaydi.

Demak, Biz A. Oripovni sho`rolar davrida ham o`z soziga ega bo`lgan shoir, deya barilla ayta olamiz.

Quyida biz A. Oripovni islom dinigagina xos bo`lgan bir qancha diniy motivlar, diniy atamalar qatnashgan misollrni ko`ramiz.

1969-yilda yozilgan “Ona sayyora” she`rida:

Nahotki yerimiz shu kichik soqqa,
Nahotki, biz shunga jo bo`lsak, hayhot!..
Nabilar, rasullar, dohiylar unda,
Qabrlar, qasrlar turgandir qator.

Bu she`ridagi qabr atamasi barcha dinlar uchun xos bo`lgan so`z hisoblanadi. Rasul so`zi esa faqatgina islom diniga xos bo`lgan atamadir. Rasul so`zi Payg`ambar so`ziga sinonim hisoblanadi. Yuqorida iymon shartlarini sanab o`tganimizda, iymonnig yana bir shartlaridan biri, payg`ambarlarga iymon keltirish, ya`ni ishonishdir. Har bir mo`min kishi Alloh taolo insonlarga O`zi tanlab olgan insonni payg`ambar qilib ya`ni odamlarga Ollohning so`zlarini yrtkazib turuvchi komil inson hisoblanadi. Payg`ambarlar o`z ummatlariga Xudoyimning barcha so`zlarini , nima qilish keragu, nima qilish kerak emasligini, insonlarga yo`l-yo`riq ko`rsatadigan mukammal shaxs hisoblanadi. Yana rasullarga oddiy insonlar iymon keltirishi uchun oddiy odamlar qo`lidan kelmaydigan mojizalar ko`rsata olish qobiliyatiga ham ega bo`lganlar va bu fazilat orqali odamlar ularning payg`ambar ekanligiga iymon keltirishgan. Boshqa dinlardan farqli iislom dininig muqaddas kitobi-“Qur`oni Karim”da musulmonlarni barcha payg`ambarlarga iymon keltirishga chaqirgan. Bu esa dunyodagi barcha xalqlarni bir-birlari bilan do`st, birodar bo`lib yashashlariga sabab bo`ladi. Haqiqatdan ham, insonlar barcha pay`ambarlarga iymon keltirsalar, bir-birlarini o`zaro tushunishlarini oson kechadi., kelishmovchiliklar yo`qoladi. Barcha dindagi kishilar Qur`oni Karimdan o`z payg`ambarlariga nisbatan hurmat-e`tiborni topishi mumkin. Boshqa dinlarda esa bunday holat uchramaydi. Alloh taolo barcha payg`ambarlarini insonlarni havoyi nafs qulligidan ozod qilish, turli gunohlardan qaytarish, yaxshi hulqlarga ega ega bo`lish uchun chaqirishga yuborgan. Ular to`g`risida Qur`oni

Karimda shunday marhamat qilinadi: “Va ularni O`z amrimiz ila hidoyatga boshlovchilak qilidik. Ularga yaxshilik qilishni, namozni tugal ado etishni va zakot berishni vahiy qildik. Ular bizga ibodat qilguvchilar bo`ldilar.” (“Anbiyo” surasi, 73-oyat.)

Yuqorida aytib o`tganimizdek, boshqa din vakillari faqat o`zining payg`ambarinigina tan oladi, boshqa payg`ambarlar ular uchun shunchaki uydirma. A. Oripov dindor bo`lib, boshqa din vakili bo`lganda, “Ona sayyora” she`rida rasul so`zini ko`plik shaklida rasullar tarzida keltirmas edi. Shu ko`plik -lar shakli shoirni dinlardan aynan islom diniga e`tiqod qilishini bildiradi.

1976-yilda yozilgan “Tafakkur monoligi” she`rida, pag`ambar, xudo so`zlari ko`chma ma`noda qo`llangan:

Meni atadilar xudo deb avval,
Payg`ambar dedilar va daho tugal.
Buyukman baridan ming-minglab karra,
Xudo ham, daho ham mendan bir zarra.¹

Ushbu she`rda tafakkur o`z og`zidan so`zlaydi. She`rning badiiy jihatdan yaxshi chiqishi uchun shoir mubolag`a san`atini qo`llaydi. Tafakkur o`zini xudodan, payg`ambardan ustun qo`yishiga sabab, barcha narsaning boshida tafakkur, fikrlash yotadi. Daho tafakkur qilganidan daho darajasiga yetdi, degan fikrni ilg`ab olishimiz mumkin.

Qir`oni Karimda 25ta payg`ambarning ismi zikr qilingan. Barchaga ma`lumki, muqaddas kitobda zikr qilinmagan, ammo payg`ambar sifatida o`tgan zotlar ham bor. Qur`oni Karimda zikr qilingan payg`ambarlarning biri Hizr alayhis salomdir. Hizr (a.s.) Rabg`uziynnig “Qissasi Rabg`uziy” asarining “Muso birla Hizrning rif`at darajasi bayoni” da ham uchraydi. Asarda shunday satrlar bor: “Hizr aydi: “Manga yorur bo`lsang har ne qilsam so`ramag`aysan. Man senga aytqaymen”, ”.² hozirgi keltirilgan misol Hizr (a.s.)ni dinga xos shaxs bo`lganligini dalillaydi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, har bir payg`ambar mojiza ko`rsatishga qodir bo`lgan. Hizr a.s. boshqa payg`ambarlardan haligacha tirikligi bilan ajralib turadi. Ammo, Hizr a.s. faqat yaxshi, ezgu tilakli odamlarning ko`ziga ko`rinadi. Afsuski kopincha odamlar ularning Hizr ekanliklarini bilmay g`aflatda qoladilar. Agar kimda-kim Hizrni uchratib undan xohlagan narsasini so`rasa, albatta o`sha narsa amalga oshadi. Shuning uchun odamlar orasida biror aytgan narsasi to`gri kelib qolsa, “Hizrni yo`qlasam bo`larkan” ibora yuradi.

1976-yilda yozilgan “Bir tanishim haqida ballada” aynan shu payg`ambar-Hizr a.s. haqida so`z ketadi:

Dedim Hizrmisiz, bobom aytgandek,

¹ O`sha kitob, 261-bet.

² Nosuriddin Burhoniddin Rabg`uziy, “Qissasi Rabg`uziy”, 2-kitob, 21-bet.

Madad berasizmi shunday chog`larda?

U ma`yus jilmayib, qosh chimirdi tek:

-Bolasan, hayoling ko`p uzoqlarda.

Mayli Hizrmanmi yo Hizr emas,

Har nechuk turibman qoshingda ayon.¹

Xatto yosh bolalarda Hizr a.s. haqida tushuncha bor. Bola biladi: Hizr (a.s.) ko`proq inson nochor paytida uning qarshisida paydo bo`ladi. She`rda haqiqat so`zi Hizr a.s. timsoli orqali ifodalanyapti.

Bizga islom kitoblardan ma`lumki, shahid bu ajali yetmasdan Olloh yo`lida, o`z Vatanining ozodligi yo`lida jang qilayoygan paytda vafot etishi hisoblanadi. Qur`oni Karimda keltirilishicha, shahid ketgan inson hech qanday so`roq-savolsiz to`g`ri jannatga kiradi.

“Jangdan qaytmagan shoirlarga” she`rida:

Isming balki, Sulton, balki Qodirdan,

Sen jangdan qaytmagan shahid shoirsan.

Lekin g`olibsanki, safda hozirsan,

Sen saqlab qololgan jahoning menda.

Ushbu she`rda yaqqol ko`rinib turgan ma`nodan boshqa pragmatic, tag ma`no bor. Tarixdan barchaga ma`lumki, sho`ro hukumati, sho`ro siyosatiga o`z asarlari, o`zlarining qat`iy fikrlari orqali qarshi kurashgan o`zbekimning mard o`g`lonlari, A.Qodiriy, U. Nosir, Cho`lpon, Xamza...lar sho`ro hukumati tomonidan qatag`on qilingan. A. Oripov ularning qilgan xizmatlari uchun ularning o`limini shahidlik savobiga tenglashtirgan. Ular sho`ro hukumatiga ma`nan kurashgan bo`lsa ham shoir ularni jangda Vatan uchun kurashib shahid ketganlar qatoriga qo`shmoqda. Darhaqiqat, Vatan ozodligi yo`lda shahid bo`lgan ota-bobolarimizning ham, o`zbekimning mard o`g`lonlari qatag`on shoir, yozuvchilarning ham maqsadi bitta bo`lgan. Ular qatag`on bo`lib bu dunyoni erta tark etgan bo`lsalar ham, ular mehnati besamar, beiz ketmadi:

Beiz ketmadi yo`q shahidlar qoni,

Quzg`undan asradi ma`sum dunyoni.

Islom diniga e`tiqod qiluvchi musulmon vafot etsa, albatta, janoza duosi o`qilishi shart. Janoza marhumning yaqinlari o`rtasidagi so`nggi vido ham hisoblanadi. Agar janoza o`qilmasa ruh vujuddan chiqib keya olmaydi va ruh qiyomatgacha azobda qolib ketadi. Janoza o`z joniga qasd qilganlarga o`qilmaydi. Ota-bobolarimizning aytishicha, sho`ro hukumati musulmonlarga xatto janoza o`qishni ham man etishgan.

¹ O`sha kitob, 263-bet.

Shoirning 1983-yilda yozilgan “Do`stim Murod Hamroyev hotirasiga” she`rida shunday satrlar bor:

Netay janozangga kechikdim o`zim,
Nogoh bu zarbadan qoldim dovdirab.
Kimga hitob aylan, Murod, azizim,
Boqurman qabringga endi jovdirab.¹

Abdulla Oripov ijodida yana mahshar, qiyomat, oxirat kabi diniy atamalar ham uchraydi. Avval bu atamalarning qanday ma`no anglatishini ko`rib o`tsak. Qiyomat bu-dunyoning, hayotning poyoniga yetishidir. Alloh taoloning hikmati bu dunyodan so`ng u kelib, unda har bir kishi qilgan ishiga qarab jazo oladi yoki mukofot olishini taqozo etadi. Qiyomat kunida to`rt farishtalardan biri Isrofil a.s. surnay chaladi. Birinchi marta surnayni chalganda dunyodagi jamiyki tirik janjotlar o`ladi. Ikkinchi marta chalgandan so`ng dunyo yaralgandan beri yashab o`tgan odamlaru hayvonlar tiriladilar. Boshqa din vakillari qayta tirilishga ishonmaydilar. Qayta tirilishga ishonish bu iymon shartlaridan biri hisoblanadi. Bu haqda Qur`oni Karimda shunday marhamat qilingan: “Nahotki, Bizning sizni yaratishimiz behuda bo`lgan va siz qaytarilmassiz, deb hisoblagansiz?!” (Mo`minun surasi, 115-oyat)

Rum surasi 27-oyatda: “U mahliqotni yo`qdan bor qiladir, so`ngra uni qaytadan vujudga keltiradir, bu unga juda osondir.”

Insonlar o`lib qayta tirilgach mahshar maydoniga yig`iladilar va birin-ketin so`roq-savol qilinadilar. Har bir kishining bu dunyoda qilgan ishlarining nomai-a`moli xisob uchun keltiriladi. Qiyomat kunida osmon o`z holatini o`zgartirib, nizomsiz bir narsaga aylanib qoladi. Do`zaxga qattiq o`t yoqib qizdiriladi. Taqvodorlar uchun esa jannat hozirlab qo`yiladi. Hamma narsaning holi o`zgaradigan bu kunda har bir inson o`zining qilgan ishiga qarab mukofot yoki jazo oladi. Yaxshiliklarining darajasi ko`p bo`lsa jannatga, yomonliklarining darajasi og`irroq kelsa do`zaxga qarab yo`l oladilar.

1986-yilda yozilgan “Xusumat” she`rida:

Har holda bo`lmagay qiyomat-qoyim,
Bularning ko`plari quruq savlatlar.
Yomondir, yomondir, qo`yniga doim,
Tosh solib yursa gar davlatlar,²

Yuqoridagi she`rda qiyomat-qoyim so`zi o`z ma`nosida kelmayotgan bo`lsa ham, to`g`ri qo`llangan. Ko`chma ma`noda qiyomat-qoyim bo`lmagay, deb rostakan qiyomat-qoyim emas, balki notinchlik bo`lmagay, ma`nosini tushunishimiz mumkin.

¹ A. Oripov, “Tanlangan asarlar” 2-tom, 39-bet.

² O`sha kitob, 90-bet.

Yuqorida qiyomat-qoyim, do`zax so`zlarini izohlab o`tgan edik. Shoirning “So`nggi urush” she`rida quyidigicha satrlar bor:

Yo`q bu pok dillardan yiroq malomt,
Bu-bani odamga ko`rgulik sho`rim.
Bu sho`rlik zaminga chang solgan ofat,
Bu-do`zax, bu o`lim, bu-so`nggi urush.

“Xusumat” she`ri singari ushbu “So`nggi urush” she`rida ham do`zax so`zi ko`chma ma`noda qo`llanmoqda. Faqat do`zax so`zi ot so`z turkumida emas, belgi bildiruvchi sifat so`z turkumida qo`llanmoqda. Va badiiy san`atlardan bir narsani boshqa nom bilan atash, istiora san`ati yoki tashbeh-o`xshatish san`ati qo`llanyarti deyish ham mumkin. Do`zax so`zi o`z ma`noda kelmayotgan bo`lsa ham salbiylik xusiyatini yo`qotmagan. Shoir urushni do`zaxga o`xshatishi orqali urushni nechog`lik yomon hodisa ekanligini, urush paytida yashayotgan odamlar esa o`zlarini do`zaxda yashayotgandek his qilishini yuqoridagi she`rdan anglashimiz mumkin.

Shoir A. Oripov ijodini tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo`ldimki, u sho`rolar davrida ham o`zining mustaqil fikriga ega bo`lgan. Va o`zining o`ylagan o`y-fikrlarini qo`rqmasdan xalqqa, ommaga ayta olgan. “Bir o`ylab ko`raylik, o`z mustaqil fikriga ega bo`lish-bu nima degani? Bu avvalo, ko`p-ko`p fikr va misollarni o`zaro solishtirib, qiyoslab, ularning ichidan yakkey yagona to`g`ri haqiqatni ajratib olish, uni o`z ongiga singdirish, shundan xulosa chiqarib yashashga qodir bo`lish demakdir”¹, degan edi hurmatli yurtboshimiz. A. Oripov O`zining to`g`ri chiqargan xulosasini nafaqat o`z ongiga, balki xalqning ongiga ham o`z she`rlari orqali singdirishga harakat qildi.

Yuqorida ikkinchi bobda o`zimizga berilgan Abdulla Oripov ijodida idtiqloldan oldin ham uning asarlarida diniy motiv, diniy atama uchraydimi yo`qmi, shu savolga javob berishga harakat qildik. Va shuni baralla ayta olamanki, 90-yillargacha bo`lgan davrda ham shoir Abdulla Oripov ijodida diniy motivlar, diniy atamalar salmoqli o`rin egallagan. Bizga adabiyot tarixidan ma`lumki, 50-55-yillargacha adabiyotda konfliktsizlik, xudosizlik ruhida asarlar yozishga o`zbek shoirlari majbur bo`lishgan. Maboda ularning asarlarida dinga oid atama uchrab qolgudek bo`lsa ham ularni qattiq tazyiq ostiga olishgan. Shuning uchun ham ular bunday narsalarni ochiq-oshkora ifoda qilishi olmagan. Bunday holatni yuqorida G`afur G`ulomning urush yillarida yozgan “Sog`inish” she`ri misol bo`la oladi. 1958-yillardan boshlab konfliktsizlik va xudosizlik ruhi asta-sekinlik bilan pasaya boshladi. A. Oripov ijodining boshlang`ich davri ayni o`sha paytlarga to`g`ri kelgan. Va A. Oripov bunday imkoniyatdan samarali foydalangan. Shoir

¹ I. Karimov,

o`z ijodini asta-sekinlik bilan diniy motivlar, diniy atamalar bilan boyitib borgan. Shoirning ko`p she`rlaridagi asosiy g`oyaviy-badiiy maqsad boshqa bo`lsada, shoir ishonchliroq chiqishi uchun diniy terminlardan foydalangan. Shunday she`rlar sirasiga 1964-1970-yillar davomida yozilgan “Ozbekiston” she`rini misol qilib keltirsak bo`ladi.

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
Toleingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Odil hakam-Haq bor, beg`araz,
Mazlumlarning buyuk g`amxo`ri.
Qilich serpab tole tongida,
O`zligingni tanib qolding sen.
O`g`lonlarning qatra qonida,
Ozbekiston nomin olding sen.
Nomi qitlug` gulshanim manim,
Ozbekiston, Vatanim manim.¹

Ushbu she`rning asosiy g`oyaviy-badiiy maqsadi bu O`zbekistonni madh etish va tarixiga bag`ishlangan bo`lsada, behisht, tole, Haq so`zlarini o`z o`rnida qo`llay bilgan.

O`zbek millatiga mansub kishilarning asosiy qismi necha asrlardan buyon islom diniga e`tiqod qiladi. A. Oripov o`z asarlariga islom diniga xos bo`lgan terminlarni qo`rqmasdan qo`llaganligi uchun necha yillardan buyon xalq shoir she`rlarini sevib o`qiydi.

II bob. “Jannatga yo`l” dramatik asarida din va umuminsoniy g`oyalar

A. Oripovning avtobiografiyasidan ma`lumki, u kishi shoir bo`lishdan tashqari mohir tarjimondir. Tarjimon sifatida ular Dantening barchaga ma`lum va mashhur “Ilohiy komediya” asarining “Do`zax” qismini mahorat bilan tarjima qilgan. Shoir bu asarni tarjima qilish uchun yillab vaqtini sarf qilgan. Aytish kerakki, bu qimmatli vaqtlar behuda ketmadi. Jahon adabiyotining bu nodir asari o`z bo`y-bastiga to`gri keladigan tarjimonini topdi. A. Oripov olimlar bilan suhbatlarning birida shunday deydi: “Agar men Dante bilan suhbatdosh bo`lib

¹ A. Oripov, “Tanlangan asarlat”, 1-tom, 178-180-bet.

qolsam, nima haqida gaplashar edim. U menga eng yaxshi zamondosh bo`lardi. Men u bilan bugungi hayot muammolari yuzasidan yaxshi va yomon, vijdonli va vijdonsizlar, halolni xaromdan farq qiladiganlar va qilmaydiganlar haqida gaplashardim. Dantedan poraxo`rlar, o`grilar, xasadgo`ylar, laganbardorlar va hakoza-hokazolar hozir ham qo`rqib keladilar. O`zining shu hislatlari bilan Dante bizga ham zamondoshdir.” Dante nafaqat Abdulla Oripov bilan, biz bilan va bizdan keyingi avlod bilan ham zamondosh bo`la oladi. Chunki yuqorida aytilgan barcha illatlar hozirgi zamonda ham, kelasi zamonlarda ham bo`lishi mumkin. Shunday illatlarni bartaraf etish maqsadisa, shoir “Jannatga yo`l” dostonini yaratdi. Nomiga qarab, A. Oripovning bu asari bugungi hayot tasviri emas, balki inson o`lganidan keyingi yaxshiliklari uchun mukofot tariqasida beriladigan jannat haqidagi asar degan hayolga borishi mumkin. Biroq asar nomi jannat bilan aloqador bo`lsa ham asl mazmuni hozirgi kundalik hayot voqealar, uning keskin ziddiyatli tomonlari bilan bog`liqdir. Shoir o`z asarida u dunyo voqealari orqali bugungi biz yashayotgan dunyodagi illatlarni fosh etmoqchi bo`ladi.

Inson bu dunyoga kelib yaxshilikmi, yomonlikmi, nimadir ish qilishi, barchisini hisob-kitob qilib yuradigan Yagona Haq borligini o`quvchilarga shu asari orqali yetkazmoqchi bo`ladi. Shoirning asosiy maqsadi shu.

“Jannatga yo`l” dramatik dostoni 1978-yilda yozilgan. Dantening “Ilohiy komediya” asarini o`qib, keyin A. Oripovning ushbu dostonini o`qigan odam bu asardan Dantening hidi kelib turganini payqash qiyin emas. A. Oripovning o`zi ham dostonni “Ilohiy komediya”dan ta`sirlanib yozganini yashirib o`tirmagan.

Endi asar mazmini haqida suhbatlashsak. Asarda ishtirok etuvchilar: Yigit, Ona, Ota, Tarozibon, Yugurdak, Chol, Farishta, Farishtalar, Do`st, O`zga odam, O`spirin, Qariya, Kimsa va Sado. Asar besh ko`rinishdan iborat. Asarning birinchi ko`rinishi shunday boshlanadi:

Mahshar sahrosida g`ujg`on olomon. Tarozibon huzurida Yigit va O`zga odam.

Mahshar tongi asta-sekin oqarib kelar,

Ko`z oldimda sodir bo`ldi ulug` qiyomat.

Necha yuz yil davom etdi, bilmam bu yo`llar,

Tarozibon qoshiga ham yetdik nihoyat.

Taroziga tushar emish gunoh va savob,

Qaysi biri ko`proq ekan peshonamizda?!

Mana shu olti qator she`rni faqat islom dinidan xabardor insongina yoza oladi. Chunki islom dinida iymonning yeti shartining birinchisi bu qayta tirilishga ishonishdir. Bu dostondagi voqealar ham jamiki insonlar o`lib qayta tirilgandan kayingi Qiyomat payti tasvirlanmoqda. Darhaqiqat islom diniga oid kitoblatda yozilishicha Qiyomat kuni barcha Mahshar sahrosiga

to`planadilar va bu manzilga yetib kelishi uchun qancha ming yillab vaqt ketishi muqaddas kitoblarda yozilgan. Yuqoridagi satrlarda Yigit tomonidan: “necha yuz yil davom etdi”, deyishi ham islom dini uchun xos. Mutassavuf abu Hurayradan aytilgan hadisda, Payg`ambarimiz (s.a.v.) aytadilarki: “Ular qabrlaridan yalang`och va yalangoyoq holda chiqadilar va etmish yil bir yerda turadilar. Alloh ularga qaramaydi va hukm chiqarmaydi, ular ko`z yoshi tugaguncha yig`laydilar. Ko`z yoshi tugagach, qon yig`laydilar va terlab, terlari ularni iyaklarigacha ko`mib jilovlab bog`laydigan holatga kelganlarida ularni mahsharga (yig`ilish joyiga) chaqiradi.” Qiyomat kuninig dahshatlari to`g`risida kitoblarda shunday keltiriladi. O`sha kunda butun dunyoda o`zgarish yuz beradi. Quyoshning nuri yo`qolib, o`z joyidan qo`zg`aladi. Nurini yo`qotgan yulduzlar ham har tarafga sochilib ketadi. Vahshiy hayvonlar ham qo`rqqanidan bir yerfa g`uj bo`lib oladi. Dengizu daryolar toshib, suvlari bir-biriga aralashib ketadi. Osmon o`z holatini o`zgartirib nizomsiz bir narsaga aylanib qoladi. Qur`oni Karimda har bir inson qilgan ishlari uchun hisob-kitob qilinishining muqarrar ekanligi haqida ko`p so`z yuritilgan. “Qiyomat” surasuda qiyomat kuni ko`zlar dahшту hayratda qoladi. Oy o`z o`rnidan jiladi va quyosh ikkovi bir-biriga qo`shilib ketadi. Borliq, tartib degan narsa qolmaydi. Shunday bir dahshatda, qo`rqinchda qolgan inson qayerga qochsam ekan, qayerdan boshpana tosam ekan, deb hayolda qoladi. Albatta Allohning dargohidan boshqa qochadigan joy ham, boshpana ham yo`q. U vaqtda hech qanday uzr qabul qilinmaydi. Hisob-kitobdan so`ng, taqvodor mo`min-musulmon kishilar jannatga kiritiladilar va jannatda moddiy va ma`naviy ne`matlardan xohlaganicha bahramand bo`la oladi. Yomon ish qilgan kishilar esa, do`zaxga kiritiladilar va u yerda kuchli olovda yondirilib azobga duchor bo`ladilar.

“Jannatga yo`l” dramatik dostonidan keltirilgan yuqori misollarda hozirgi aytilgan holatga to`g`ri keladi. Darhaqiqat qiyomat kuni gunoh va savoblar tarozida o`lchanadi. Oyisha (roziyallohu anho) onamiz Rasullulohdan so`radilar: “Qiyomat kuni kishi yaxshi ko`rgan odamini eslaydimi?”, dedi. Aytadilarki: “Uchta joyda eslay olmaydi: amallari tarozuga qo`yilganda, chunki tarozim og`ir keladimi yoki yengilmi, degan hayol bilan band bo`ladi...”

Asarda esa tarozi jonlanib, Tarozibon tarzida ifodalangan.

Asarda gunoh va savoblarni Tarozibon o`lchab ularning joyi jannat yoki do`zax ekanligini aytadi. Shu paytda asar qahramonlari Yigit va O`zga odam navbatini hayajon bilan kutib tirgan bo`ladi. O`zga odam shunday deydi:

Tarozibon ne desa shu ishonamizda,

Qaysi kuni yig`lab ketdi bir mo`ysafid chol.

Yetti bora Haj savobi bo`lmabdi maqbul.

Yigit negaligini so`rasa, O`zga odam shunday deydi:

U dunyoda yiz berib qay hol,

Otasini sensiragan ekan bir bor ul.

Bizga ma`lumki, boshqa millatlardan, boshqa dinlardan farqli ravishda o`zbek millatida, islom dinida ota-onaga bo`lgan hurmat alohida ajralib turadi. Ota-ona nohaq bo`lsa ham farzandni yo otasiga yo onasiga tik boqishga haqqi yo`q. Albatta, bunday hurmatning chuqur ildizi dinga borib taqaladi. Alloh taolo hamma kitoblarida Tavrotida, Injilda, Zaburda va Qur`oni Karimda bu narsani zikr qildi va barcha payg`ambarlarga vahiy keldi. Ularni ota-onaning haq-huquqlarini bilishlikka buyurdi. Alloh o`zining rizovi ota-onaning rizosida va o`zining g`azabi ota-onaning g`azabida ekanligini bildirdi. Parvardigorning so`zi bordirki: “Biz insonni Ota-onasiga yaxshilik qilishga buyurdik.” “Ahkof”, 15-oyat. Ali (k.v) Rasulluloh (s.a.v.)dan rivoyat qiladilar. Rasulluloh (s.a.v.) marhamat qilib dedilar: “Har qachon ota-ona farzandina chaqirgan vaqtida, farzand hamma ishini tashlab, ularning oldiga borib, aytganlarini joni dilidan ado etsin. Agar beparvolik bilan ularning buyurganini qilmasa, men unday ummatdan bezorman.” Rivoyat qilurlarki, rasulluloh (s.a.v.) bir majlisda uzun bir hadisni marhamat qilib, so`zlarining oxirida qasam bilan shunday dedilar: “Meni xalqqa haqiqiy payg`ambar qilib yuborgan Xudo haqqi, ota-onasiga yaxshilik qilib, o`zidan rozi etgan odan jannatda men bilan birga bo`ladi”.¹ “Hishom Ibn Urva otasidan aytadi: Hikmatda yozilgan: “Kim otasini va onasini la`natlasa, u la`natlangandir, kimiki yo`lto`sarlik qilsa la`natlangandir..., Payg`ambarimiz (s.a.v) rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: “Albatta kishi ota-onasini so`kishi katta gunohlardandir...”.²Yuqoridagi misollardan ko`rinadiki, islom dinida ota-onaga bo`lgan e`tabor, hurmat ancha yuksakdir. Va farzandni ota-ona oldida 10 ta burchi bor. Shularning eng birinchisi, ota-onani rozi qilishdir. Xuddi shu misollardan kelib chiqib dono xalqimiz bilib aytgan: “Ota rozi-Xudo rozi”.

Islom dinida 5 ta farzning borligi barchaga ma`lum.

1. Kalimayi shahodat;
2. Iymon;
3. Ro`za;
4. Haj;
5. Zakot.

Agar musulmoning qurbi yetsa, Haj amalini bajarish har bir musulmon uchun farzdir. Inson dunyoga kelib, bu dunyoda yashar ekan, mana shu oxirat uchun yashaydi. Va har bir musulmon Hajga borish uchun necha yillab o`zini tayyorlaydi. Hajga insonlar Alloh tomonidan yuborilgan qora toshni-Ka`bani ziyorat qilish uchun boradi. Agar bandaning niyati xolis bo`lib, Ollah Haj savobini qabul qilsa onadan yangi tug`ilgan chaqaloqdek, begunoh bo`ladi, deyilgan

¹ Miuhammad Salim ibn Muhammad Rahim Buhoriy, “Durratul-va`izin”, 114-bet.

² Abu Faqih Abu Laya As-Samarqabdiy, “Tanbehul G`ofiliyn”, 1-kitob, 127-bet.

hadisu sharif, Qur`oni Karimda. Odam yeti marta Hajga borsada, otasi yoki onasini rozi qilmas ekan, bari bekordir, u hech qachon Olloh roziligiga erisholmaydi. Shoir bu misralari orqali Haj amalini bajarib hoji bo`lgandan, ota-ona roziligini olish maqbulroqligini o`quvchilarga aytmoqchi bo`ladi. Menimcha shoir bu misralarni quyidagai rivoyatni nazarda tutib yozgan bo`lsa kerak. Bir musulmon Haj safarini niyat qilib, 30 bora Haj qilgan bir donishmanddan maslahat so`rabdi. Donishmand so`rabdi: -Onangiz bormi? Haj safarini niyat qilgan inson onasi borligini aytibdi. –Unday bo`lsa,-debdi donishmand,-Men sizga 30 bora haj qilgan savobimni beraman, siz esa menga onangizni bir kunlik qilgan xizmatingiz savobini bersangiz bo`ldi,-deydi donishmand. Bu javobni eshitgan yigit haj savobidan ota-ona roziligi muhim ekanligini anglab yetadi.

A. Oripov mana shunday misralarni keltirish orqali o`sha zamon va hozirgi zamon yoshlariga ota-ona g`animat ekanligini, ularning tiriklik chog`larida xizmatlarini qilib roziliklarini olib qolishga chaqiradi.

Yigitga mana shu xabarni yetkazgan O`zga odam Tarozibonga yaqinlashar ekan “Bismillahir Rohmanir Rohiyim” deydi. Bu so`zning ma`nosi shuki, nehribon va rahmdil Olloh nomi nilan boshlayman. U hamma narsani bilguvchi va kechiruvchidir. Chunki bu atama faqat islom diniga xos. Har bir musulmon biror ishni boshlashdan oldin shu so`z bilan boshlaydi. Allohning rasuli (s.a.v) aytadilar: “Bismillah oyati Ismi A`zamdir. Ismi A`zam bilan uning orasidagi yaqinlik ko`zning oqi va qorachig`I orasidagi yaqinlik singaridir.” “Kim shaytonning yomanligidan Alloh taoladan o`n marta panoh tilasa, ya`ni A`uzu billahi minash shaytonir rojiym, Bismillahir Rohmanir Rohiyim desa u inson uchun bir farishta mas`ul bo`lib, shaytonni undan uzoqlashtiradi”.

“Yaxshi amallar “bismillah”siz boshlanar ekan, uning orqasi kesikdir”, deya marhamat qilganlar Payg`ambarimiz Muhammad (s.a.v.).¹

Shoir O`zga Odam tilidan shu so`zni keltirish orqali asardagi bo`layotgan voqea-hodisalar islom dini qoidalari asosida kechayotganligiga ishora qilgan bo`lsa ajab emas.

O`zga Odamga Tarozibon uning joyi arosatda ekanligini aytadi. Islom dinidan ma`lumki, inson o`lgandan so`ng boradigan joyi yo do`zax yoki jannatga kiradi. Islom dinida arosat atamasi ko`p ham uchramaydi. Arosat so`zi Dantening “Ilohiy komediya” asarida, o`zbek rivoyatlarida va ba`zi hadis shariflarda uchraydi. Adabiyotshunos olim M. Qo`shjonov aytgandek, A. Oripovning “Jannatga yo`l” dramatik asarida Dantening hidi sezilib turadi, deb aytgan edi.

¹ “Muqadda oylar va mustajob duolar”, 140-bet.

Xalq kitoblarida shunday rivoyat mavjud. Bir Jamshid ismli adolatli shoh yashab o'tgan ekan. U nihoyatda dinga ishonar va unga qattiq amal qilar ekan. Fuqarolari bilan ham adolatli munosabatda bo'lishga harakat qilar ekan. Kunlardan bir kun u xuddi jannatday bog'ni yer yuzida qurmoqchi bo'ladi. Va niyatiga erushadi ham. Lekin jannatdan farqi shundaki, jannatdagi noz-ne'mat, go'zallikdan ham zavqlanib, ham ularni iste'mol qilsa bo'ladi, lekin shoh Jamshid barpo etgan jannatdagi narsalardan faqat ko'rib zavqlanish mumkin, xolos, ularni iste'mol qilishning iloji bo'lmagan. Shuning uchun shoh Jamshid arosatda qoladi.

Payg'ambarimiz(s.a.v) shunday rivoyat qiladilar: "Qiyomat kuni bo'yining uzunligi yerdan osmongacha, eni esa Mag'rinbdan Mashriqqacha bo'lgan Harish ismli bir mahluq Do'zaxdan chiqib keladi. Jabroil (a.s.): "Ey Harish, qayerga bormoqchisan?",-deb so'raydilar.

Harish: "Arosatga",- deb javob berdi.

Jabroil (a.s.): "Arosatda nima qilasan?"

Harish: "U yerdan quyidagi besh guruh insonlarni olib, jazo azob bermoqchiman: Birinchi-chala namoz o'qiydiganlarni, ikkinchi zakot bermaydiganlarni, uchinchi ota-onasiga oq bo'lganlarni, to'rtinchi sharob ichuvchilarni, beshinchi masjidida dunyo ishlaridan so'zlaganlarni".

Hadisidan ko'rinib turibdiki islom dinida qiyomatdan keyingi gunohkorlar boradigan Arosat qilgan gunohlariga jazo oladigan joydir.

O'zga Odam nima sababdan joyi arosatda ekanliginin so'raganda Tarozibon:

Gapni cho'zma arosatga borasan, chunki,

Sen na gunoh qilgansanu, na zarra savob.

Inson hech bir gunoh qilmasada, lekin u odamlarga nafi tagadigan, savob ish qilmas ekan u odam jannatiy bo'la olmaydi. Bu so'zlari orqal shoir odamlarni ogohlikka chaqiradi. Inson bu dunyoga sinov uchun yuboriladi. Mening hech kimga zararim, yomonligim tegmayapti, deyish bilan Olloh nazdida yaxshi bo'lolmaysiz. Vaqt bor ekan, tirik ekanmiz insonlarga nafi tegadigan ishlarni qilishimiz kerakligini shu asar chaqiradi.

Va nihoyat, Yigitning navbati ham yetib keladi. Tarozibon Yugurdak farishtaga Yigitning hisob-kitob daftarini olib kelishni buyuradi. Asardagi hisob-kitob daftari vazifa jihatdan islom dinidagi nomai a'molga to'g'ri keladi. Josiya surasining 28-oyatida shunday deyiladi: "U kunda barcha ummatni (dahshat va iztirob ila) tiz cho'kkan holda ko'rursiz. Har bir ummat o'z nomai a'moliga chaqirulur.(so'ng ularga deyilur) Bugun qilib o'tgan amallaringiz bilan jazolanursizlar"

Yugurdak farishta daftarni olib kelguncha Tarozibon Yigit bilab suhbatlashib turadi:

Qani o'tir, yaqinroq kel, sen ham horibsan,

Omad kelib tushib qolsang behishtga shoyad,

Bu olamga ancha erta kelib qolinsan?

Boisi ne falokatmi yoki jinoyat?

Yigit javob beradi:

Bir falokat yuz bergandi toshqin mahali,

Qizaloqni soy suvidan etgandim xalos.

O`quvchi Yigitning javobina o`qib jannatga yo`l olsa kerak deb o`ylab tursa, Yugurdak Tarozibonga:

Mana, taqsir, olib keldim, tekshirib ko`ring!

Ikki paysa yetmas ekan behishtga.

Yigit bu qarordan norozi ekanligini aytadi, qaysi qilgan gunohi uchun arosatga borishi kerakligini so`raydi:

Men do`zaxdan ming martaba daxshatli bo`lgan

Hodisalar va kunlarni ko`rganman avval.

Men shaytondan ming martaba dahshatli bo`lgan

Olchoqlarni ko`rib chidab turganman avval.

Lekin, ayting, qayoqda u oliy haqiqat?

Ketayotib faqat shuni bilmoq istayman.

Tarozibon Yigitning savoliga javob berishga harakat qiladi. Sen qutqargan qizni taniyman, u menga xizmatkor. Balki shu qizni qutqarganing jannatiy ishdir, lekin seni boshqa qilishga imlon bo`la turib bajarmagan ishlaring sening jannatga kirishingga imkon bermaydi.

Tarozibon Yigitga qarata:

Sen shoirsan, senga Olloh yorug` nur berdi,

Otash berdi, zabon berdi, ham ulug` yurak.

Timsolingsa bechoralar o`z dardin ko`rdi,

Baxtin ko`rdi, shodliklarin ko`rdi, beshak.

Aybingni endi

Bir oz anglab olgandirsab, zukkosan gapir.

Ular qancha bandalarning boshiga yetdi.

Sen ularni ko`rib, bir so`z dedingmi axir?

Ilohiy dil bergan edi senga xudoyim,

Quloq sol debs ho`rliklarning ohi-vohiga.

Senchi, samo shu`lasini kuylading doim,

She`rlar bitding yulduzlarga, gulga ohuga.

Abu Said Hudriy, Oллоh undan rozi bo`lsin Rivoyat qiladi: Payg`ambarimiz (s.a.v) aytdilar: “Sizlardan birortalarinigiz munkar(yomon) ishni ko`rsa, uni bu ishdan qo`li bilan qaytarsin, agar qodir bo`lmasa, tili bilan qaytarsin, agar qodir bo`lmasa dili bilan qaytarsin o`sha dili bilab qaytarishi imonining zaifligidir.”¹

Haqiqatdan ham Oллоhim shoirlik iqtidorini hamma bandaga ham beravermaydi. Shoirlar oddiy odamlardan farqli o`laroq o`z fikrlarini marjondek qatorga tizib, insonlarga o`z fikrlarini o`tkaza oladi. Demak shoirlarga Alloh ilohiy dil bergan ekan, ular bu imkoniyatdan unumli foydalanib, faqat go`zallikni madh etish bilan chegaralanmasdan, jamiyatning kir nuqtalarini ham topib, ularni fosh etib, ularga o`zining she`rlari orqali kurashish kerak ekan. A. Oripov Yigit orqali zamondosh shoirlarga o`z she`rlari orqali xalqni jamiyatning illatlariga qarshi kurashish kerakligini chorlashga chaqiradi. Bu misralardan nafaqat shoirlar, balki jamiyatda o`z o`rniga ega bo`lgan har bir shaxsga qarata shoir ma`suliyatli bo`lishga chaqiradi. Yigit o`z xatosini tan olib, do`zax tomaon yo`l olganda, Tarozibon:

Bor, sen, hozir, arosarrtning dashtini aylan,
Mayli jannat darvozasin qarshiga borgil.
Ikki paysa savobni sen topishga shaylan,
Mayli yig`la, iltimos qil, mayli yoborgil!

Yigit:

Yolbormasman, yig`lamasman, bu qanday gap,
Boshqalardan savob olsam gunohim uchun.
Mayli ketay do`zax sari hech tortmasdan tap,
Mangu azob chekmoqqa ham yetadi kuchim.

Yugitning mana shu so`zlari orqali o`quvchi uning qanday xarakter egasi ekanligini bilib olishi mumkin. Aynan shu so`zlari ichun Yigitni o`quvchu jannatga loyiq deb o`ylashi mumkin.

Tarozibon, Yigitga u yoqlarda ota-onasini ko`rish mumkinligini aytgandagina Yigit u yoqlarga borishga rozi bo`ladi. Yigit u yoqqa kimdandir savob olish umidida emas, ota-onasini yana bir bor ko`rish istagida yo`l oladi.

Ikkinchi ko`rinish Yigitning yolg`iz o`zi yalanglikda turishi bilan boshlanadi.

Yigit arosatda turgan mahalida yonidan bir chol chiqadi. Yigit cholga qarab:

Ota, adam saxrosida yo`lchiman tanho,
Do`zaximan xudoyimning hukmiga ko`ra.
Marhamatin darig` tutmay Oллоhim, ammo
Visol uchun ruxsat berdi.

¹ As Samarqandiy, “Tanbehul g`ofiliyn” 1-litob, 95-oyat.

Insonning do`zaxi yoki jannati bo`lishi bu Ollohimning ixtiyorida. Islom dinida buni Ollhoda boshqa hech kim qila olmaydi.

Yigit chol bilan suhbatlashayotib, otasini izlab kelganligini, otasini tabib bo`lganligini aytadi. Chol Yigitga otasi bilan vazifasi o`xshash ekanligin, o`zining go`rkov bo`lganini aytadi.

Ko`p masxara qilishardi bizlarni, bilsang,
Oh, tiriklar qaydan bilsin go`rkovlar ohin.
Menga mana jannat ato qildi xudoyim,
Xolbuki men odamlarni go`rga tiqardim.
Gap shundaki yaxshilarni ko`mganda doim,
Tuni bilan uxlayolmay yig`lab chiqardim.
Yaxshilari bor, albatta, tabiblarning ham,
Ana biri hamroh bo`lib yuribdi menga.
Tuzuk odam, ha, chindan ham jannati odam,
Ana o`zi kelayotir tanitay senga.

Kelayotgan tabib Yigitning otasi bo`lib chiqadi. Yigit otasini tanib suhbatlashadi. Shunda Yigitga otasi:

Marhumlarning hurmatini bajo etmoqqa,
Tiriklarga ibrat uchu topilgan bir yo`l.
Murdalarga nima kerak? Faqat kafanlik,
Og`lim, sendan roziman, roziman butkul.

Marhumlarni hurmatlamoq boshqa millatlardan ko`ra bizda yuqoriroq. Chunki bizda inson o`lgandan so`ng farzandlari ularga atab ehson, duoyi fotiha qildiradilar. Bularning hammasi marhumlar uchun katta savobdir. Har bir farzand ota-onaga atab duoyi fotiha qildirganda ana shu duo ularga qiyomatgacha yegulik vazifasini o`taydi. Inson bu dunyoga qay holatda kelgan bo`lsa narigi dunyoga ham ana shunday holatda ketishi faqat islom diniga xos. Masalan, nasroniylr dinida ular o`lganidan so`ng ularga alohida kyim tiktilib, o`shani kiydirib tobutga soladilar. Bizda islom dinida esa Chol aytgandek, ikki metr mato, kafanlikning o`zi yetarli.

Chol Yigitga hali uning onasini topmaganini aytadi. Va endi birgalikda jannatga yo`l olamiz deganda Yigit o`zining do`zaxi bo`lganini aytadi. Yigitdan otasi nima sababdan do`zaxi bo`lganligini so`raganda Yigit:

Eshiting, dada.
Siz javobgar bo`lgandingiz bemorlarga.
Siz qanchalar qayg`urgansiz ular o`lganda,

Sog`ayganda bo`lrdingiz xursand beqiyos.
Vazifamga ko`ra men ham tabibroq edim,
Insonlarning ruhlariga edim edimjavobgar.
Ruhi majruh nokaslarni ko`rsam, ne qildim,
O`z tinchimni o`ylab nari qochganman battar.
Ular esa bamisoli quturgan itday,
Ruhimzga solar edi, g`ulu, qatag`on.
Ojizlarni talar edi bijg`igan bitday,
Bir pul bo`lib qolar edi nomus, or, vijdon.
Sizdan dori so`rar ekan, endi o`ylasam,
Barisiga nen kabilar aybdordir rosti.
Men jazoga munosibman, o`ylab qaragam.
Ammo, afsus, endi qayta `otmas odamzod.
O`z umrini yashab bo`ldi yo`qdir foydasi.

Yuqoridagi nisralarda Yigit otasiga bu dunyoda qilgan xatosini tan olib, siz odamlarning jismiga tanasini davolagan bo`lsangiz men ularning ruhiga, qalbiga javobgar edim. Lekin men o`zimning tinchimni o`ylab atrofdagi voqealarga befarq bo`lganim uchun ularning jismi og`rib sizdan madad so`rashgandi, deb javob beradi. Yigit timsoli orqali shoir har bir odamni ma`suliyatli bo`lishga chaqiradi. Befarqlikning, ma`suliyatsizlikning oqibati qanday bo`lishini Yigit obrazida atrofdagilarga namoyon qiladi. “Ammo afsus qayta otmas odamzod”, satrini keltirishi inson bu dunyoga faqat bir marta keladi, degan ma`noni uqib olshimiz mumkin. Shunday ekan barchamiz o`z kasbimizga ma`suliyat bilan yondashib, atrofimizda bo`layotgan har bir hodisalarga o`zimizni javobgar his qilishimiz kerak.

Dinlar tarixidan ma`lumki, budda diniga e`tiqod qiluvchilar insonnig bu dunyoga yetti marta kelishiga ishonadilar. Bunday dalillardan ko`rinib turibdiki shoir asar voqelarini faqat islom diniga xos bo`lgan atamalar, qoidalar asosida bu dramatik asarini yaratgan. A. Oripov asarni asta-sekinlik bilan diniy motivlar, diniy atamalar bilan boyitib borgan. Bularning barchasi shoirning mahoratidir.

Yigit:

Dada, xudo boshqarmagan hech qachon xalqni,
Ixtiyorin bergan edi, lekin chinakam.
Kimlarnidir yo`ldan urgan hazrati shayton,
Kimlarnidir bandam degan tangri taolo.

Bizga na`lumki odamlarni yomon yo`lga doim shayton boshlaydi. Chunki u odamzotni yomon ko`rib barchani do`zaxi bo`lishini xohlaydi. Shaytonning kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak, shayton dastlab odam yaratilishidan oldin nurdan yaratilgan Azozil nomli farishta bo`lgan. Azozil Olohga etmish ming yildan beri sadoqat bilan xizmat qilib, barcha farishtalardan ilmi yuqori bo`lgan. Shuning uchun ham u kibrga berilib, tuproqdan yaratilgan odamga ta`zim qiliishni xohlamaydi. Shunda u Olohning amriga bo`ysunmagani uchun u Olohimning g`azabiga duchor bo`ldi va u Azozildan shaytoni la`inga aylanadi. Shayton shuncha yillik qilgan ibodati uchun Olohdan o`nta narsa so`raydi. Shulardan biri qiyomatgacha tirik bo`lib, odamzotni shu paytgacha bo`lgan davrda yo`ldan urishdir.

Shuning uchun ham biz odamlar nimaiki yomon ish bo`lsa barchasini shaytonga yo`yamiz. Yuqoridagi misralarda ham shoir shuni nazarda tutyapti.

Ota o`g`lining gaplarini eshitib, o`zining savoblari jannatga uchma-uch yetganini aytadi. Lekin Ota og`li uchun shu savobini berishga tayyor bo`ladi. Chunki u ota, u qaysi din, qaysi millat vakili bo`lmasin farzandi uchun barcha narsaga, xatto qurbonlikka ham tayyor. Insoniyatni dinlar bir-niridan ajratib tursada, mana shunday umuminsoniy qadriyatlar hamisha insonlarni bir-biri bog`lab kelgan.

Ikkinchi ko`rinishni Yigitning otasi bilan suhbatini yakunlaydi.

3-ko`rinish. Jannatdagi g`oyat go`zal qasr. Bu qasrda Ona istiqomat qiladi, atrofida farishtalar. Farishtalar, hur qizlar Onaning xizmatida. Hur qiz onaga tashqarida bir yigit kirish uchun izn so`rayotganini aytadi. Ona faqat yuzida parda bilan kirishiga ruxsat beradi.

Yigit Ona bilan suhbatlashadi va suhbat jarayonida jannati onaxonni o`z onasi ekanligini bilib qoladi. Bu asardagi ona bilan bolaning suhbatini shoir zo`r mahorat bilan ifodalagan. Inson dunyoga kelib bu dunyoda yashar ekan, Alloh rizoligi uchun boshqalarga yordam qiladi. Oloh rizoligining alal-oqibati jannat ekanligi barchamizga ma`lum. Lekin bu foniy dunyoda shunday mehr, shunday yaxshilik borki, bularni odam beminnat bajaradi. Bu Onaning farzandiga mehridir. Asardagi Ona ham jannat taxtida o`tira turib ham uning ko`ngli notinch. Chunki u farzandining qayerda ekanligini bilmaydi. Onaning qalbi farzandi yaxshi yurmayotganini ko`rmasa ham ko`ngli bilan sezadi. Ikkinchi ko`rinishda ham xuddi shunday mehrni Ota timsoli orqali ko`rgan edik. Ota ham hech qanday ta`masiz farzandiga yaxshilik sog`inadi. Shoir mana shu ota va ona obrazlari orqali butun dunyoda yashovchi ota-onalarning farzandi haqidagi mehr muhabbatni chiroyli tasvirlab bergan. Ona mehridan bir parcha misol:

Savob kerak barchaga ham halol befirib,

Mana mening savoblarim uchma-uch ekan.

Lekin uni ko`rsaydim, gar, savobim berib

Do`zaxga ham ketar edim, kechirsin egam.

Yuqoridagi misrada onaning soz`lari garchi oz bo`lsada, mana shu ozginagina so`zlarda onaning muhabbati o`z bo`y-bastini ko`rsatib turibdi.

Hur qizning gapidan so`ng Yigit Onaning o`z farzandi ekanligini bilib hushidan ketadi.

Ha, kuzatdim, esin qo`ygan yeb,

Tushunmadim murodi ne? Qanaqa dardi?

Ikkinchi bor vidolashdim onambilan deb,

Katta yo`lda dabdurustdan yig`lab yubordi.

Onaning hushidan ketishi bilan uchinchi ko`rinishning pardasi tushadi.

Uchinchi ko`rinishda voqealar jannatda bo`lib o`tgan bo`lsa, to`rtinchi ko`rinishdagi voqealar do`zaxda bo`lib o`tadi.

“Do`zax darvozasi oldidagi ulkan handaq. Ospirin va Qariya pachakilshib tirgan holat,” bilan to`rtinchi ko`rinish boshlanadi. Shoir bu ko`rinishda jamiyatdagi illatlarini keltirib chqaruvchi kimsalarni fosh etadi. Bu asarda shoirning she`rlarida uchramagan diniy atama Isrofil atamasi uchraydi.

Yigit:

Kimdir bunda Isrofilning suridan ortiq,

Qiyomatni qoyim qilib dodlayotgan zot.

Jabroil, Azroil, Isrofil va Mikoil bu islom dining asosiy to`rtta farishtalaridan hisoblanadi. Ularning har birining o`z vazifalari mavjud. Azroilniki odamlar jonini olish bo`lsa, Isrofilniki Alloh xohlaganda surini chalib qiyomatni e`lon qilishidir. Abu Hurayra roziyallohu snhu Payg`ambardab rivoyat qilib aytsdilarki: “Alloh taolo yeru osmonni yaratib bo`lganidan keyin surni yaratdi va uni Isrofil alayhissalomga berdi va Isrofil alayhissalom o`shandan beri surni og`ziga qo`yib, qachon buyruq bo`larkan deb, Arshga tikilib turibdi. Dedimki: “Ey Rasulalloh! Sur nima?” Aytdilarki: “Nurdan qilingan karnay”. Dedimki: “U qanday narsadir?” Aytdilarki: Doirasi keng, meni payg`ambar qilib yuborgab Zotga qasamki, uning doirasining ulkanligi yeru osmonning kengligiga tengdir va unga uch marta naxfa uriladi.” Surning hayol quvvati yetmaydigan darajada katta ekanligini ma`lum bo`lgandan so`ng undan chiqadigan ovozni tasavvur qilish qiyin emas.

Asarda Isrofilning sur chalishi haqida emas, o`ta darajada kuchli ovozni shoir mibolag`a san`atini qo`llab, surning ovoziga qiyoslayapti. Albatta surning ovoziga o`xshash ovoz yo`q. Chunki surning ovozi shu darajada dahshatliki, buni eshitgan odamzod karaxt ahvolga tushib, qo`rqib ketadi qoladi. Dalil ushbu oyatki: “Sur chalinib, Alloh o`zi xohlagan zotlardan boshqa,

osmonlardagi va yerdagi barcha kimsalar dahshatga tushib qo`rqib qolgan va barcha U Zot huzuriga bo`yin eggan holda kelgan ,kunni eslang!”(Naml, 87)¹

Yuqoridagi misralardan o`quvchi shuni bilishi mumkinki, shoir surdanda ortiq deyaptimi, demak, ovoz haqiqatdan ham o`ta kuchli darajada.

Dodlayotgan Qariya bo`lib uni O`spirin bo`g`ayotgan bo`ladi. Shoir shu ikkalla timsolni Qariya va O`spirinni keltirish orqali, jamiyatimizdagi bema`ni, hech qanday foydasi yo`q bahsu munozarlarni yaxshi ko`ruvchilarga bamisoli oynak sifatida keltirgan. 15-16 asr ma`naviyatining yirik vakili Mavlono Husayn voiz Koshifiy o`zining “Futuvvatnomaui sultonoya” asarida tilni sakkiz narsadan tiyish kerakligini aytib o`tadi. Shulardan biri, behuda bahsu munoqasadan, deb yozgan.

Asarda Qariya ham o`zini kattaman demasdan O`spirin bilan tortishadi, O`spirin ham o`zini men bundan ancha yoshman demasdan Qariya bilasn tap tortmasdan tortishishni davom ettiradi. Shunday holatni keltirish orqali muallif bu ikki qahramonni aslida ham do`zaxga loyiq shaxslar ekanligini shu holat orqali o`quvchilarga aytmoqchi.

Odamlar orasida shunday kimsalar uchraydiki, ular o`zgalar yutug`ini, baxtini ko`ra olmaydilar. Ular o`zidan ilgarilab ketgan odamlarni chalib yiqitishga, orqasidan suv quyishga ham tayyor turadilar. Mana shunday kishilarni shoir Kimsa obrazi orqali insofga chaqiradi.

Kimsa:

Rostin aytsam, bir sen emas, hammang ham po`kka,
Ikki dunyo haqiqatga o`zimman nozir.
Taroziyon ustidan ham xat yozdim ko`kka,
Olatasir, tekshir-tekshir u yerda hozir.

Kimsa o`z qilmishlarini maqtanish bilan Yigitga sanab beradi:

Ota-onam orasini buzganman, xatto,
Bir-birini zaxarlashib o`lganlar oxir.
Qaynonamni esa esadan qilganman judo
Zir titrardi meni ko`rsa hatto toju taxt,
Yer yuzida sarhad bilmay davron surganman.
Xo`sh, jannating bima bo`pti? Buzuq bir hilqat.
Unda pora olishganin o`zim ko`rganman.

Kinsadagiday xarakterli insonlar, afsuski, hozir ham oramizda bor. Ayniqsa bunday manfur odamlar sho`ro davrida juda ham ko`p bo`lgan. Chunki, sho`ro mafkurasi odamlar ongiga shunday zaxarli illatni quyganki, chaqimchilikni davlatga xizmat qilish deb tushuntirigan.

¹ As Samarqandiy, “Tanbehul g`ofiliyn”, 49-bet.

Ahvol shu darajaga borib yetganki, farzand o`z otasini, do`stlar o`zining do`stlarini ustidan hukumatga xat yozib ularning ildizini quritganlar. Mana shu chaqimchilikning orqasidan o`zbek xalqining fidoyi, mard, qo`rqmas yozuvchilari qatag`on bo`lganlar yoki umrining ko`p qismini panjara ortida o`tkazganlar.

Chaqimchilar haqida hadislarda shunday deyiladi. Huzayfa, Alloh undan rozi bo`lsin, rivoyat qiladi: Payg`ambar (s.a.v.): “Chaqimchilar jannatga kirmaydilar”, deganini eshitganman. Rivoyat qilindi: “Chaqimchining amali shaytonnig amalidan zararliroqdir. Chunki shaytonning amali xayolan vasvasa bilan bo`ladi. Chaqimchining amali esa yuzma-yuz kelish va ko`rish bilan bo`ladi”.

Muallif shu hadislardan xabardor ravishda Kimsani do`zaxga loyiq ko`rgan. Aslida chaqimchilik hasaddan boshlanadi. Odam biror odamda o`zida yo`q narsa yoki buyumni ko`rib g`ayirligi kelayotgan bo`lsa, demak u hasad qilyapti. Hasad tog`risida hadislarda shunday deyilgan. Faqih Abu Lays SAmarqandiy, Alloh undan rozi bo`lsin, Hasandan rivoyat qiladi: Payg`ambat (s.a.v.) bunday degan ekanlar: “Dushmanlik va hasad yaxshiliklarni yong`in o`tinni yegandek yeydi”.

Kimsa:

Aynidi bu ham,

Inshoolo yaqin kunda tentak bo`ladi,

Bir bor o`lsa Azroilning qo`lida odam,

Kaminaning dastlarida ikki o`ladi.

Ushbu satrlarda ham yuqorida umuman qo`llanmagan diniy motiv Azroil motivi uchraydi. Isrofil farishtalar qatorida Azroil ham Allohning asosiy farishtalardandir. Shu to`rttala farishtaning ham o`zlarining qiladigan vazifalari mavjud. Jabroilning vazifasi payg`ambarlarga Alloh so`zini yetkazish bo`lsa Azroilni Allohim odamlar jonini olishga ma`sul qilgan. Nima uchun Azroilni o`lim farishtasi qilib tayinlanlanganligi tarixi haqida to`xtalib o`tsak.

Qudratli va ulug` Olloh Odamni yarataman deb xitob qilganida barcha narsalar bosh ko`tarib: “Odamni bizdan yaratgil!”-deb ta`ma qildilar. Tog` aytdi:

-Men qutlug`man!

Dengiz aytdi:

-Men ulug`man!

Osmon aytdi:

-Men yuksakman!

Shu tariqa barcha narsalar o`zlarini ulug`ladilar. Yer esa tavoze bilan:

-Men hammadan zaifman, oyoq ostidaman, menda maqtangulik narsa yo`q,-deb kamtarlik qilganda xitob keldiki:

-Men odamni tuproqdan yaraturman!-deb.

Qudratli va ulug` Olloh Odamni yaratishga qaror qilganida Jabroilga xitob qildi:

-Borgil, yer yuzidan bir hovuch tuproq keltirgil!

Jabroil kelib, bir hovuch tuproq olmoqchi bo`lganida yer mendan tuproq olmagin deb Jabroildan o`tinibdi. Jabroil uning hurmatini qilib, tuproq olmadi.

Isrofilni jo`natdi. Yer undan ham tuproq olmasilgini o`tindi. U ham tuproq olmadi.

Keyin Mikoilni jo`natdi. Yer undan ham tuproq olma deb o`tindi. U ham tuproq olmadi.

Keyin Azroilni jo`natdi. Yer undan ham o`tindi. Azroil dedi:

-Menga sening iltimosingdan Tangri taoloning amri azizroq!

Shunday deb yer yuzidan bir hovuch tuproq oldi...

Parvardigori olamdan xitob keldi:

-Ey, Azroil, juda qattiq ko`ngillik ekansan. Barcha mavjudotlarning jonini olishni senga taqdir qildim.

Shu tariqa Azroil barcha insonlarni dunyo yaralganidan beri jonini olib kelmoqda.

Kimsaning tilidan aytilgan Azroilning qo`lida odam bir marta o`lsa, Kimsaga o`xshagan chaqimchi, hasadgo`y kimsalarning qo`lida odam yana bir bor o`lib ko`radi. Chunki chaqimchilar va hasadgo`ylar jamiyat uchun, odamlar uchun juda xatarlidir. Ular xatto odamlar bir-birini xalok qilish darajasiga olib kelib qo`yadi. Fikrimni dalillash maqsadida, Hammud Ibn Salamaning rivoyatini keltiraman:

“Bir kishi g`ulom(qul) sotibdi. Oluvchiga: uning chqimchiligidan boshqa aybi yo`q, debdi. Oluvchi g`ulomning aybini yengil sanab, sotib olibdi. Xizmatchi ho`jayinnikida bir necha kun turgandan keyin bir kuni ho`jayinining xotini oldiga borib: Seni ering yaxshi ko`rmaydi, sening o`rningga o`ynash topgan. Senga mehribon bo`lishini xohlaysanmi? Debdi. Xotini , ha, debdi. Xizmatchi: Ustarani olgin va ering uxlagan vaqtda soqolining uchidan ozginasini qirqqin, deb o`rgatibdi. Shundan so`ng erining oldiga keldi va shunday dedi: Xotining senga xiyonat qildi, o`ziga o`ynash topdi. Endi u seni o`ldiradi. Sen buni aniqlashni xohlaysanmi? Dedi. Er, ha, dedi. Xizmatchi o`zingni uxlaganga solgin, dedi. Eri o`zini uxlaganga soldi. Shu payt xotini uning soqolidan olish uchun ustara bilan keldi. Eri esa u meni o`ldiradi, deb gumon qilib, undan ustarani olib xotini o`ldirdi. Xotininig yaqinlari kelib erni o`ldirdilar. Erning qarindoshlari kelishdi,. Ular orasida urish bo`ldi.”¹

¹ As Samarqandiy, “Tanbehul g`ofiliyn”, 1-kitob, 175-bet.

Shuning ichin ham rivoyarlarda chaqimchining amali shaytonning amalidan zararliroq, deb aytilgan. Chunki, shaytonning amali hayolan va vasvasa bilan bo`ladi. Chaqimchining amali esa yuzma-yuz kelish va ko`rish bilan bo`ladi.

Shuning uchun hammamiz bu hayotda yashar ekanmiz birovlariga hasad ko`zi bilan emas, havas ko`zi bilan boqishni o`rganaylik. Toki, u dunyoda Kimsaning holiga tushib qolmaylik.

Asarning oxirgi, beshinchi ko`rinishi yigitning do`zax qopqasi oldida turishi bilan boshlanadi.

Yigit:

Hali do`zax qopqasidan ichkari kirmay,
Ostonada shuncha savdo bo`lsaya, yo Rabb!
Umrin o`tib ketibdida, hech neni ko`ray,
Tarozibon aytganiday, ko`rmabman qarab.

Yigit o`zini nima sababdan do`zaxi bo`lganligini tushunib yetadi va o`zining bu dunyoda imkoni bo`la turib bajarmagan ishlaridan pushaymon bo`ladi. "Ostonada shuncha svdo ko`rdim", deya shoir Yigit tilidan bu dunyodagi jamiyatning illatlarini nazarda tutmoqda. Bularning barcha kirar joyi alal oqibat do`zax ekanligi bilan ularni ogohlantiryapti.

Shunda do`zax tomondan ovoz keladi.
Ahli nokas, tingla, tingla! Hozir baringni
Axlat o`ra eshigiga haydab yig`aman.
Kim yashirgan bo`lsa mening ig`vogarimni
O`zini ham o`sha joyga birga tiqaman.

Shoir yuqoridagi misralarda o`z tasavvurida do`zaxni axlat o`raga o`xshatadi. Axlat o`raga o`xshatish bilan do`zaxning qanchalik jirkanch, qanchalar dahshatli ekanini shu so`z bilan ifodalayapti. Payg`ambar (s.a.v.): "Do`zaxni xohlaganingizcha tasavvur qilinglar, qanchalik tasavvur qilsangizlar ham, do`zax siz o`ylaganingizdan ko`ra qattiqroq", dedilar.

Do`zaxning daxshatlari to`g`risida Samarqandiy to`plagan hadislardan birida Payg`ambar (s.a.v.) shunday deganlar: "Do`zax ming yil qip-qizil rangga kirguncha qizdiriladi, keyin yana ming yil oq rangga kirguncha qizdiriladi, so`ng ming yil yondirilib qop-qora qilinadi. O`sha qop-qorong`ulik qop-qorong`u tun kabidir."

Do`zax haqida hali mingadan biri haqida ma`lumot betdik. Jazoga do`zax muqarrar ekan hali vaqt borligida tavba qilishimiz kerak.

Yigit do`zaxda o`z do`stini ko`rib qoladi. Ular bir-birini uchratishganidan juda ham suyunib ketadilar. Yigit o`zining do`zaxi bo`lganini so`zlaganida, Do`st ajablanib:

Shunaqami, do`zax degin, Shundoq bo`ldimi?..

Yigit:

Shundoq bo`ldi. Mana senga so`nggi xulosa!
O`ylagaymiz na tiriklik va na o`limni,
Qismat bilan na nizo bor va na murosa.

Shoirning sher`larida garchi qismat so`zi ko`p bora ishlatilgan bo`lsa ham, ushbu asarda bu termin birinchi bor qo`llanmoqda. Asarda ham qismat sozi o`z ma`nosida ifodalanyapti. Yana islom dinida odamning xatto do`zaxi yoki jannati bo`lishi ham ona qornidayoq qismatiga bitiladi. Bu haqda hadislarda shunday deyilgan: “Odam uch narsani eshitolmay qoladi. Shuning birinchisi, homila ona qorniga tushganidan keyin farishta Oллоhdan bu banda do`zaximi yoki jannati deb so`raganda, joyining qayerligini eshitolmay qoladi.”

Asarda qismat bilan nizo qilishning ham murosa qilishning ham iloji yo`q deganda Yigit shuni nazarda tutmoqda.

Do`sti Yigitdan nima sababdan bunday holga tushib qolganini so`raydi. Yigit:

Gunohimmi odamzotga ortiq ishonmoq!
Shu boisdan ikki paysa yetmadi sabil,
Tarozibon dashnom berdi, u haqdir biroq.

Do`st:

Nimasiga ishonding sen odam bolasin,
Aytchi uning qay hislati seni etdi rom?
Yig`lab turib, seva turib, deyman, tingla sen,
Ishonmadim insonga men, tamom, vassalom!
Osmondagi yulduzlarni mumkin sanamoq
Ammo inson fe`l atvorin bormi poyoni.
Senga doim nima derdim, eslagin o`rtoq:
Xayol bilan bezab bo`lmas also dunyoni!
Esingdami, qutqazganding meni ig`vodan,
Yig`ishtirib olmasimdan hali hushimni,
Mahkamaning kotibasi to`sib daf`atan
Tilab oldi og`zimdagi tilla tishimni.
Ig`vo, nayrang, hasad, g`iybat bular barisi
Oh, azizim ocholmadi ko`zingni nahot?!
Senga vafo qildimi, xo`sh ilhom parisi,
Jannat ato qildimi yo “go`zal” koinot.

Yuqoridagi misralarda shoir Do`st tildan jamiyatimizning kir nuqtalagini sanab o`tadi. Ig`vo, nayrang, hasad, g`iybat va poraxo`rliklar islom dinida qattiq qoralangan. Bunday ishni qilganlar qilgan gunohlariga tavba qilmasdan o`lsalar, do`zax muqarrar ekanligi hadislarda ko`p bora ta`kidlangan.

Va Do`st tilidan aytilgan quyidagi satrlarda muallif o`sha davr tuzumi ustidan kulgan:

Tarozibon roppa-rosa bir kun o`ltirib
Ko`z oldimda qilmishimni cho`piga soldi.
Ishonmaysan menga ham deb, pisanda qilib,
Daftariga qo`l qo`ydirdi, tilxat ham oldi.

Haqiqatdan ham avval ham hozir ham odamlar bir-biriga nisbatan ishonchni yo`qotganlar. Biror bir idoraga ish bilan borsangiz hamma gapingizga ma`lumotnoma keltirishingiz kerak. Bu satrlarni o`qigan o`quvchi yuzida tabassum paydo bo`lishi tabiiy. Chunki har bir odam boshidan shunga o`xshagan voqea o`tganligi tabiiy.

Yana do`st Yigitga jamiyatimizdagi, inson degan sharafga noloyiq kimsalardan shikoyat qiladi:

Ishonchingni paymol qilib qo`yarlar avval,
So`ngra uni qayta talab qilmoqlik nechun?
Oh, azizim meni also yovuz deb bilma,
Men yovuzlik qurboniman qalbidam alam.
Ushbu g`alat nisbatimdan tag`in sen kulma:
Ura bersang g`ayur tortar eng yuvvosh it ham.

Ushbu misralarda Do`st shikoyat qilayotgan odamlar, aslida sho`ro tuzumidir. Sho`ro tuzumi xalqning ishonchiga kirib olib, jamiyatni yaxshilaymiz, deb, aslida maqsadi yurtni talash bo`lib, butun dunyoga gegemonlik qilish istagida o`zbek xalqini har-hil ko`ylarga solgan. Xalq bu narsalarni ko`rib turib ham indamaganligi uchun muallif ramziy ma`noda xalqni itga qiyos qilgan.

Ikki do`stga ham ikki paysa yetmayotganligi uchun Yigit o`z savobidan ikki paysasini berib o`zi do`zaxga bormoqchi bo`ladi. Do`stini esa, jannatga yubormoqchi bo`ladi. Do`sti esa, aksincha, o`z savobidan Yigitga berib, o`zi esa, do`zaxga kirishga tayyor bo`ladi.

Yigit Do`stiga:

Do`stim, senga bir niyatim izhor aylasam.
Rad etma zinhor.
Hozir ikkov borsak, deylik, masalan,
To`larmidi jahannamning cheksiz maskani?

Do`stlik haqqi iltimosim eshit qat`iyan:

Olgin mendan yetmagan shul ikki paysani!

Do`st:

Nima? Nima? Esing butmi? Senga ne bo`ldi?

Eshitmadim gapingni men! Qaytib ol darhol!...

Yaxshi yomon hikmatlaring o`zingga siylov,

Falsafangni aziz do`stim, bir zum unutgin.

Kimmani men o`z do`stimdan olsamu savob,

Yolg`iz o`zim ketaversam o`sha jannatga.

Haqiqatning mezonidir azaldan insof.

Har narsaning o`z yo`rig`i bordir, albatta

Esingdami mahshar bag`rin

Faqat seni, faqat seni, axtardim dedim.

Do`stning ushbu gaplari o`quvchini o`yga toldirishi tabiiy. Xo`sh, nima uchun Do`st shuncha jigarlari turganda Yigit-do`stini izladi? Menimcha savolimizga Do`stning quyidagi gaplari javob bo`la oladi.

So`nggi paytda ig`vodan qilganding xalos.

Hayotimga baxsh etganding tinchlik, halovat.

Yaxshiliging qaytarolmay qarzdor edim, rost,

Bo`ynimda burch, ezildim to ro`zi qiyomat,

Mening uchun ikki olam bo`ldi bir chaqa,

Bilasanku, qiyomat qarz degan narsani.

Xalqaimizda qiyomat qarz degan ibora ko`p bora ishlatiladi. Buning ildizi ham islom diniga borib taqaladi. Chunki islom dinida biror bir odam ehtiyoj tufayli birovdan qarz olgan bo`lsa, daromadi yetishi bilan uni qaytarishi zarur. Agar qaytarolmay vafot etsa, to o`sha qarzni yaqinlari uzguncha, qabrda zanjirlangan holatda, bo`lib, ruhi ham, jismi ham azobda qoladi, shuning uchun ham inson vafot etgandan keyin janoza o`qilayotganda imom odamlardan marhumning odamlardan qarzi bormi, yo`qmi deb so`raydi. Qarzi bo`lsa uning yaqinlari buni uzishni bo`yniga oladilar. Fikrimni dalillash maqsadida quyidagi rivoyatni keltirmoqchiman. Payg`ambarimiz (s.a.v.)ning qizlari Fotima onamiz hayotlari, bajargan ishlari islom ayollariga necha sarlardan buyon o`rnak bo`lib kelmoqda. Fotima onamiz vafotlaridan so`ng, ularning jufti haloli Ali (r. a.)ning tushlariga kiradilar. Tushlarida Fotima onamiz jannat eshigi oldida turganmish. Ali (r.a.) nima sababdan ichkariga kirmayotganlin so`raganda, Fotima onamiz qo`shni ayoldan hayotlik chog`ida igna olib, uni qaytarishga ulgurmaganini, shuning uchun hozir

jannatga kirish uchun ruxsat bo`lmaganini, Ali (r.a.)ga aytadilar. Uyqudan uyg`onibla, Ali(r.a) qo`shni ayolga ignani olib shiqib beradi. O`nda kuni tushlarida Fotima onamizni jannat bog`latida sayr qilib yurganlarini ko`rib, ko`ngillatri joyiga tushadi.

Qissadan xissa shuki, islom olamimining peshvosi Payg`ambarimiz (s.a.v.)ning qizlari bir igna tufayli shu holga tushib qolgan, biz oddiy odamlarning holi ne kecharkin. Hozir atrofimizdan qanchadan-qancha odamlar bir-birlaridan ko`p miqdorda qarz olib, qaytarishga imkoni bo`laturib qaytarmasdan, bir-birlarini ko`zini o`yib yurishibdi.

Asarda Do`stning Yigitdan moddiy qarzi yo`q. U do`stidan o`zini ma`nan qarz deb o`ylaydi. Ya`ni bir vaqtlar Yigit qilgan yaxshilikka javoban yaxshilik qila olmaganman, deb o`ylab:

Tushin axir meni, do`stim, quloq tut gapga,

Savobim ol, sen ol mendan ikki paysani!

Abdulla Oripovning Yigit bilan Do`stning suhbatiga qarab juda havasingiz kelishi tabiiy. Ikkisining suhbatini do`stlikning eng oliy namunasi deb olishimiz mumkin. Shoir bularning munosabatlari orqali xalqqa do`stlik, aslida hech qanday manfaatsiz bo`lishini ko`rsatib bermoqchi. Hayotda inson yashar ekan, yaqin odamga, do`stga muhtojlik sezadi. Toki do`stlarimiz bormi ularning yaxshi kunida ham, yomon kunida birga bo`lib, ularga yordam qo`lini cho`zishimiz, unga ham biz ana shunday paytlarimizda suyana olishimiz kerak. Bir hikoyatda aytilishicha, bir podshohning uch o`g`li bo`lib, podshoh ularga bir yil ichida kim eng ko`p boylik to`plasa, o`sha valiahd bo`ladi deb aytadi. Uch shahzoda uch tomonga qarab ketishadi. Oradan bir yil o`tib ular saroyga qaytib kelishadi. Podshoh ulardan qanday boylik to`plaganini va uni ko`rsatishlarini so`raydi. Birinchi shahzoda otasini tashqariga olib chiqib, yuzta zotdor otlardan olib kelganini, ular mamlakatning ko`rki bo`lishini aytib maqtanadi. Ikkinchi shahzoda hamma shahardan uylar sotib olganini endi ular, mamlakatning mulki bo`lishini aytadi. Uchinchi shahzoda esa, har shahardan bir qancha do`stlar orttirganini va ularning yoniga padshohni olib boradi. Shahzoda qaysi do`stining uyiga kirmasin, barchasi boshpana berib, ularni izzat-hurmat bilan kutib olishadi. Shunda podshoh eng qimmatli boylikni, kenja shahzoda to`plaganini, chunki do`stlar og`ir kunda ot yoki uylardan ko`ra ko`proq asqotishini aytib, kenja o`g`ilni valiahd deb tayinlaydi.

Xuddi asardagidek, og`ir kunimizda do`stlarimiz yordamga kelar ekan, biz ham do`stlarimizga imkon bo`ldi deguncha yordamga shoshilishimiz kerak ekan.

Asarga qaytsak, Yigit bilan Do`st bir-birlariga ikki paysa savobni chin dildan tortiq qilishayotgan paytda qayerdandir ovoz-Sado keladi.

Voludayu padarlarga qulluq va rahmat!

Tashakkurlar bo`lsin nurli inson zotiga.
Fikringizni keskin buyon buring bir fursat.
Zehn soling gapning asl tafsilotiga:
Ikki do`stning sadoqati, mehri himmati
Koinotning qadridan ham turgaydir baland.
Hech ne bilan o`lchanmaydi do`stlik qummati,
Qulatgay u sarhadlarni qudrati bilan.
Hikoyatdan murod shulkim, ulug`, muhtaram
Do`sti sodiq nasib etsinhar kimga har on,
Jannat ato qilajakman ikkingizga ham!
Jannat yo`li mana, Sizga ochiq, charog`on.

Yuqarida Tangri taolo nomidan Sado gapiradi. Muallif ramziy ravishda Alloh o`rniga Sado timsolini qo`llaydi.

Atrof birdan yorishib, ikkisi jannat tomon yo`l oladi. Savol tug`iladi, nima uchun ikkisi bunday saodatga erishdi? Nima uchun ular do`zax og`zidan qaytib jannatga ketishdi. Javob shuki, ikkisi ham ko`nglining oqligi, samimiyligi, hamisha do`stiga yaxshilik sog`ingani uchun ularning gunohi kechirildi. Va bir umrlik rohat-farog`tga erishdilar.

Asarning oxirida do`zaxi bo`lgan Yigit bilan Do`stning gunohi kechirilib, jannat tomon yo`l olishi, yuqoridagi fikrimizga ya`ni qismat ona qornidayoq bitilib, uning jannati yoki do`zaxi bo`lishi ham o`sha yerda tayin bo`lishi fikrimizga zid kelmoqda. Qanday qilib necha ming yillar burun aniq bo`lgab barsa, bir daqiqada o`zgarib ketishi mumkin. Taqdirning bir lahzada o`zgarishiga quyidagi hikoyatni keltiraman. Aytishlaricha bir yigit islom qonin-qoidalarini mukammal o`rganish maqsadida o`sha paytning ma`lum va mashhur qalb ko`zi ochilgan bir odamga shogird bo`lib tushibdi. Ustozining orqasidan shogirdning ham qalb ko`zi ochilib, xatto “Lavh ul-mahfuzni” o`qish darajasigacha yetib kelibdi. Bir kuni shogird “Lavh ul-mahfuz”dan o`zining jannati, lekin ustozini do`zaxiylar qatorida ko`rib ajablanibdi. Shogird ustozini do`zaxi deb undan yuz o`giray desa, u shu darajaga ustozni orqali erishdi. Shuning uchun shogird oxiri yurak yutib ustoziga shunday holatni ko`rganini aytib beribdi. Shunda ustoz kulib sen buni kecha ko`ribsan, men buni qirq yildan beri ko`rib, ibodatimni davom ettrib kelyapman. Olohning xohishi shu ekan, biz nima ham qila oalrdik, debdi ustoz. Ertasiga shogirdi “Lavh ul-mahfuz”ga qarasa, ustozni jannatiylar qatorida turgan ekan.

Bu hikoyatni quyidagi hadis dalillaydi: Payg`ambarimiz (s.a.v.) aytdilarki: “Inson boshiga neki tushsa uning o`zidandir”, deya marhamat qilganlar. Darhaqiqat ustoz ham, Yigit va

uning Do`sti ham jannatga o`zlarining sadoqatlari va qilayotgan xatti-harakatlari va Payg`ambarimiz aytgan gaplarga rioya qilgani uchun erishdilar.

Yaxshilik ahllarini va solihlarni do`st tutloqligi, sevmoqligi, ular bilan qo`shilib ketmoqligi, ular bilan o`tirmoqligi kerak bo`ladi. Albatta, ularning bittasi, uning gunohlari kechirilsa, do`stlarga va og`aynilariga shafobatda bo`ladi. Payg`ambarimiz rivoyat qilganidek: “Do`stlarni ko`paytiringlar. Albatta qiyomat kunida har bir birodar uchun shafolat qilish bordir”

Asar voqealari narigi dunyoda bo`lib o`tayotgan bo`lsa ham, shoir aslida bu dunyo haqidadir. Muallif bu dunyodagi voqelarni ifodalashda narigi dunyodan foydalanib, diniy motivlar, diniy atamalar, diniy aqidalardan umumli foydalangan. Shuning uchun ham asar chop etilgandan keyin unga otilgan malomat toshlari to`xtamaydi. Shoir “sovet voqeligini” buzib tasvirlashda ayblanadi.

Markazqo`mning, shaxsan uning birinchi kotibining topshirig`iga muvodiq tuzilgan komissiyaning ijobiy xulasasigina asarga qarshi qaratilgan hujumlar payini bir darajada qirqqandek bo`ldi. Aslida bugungi kun nuqtai-nazaridab qaraydigan bo`lsak, diniy-mifologik, hayoliy-fantadrik shakllardan foydalanib bitilgan ushbu dostonida chindan ham “sovet voqeligini buzib ko`rsatilganligi” ayon bo`ladi. Bu “buzib ko`rsatish” eng adolatli, eng batartib tuzum deb ayyuhannos solingan jamiyatning butun norasoliklari, insoniyatning eng ilg`or, eng taraqqiy topgan qismi deb jar solingan sovet xalqi yashagan muhitning illatlari ro`yi-rost ochib tashlanishida namoyon bo`ladi. Voqealar toshqin payti daryoga cho`kkan qizaloqni qutqarmoqchi bo`lib o`zi halok bo`lgan Yigit narigi dunyoda Tarozibonga ro`para kelaishi bilan boshlanadi. Hisob-kitobdan kryin Yigitning jannatga ikki paysa savob yetishmasligi ayon bo`ladu. Tarozibon buning sababini Yigitga qanday izohlashini asar tahlilda ko`rib o`tdik.

Yigitning arosatga noil bo`lishiga uning “bu dunyoda” shoir bo`lganligi, faqat gullar va bulbullarni kuylab yovuzlikni ko`tganda o`zini chetga tortganligi, ularga qarshi kurshmaganligi sabab bol`gan ekan. Tarozibonning “siylovi” bilan Yigit arosat yalangliklari, jannat va do`zax ostonalarida Onasi, Otasi, Do`sti va boshqalar bilan uchrashadi., Ig`vogar va Hasadgo`yga duch keladi, keksa va yoshning janjali ustidan chiqadi va “nomukammal zaminda”gi o`z gunohlarini- o`g`ri, kazzob, poraxo`r, ig`vogar, hasadgo`y, nokas, tilyog`lama, shayton yo`ldan urgan , ruhi majruh kimsalarga qarshi kurashmay, bunday illat;arning urchishiga, odamzotning yo`ldan ozishiga ulush qoshganligini to`laroq anglay boshlaydi. Ezgulikning yo`li to`sib qo`yilganligidan:

Yer yuzida janglar kechdi qattiq, qatago`n,
Onalarning diydasidan oqdi qonli yosh.

Voqelarni yoritishning go`yo “narigi dunyo”da kechayotgandek usuli tanlanishi o`zi yashab tirgan hayotning real manzaralarini chizish, barcha qabohatlar ildizini ko`rsatib berish,

davr va tuzum haqidagi o`zini chuqur o`ylantirgan, tashvishlantirgan fikrlarni obrazli tarzda ifodalab berish imkonini bergan. quyidagi misralar bir zaminda, bir osmon ostida umrguzaronlik qilib murosa yo`lini topmayotgan, bir-birini yeb tashlash qasdida yashayotgan inson qavmiga qaratilagn malomat toshidek yangraydi, uni ogohlilki, vaqt borida esini yig`ishtirib olishga, ma`naviyatni asrashga chaqiradi.

Asar jamiyat illatlarini fosh etish bilan birga, o`quvchilarga chuqur tarbiya beruvchi falsafiy-didaktik asar hamdir. Asar ko`p o`z aybini bilmay yuradigan ig`vogar, hasadgo`y, poraxo`r, tilyog`lama odamlarga ko`zgu vazifasini ham o`taydi. Koshki, shunday odamlar bu asarni o`qib hali imkon borligida gunohlariga tavba qilishsa. Asarning odamlarga tez ta`sir qiladi, deyishimizning bosh sababi voqealar diniy timsollar, diniy atamalar bilan ifodalanishida deb o`ylayman. Chunki har qanday yomon inson ham yuqorida bizni boshqaruvchi, bizni kuzatib turuvchi katta kuch borligiga ishonadi. Gunohlarini o`zi yolg`iz qolgan yoki keksaygan chog`ida sarhisob qilayotganda qilgan ishlarini ko`rin tavba qilishi tabiiy. Chunki har bir inson o`zining ojiz bandaliga shubha qilmaydi. Demak, dostondan asosiy maqsad, narigi dunyo manzaralarini ko`rsatishgina emas, balki umuminsoniy fazilatlarini targ`ib qilish hamdir. Inson bu dunyoda nima ish qilmasin, narigi dunyoda, albatta, yo mukofotlanish yo jazolanishini muallif shu asari orqali ko`rsatib bermoqchi. Shoirning asosiy maqsadi ham shudir.

Biz asarda ota va bola, ona va bola munosabati, do`stlarning bir-birlariga bo`lgan munosabatlarning eng oily namunasini mahorat bilan ko`rsatib bergan.

Shoirning ushbu asari jamiyatdagi barcha illatlar va jamiyatimizni ushlab turuvchi umuminsoniy qadriyatlar haqida so`z yuritib, bularning qaysi biri jannatga boshlaydiyu, qaysi biri do`zaxga boshlashini o`quvchilarga juda chiroyli qilib tasvirlab bergan.

III bob. “Haj daftari” turkumida diniy, falsafiy va ijtimoiy masalalar

Davlatimiz istiqbolga erishganidan soʻng islom diniga keng yoʻl ochib berdi. Bu imkoniyatdan A. Oripov samarali va unumli foydalandi. Haj safariga borishga imkon boʻlishi bilan shoir islom dinining 5-farzi boʻlmish Haj ziyoratiga borib hoji degan sharafni olishga muvassar boʻldi. Haj safaridan olgan barcha taasurotlarini 1991-1992-yillar oraligʻida yozgan “Haj daftari” turkumiga jo qildi.

Islom dinining oxirgi farzi Haj ibodati ekanligini yuqorida aytib oʻtdik. Alloh taolo molu dunyolar va imkoniyatlari yetarlik odamlarga Haj qilmoqlikni farz qildi. Toki, insonlar borib kelgunicha musofirlik mashaqqatlarini koʻrib, musofirlarga yaxshiliklar qilsinlar hamda oʻz Vatanlari, oʻz uylarinig qadriga yetib, shukronalar aytishi uchun. Turkum “Kaʼbatulloh” sheʼri bilan boshlanadi. Turkumdan joy olgan sheʼrlarning barchasi diniy motiv, diniy atamalar asosiga qurilgan. Shunday boʻlishiga qaramasdan turkumdagi sheʼrlar ijtimoiy masalalarga, inson xarakteridagi nomukammalliklarni ham tanqid qilib, ularning ustidan kulish holatlariga ham guvoh boʻldik. Turkumning birinchi sheʼri “Kaʼbatulloh” deb nomlanadi. Bunday nomlanishi ham bejiz emas. Haj safarini niyat qilgan har bir odamning birinchi maqsadi bu Kaʼbani ziyorat qilishdir. Odam Haj maqomiga erishish uchun Kaʼbani etti marta aylanib chiqishi kerak. Kaʼba aslida asvad-qora tosh boʻlib, Alloh tomonidan yerga Allohning bir belgisi sifatida yerga tushgan. Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu Olloh tomonidan tushirilgan toshning ikkinchisi hisoblanadi, toshning birinchisi Nuh(a.s.)ga tushirilagan boʻlib, yer yuzini toʻfon bosganda esa koʻp narsalar qatori yoʻq boʻlib ketgan. Ikkinchi biz aytayotgan esa yerga tushirilgandan keyin, oʻsha paytdagi paygʻambar Ibrohim Halilullohga uning atrofini oʻrab, saqlashni Ollohim amr etadi. Shundan keyin Ollohim barcha musulmonlarga uni ziyorat qilishni farz qildi. Kaʼbani ziyorat qilish uchun har yili dunyoning toʻrt tarafidan musulmonlar keladilar. Barchasining asosiy maqsadi bitta islom dinining oxirgi farzi boʻlmish Haj amalini bajarish va xamish haq boʻlgan oʻlimga tayyorgarlik koʻrish. Chor tarafdin kelgan odamlarni koʻrib odamlarda qisqacha boʻlsa ham maʼlum maʼnoda qiyomatning bir parchasini tasavvur qilishi mumkin.

“Kaʼbatulloh” sheʼri shunday boshlanadi:

Hanuz biri ikki boʻlmagan eldan,

Keldim, mada bergil, yo Kaʼbatulloh,

Bagʻri xun, tolei kulmagan eldan

Keldim, madad bergil, yo Kaʼbatulloh.

Har bir inson Kaʼbaga borar ekan oʻzining dardu iztiroblarini, hayotda qiynagan muammolardan chiqib ketishni soʻraydilar. Shoir ham shunday qiladi. Birinchi oʻzini tanitib,

ya`ni shu paytgacha biri ikki bo`lmagan rldan, deya shoir sho`ro musrabid tizumining xalqimizga qilgan yomonluklarini nazarda tutyapti. Har bir odam Ka`baga botgandab keyin qalbida yashirinib yotgan orzu-istaklarini aytib, uni amalga oshishi ichun Tangridan madad so`raydi. Shoir o`z tarixini aytgandan so`ng o`zlligini unutgan, bilib bilmasdan shayton yo`liga kirib qolgan odamlarga Oллоhdan madad so`raydi:

Xor bo`ldi Vatanda kimki ilmi bor,
Birovlar zar bilantopdi e`tibor.
Axir, nima edi elning gunohi,
Keldim, madad bergil, yo Ka`batulloh.

Deya shoir o`zini necha yillardan buyon qiynab kelayougan ijtimoiy muammolarni bartaraf etishni yagona Oллоhdan ochiq-oydin so`raydi.

Ikkinchi she`r to`laligicha Payg`ambarimiz janobi Muhammad sallolohu alayhi vassalamga bag`ishlangandir. Chunki Oллоhning eng so`nggi va eng chin Payg`ambari, islom olamining yagona payg`ambari bu bizning Payg`ambar Rasullulohdir. Payg`ambarimizning umr yo`li biz musulmonlar uchun ibrat yo`lidir.

She`r Payg`ambarimizning tug`ilishi va ularning sifatleri bilan boshlanadi:

Siz bashar farzandi, Abdulloh o`g`li
Arab sahrosidek otashin, cho`g`li,
Payg`ambar bo`ldingiz, muzaffar tug`li,

Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Darhaqiqat payg`ambarimizning otalarining ismi Abdulloh bo`lgan. Bu haqda Nosiruddin Rabg`uziyning “Qissasi rabg`uziy” asarida ham ma`lumat berilgan: “Abdulloh evga borib Aminaga qovushdi. Ul suhbatda ul nur Amina rahminga kechti. Ul vaqtda Amina Muhammad rasulullohg`a yukluk bo`ldi”.¹

She`rda birinchi salom Muhammad ismiga , ikkinchisi Ahmad ismiga salom beriladi Bizgama`lumki

Payg`ambarimizning muborak ismlari ko`p bo`lib bu ularning sifatleri bilan bog`liq. Muhammad-madnga, maqtovgaga loyiq inson ma`nosini bildirsa, Ahmad-Allahga ko`p hamd aytuvchi degan ma`nolarni anglatadi. dunyodagi mashhur ismlari Muhammad bo`lsa, osmondagi mashhur ismi Ahmad bo`lganligi uchun shoir shu ismiga ham salom beradi. Va qilgan ishlarini ham sanab o`tishga hatakat qiladi va yana bir muborak ismini ham sanab o`tadi:

¹ O`sha asar, 1-kitob, 103-bet.

Qiyomat ayyomi, mahshar ayyomi
Sizga nasib etsin Mahmud maqomi,
Mudom tilingizda ummatlar nomi,
Assalomu alayka yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.

Shoir sizga nasib etsin Mahmud maqomi deyishiga sabab, Mahmud-dunyo va oxiratda maqtaluvchi degan ma`noni bildiradi. Qiyomatda ham ummatlar nomi tilingizdan tushmaydi, deyishiga ham asos bor. “Payg`ambarimiz (s.a.v.) aytganlar: Har bir payg`ambarlarga qabul bo`ladigan bir duo berilgan, hamma payg`ambarlar uni bu dunyoda qilib bo`lishgan, men esa uni qiyomat kuni ummatlarimni shafolat qilish uchun olib qo`yganman. Bilinglarki, men odam farzandlarining eng ulug`iman, bunga faxrlanmayman. Qiyomat kuni yer birinchi bo`lib mening ustimdan ochiladi, bunga faxrlanmayman. Qiyomat kuni hamdu sano bayrog`i mening qo`limda bo`ladi. Odamdan tortib hamma insonlar uning ostida turadilar, bularga faxrlanmayman. Keyin aytdilarki: Qiyomat kuni insonlarning g`am-alami juda qattiqlashib ketadi. Ular Odam (a.s.)ga kelib: Ey insonlar otasi, rabbing oldida bizni shafolat qil, tezroq hukmimizni chiqarsin. Shunda Odam: men unday qilolmayman, chunki xato qilib jannatdan chiqarilganman. Bugun meni o`zimdanda boshqa hech narsa qiziqitirmaydi, sizlar Nuhga borib ko`ringlar, u rasullarning birinchisidir, deydi. Insonlar Nuh (a.s.)ga kelib yuqoridagi so`zlarni aytganda u kishi: Men Rabbimning oldiga bora olmayman, chunki duo qilib yer yuzidagi odamlarni cho`ktirib yuborganman. Ibrohimga borib ko`ringlar, Alloh uni o`ziga do`st tutgan edi. Odamlar Ibrohim (a.s.)ga borib shu so`zlarni aytadi. Men bunga qodir emasman, chunki islomda uch marta yolg`on gapirganman, deydilar. Sizlar Musoga borib ko`ringlar. Odamlar Musoning yoniga borishganda Muso ularni Isodan madad so`rashlarini aytadi. Odamlar Iso(a.s.) yonlariga borishganida Iso: Men ham qosir emasman, insonlar Allohni qo`yib meni va onamni iloh qilib olishgan. Bugun meni o`zimdanda boshqa narsa qiziqitirmaydi, deydilar. Keyin yana aytdilarki: Agar birortalaringizda biror narsa bo`lsayu, uni xaltaga dolib, ustini o`rab qo`ysa, o`raglan narsani ochmasdan turib, idishdagi narsani olib bo`ladimi? Shunda odamlat: Yo`q, deyishadi. Unday bo`lsa Muhammad (s.a.v.) bilan yakunlangan. U bugun sizlarga vafo qiladi. Alloh uning avvalgi va keyingi gunohlarini kechirgan, deydilar.

Rasulilloh (s.a.ax) aytdilarki: O`sha kuni insomlar mening oldimga kelishadi va men aytamanki: Ha, men shafolat qilgayman. Alloh kimniki xohlasa va kimgaki rozi bo`lsa, deb javob beradilar...”¹

¹ As Samarqandiy, “Tanbehul g`ofiliyn”, 1-kitob, 58-bet.

Shoir she`rida “Mudom tilingizda ummatlar nomi”, deyish bilan shu voqeani nazarda tutayotgan bo`lsa kerak.

Hojilar Ka`bani tavof qilish bilan birga Payg`ambarimizning qabrlarini ham ziyorat qiladilar. Shuni nazarda tutgan holda shoir ushbu she`rida:

Qabringiz qoshida turfa ummatlar,
Suvratlar boshqayu o`zga Siyratlar...

Satrlarini keltiradi. Shoir xuddi Payg`ambarimiz bilan suhbatlashayotgandek, ichida kechayotgan barcha ruhiy iztiroblarini to`kib soladi.

Keyingi she`ri “Tilanchi bola” deb nomlanib Makkada ko`rgan va hayolidan ketmay qolgan tilanchi bolaning nigohi haqida so`z ketadi:

Ka`baning muqaddas namozgohida
Ming-minglab mo`minlar yukinmoqqa shay.

...

Kimdir uzatardi sadaqa-riyol,
Biroq ehsonga u qilmasdi ruju...
Mening nazarimda u bir farishta,
Mehru-sahovatga unsiz chorlaydi.

Har narsada bir hikmat bor, deganlaridek, shoir ham Tilanchi bola hayotidan o`ziga o`rnak olmoqchi bo`ladi. Bolaning hayotini ko`rib, o`zgalar hayotiga shukr qilishlari uchun Ollohim ana shunday ojiz bandalatni ham yaratadi.

“Alloh dargohi” deb nomlangan she`rida shoir Allohning dargohi kengligini, uning vasliga noil bo`lish esa dunyodagi eng ulug` baxt ekanligini o`quvchilarga aytmoqchi.

“Ona” she`ri shoirning nafaqat o`z onasiga, dunyodagi barcha onalarga bag`ishlangan:

Ka`ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo`llarin.
Onalar poyiga tiz cho`k o`shal on,
Tavof qil, ko`zga surt, o`pgin qo`llarin.

Ushbu satrlarda shoir onalarning qilgan ishlari uchun dunyoda hammadan ham ulug` baxtga munosibligini aytib o`tgan. She`rda shoir tarixiy haqiqatni ham qo`shib o`tgan:

Hojar onamizning nidosi sabab,
Ka`bada ko`z ochgan Obi zam-zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg`ambarlar ko`zida nam.

Tarixiy voqea shuki, Ismoil (a.s.) Sora onamiz bilan turmush qurganganlariga necha yil bo'lsada o'rtalarida farzand bo'lmaydi. Shuning uchun Sora onamiz o'zining cho'risi Hojarni Ismoil (a.s.) ga nikohlab beradi. Oradadan yil o'tib ular farzandli bo'lishib Ibrohim (a.s.)ning Hojar onamizga mehri oshadi. Buni ko'rib Sora onamizni rashki kelib Hojar onamizni saxroga farzandi bilan haydab yuboradi. Hojar onamiz saxroda yolg'iz chaqalog'i bilan och-nahor, ayniqsa suvsizlikdan qiynaladi. Shunda Ollohning rahmi kelib toshdan suv chiqaradi. Bu suv hozirgi barcha Haj ziyoratiga borganda oilasiga ham ilinib keladigan obi zam-zam suvidir. Bu suvni ichganlarning murodi hosil bo'lib, yetmish dardga ham davo hisoblanadi.

Haj ibodatining uchta farzi bo'lib shulardan biri, Atofat tog'ida bir muddat turmoqlikdir. Shoir Arofat tog'ida turgan chog'ida hayolidan kechgan fikrlarni shu nomli she'riga-“Arofat” she'riga jo qiladi.

Arofat tog'ining etaklarida
Ko'rdim qiyomatning alomatlarin.
Hamma bir hil libos-ehrom sarida,
Qaytadan varaqlar umr daftarin.

A. Oripov bir mo'min sifatida Arofat tog'ida turib tepalikdan pastga qaraganda hamma ko'pgina odamlarni bir hil kiyimda ko'rib beixtiyor qiyomatdan bir parcha ko'rgandek bo'ladi.

Turkumdan joy olgan “Hayot haqiqati” she'rida shoir faqat Allohga murojaat qilib, ayriliqdan asrashini so'raydi:

Umrning yarmini ham o'tdik amallab,
Qolgan yarmiga ham podshodir xudo.
Faqat atriliqdan asragin, yo Rabb
Do'stu yoron;ardan qilmagin judo.

Bir so'z bilan aytganda o'ziga yaxshilikni Yaratgandan so'rab duo qiladi. Duo insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojidan kelib chiqqan tilak ifodasi bo'lib, u holiq bilan banda o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Insonoyat tarixining barcha davrida duoga ehtiyoj sezib kelingan. Duo Olloh nazdida qadrli ibodat bo'lush birga insonni quyinchilik vaqtida umid qilishga, xursand vaqtida shukr qilishga da'vat etadi. Shu sababli duo:

Umidsiz insonnig umid bulog'i,
Holiqqa yokvorush, uni eslash, zikr etish va undan yordam so'rashdir.
Buyuk ibodat, barcha orzu niyatlarning kalitidir.

Allohning rahmatidan umidvor holda duo qilgan bandalari haqida Parvardigorimiz shunday marhamat qilgan: “Menga duo qilgan paytlarida duogo'ylarning duosini qabul qilaman”-deb marhamat qilgan (Baqara, 186). Robbingiz: “Menga duo qiling, ijobat qilaman”, dedi. Duo qilish

shoirning qon-qoniga singib ketganligi uchun u ko'p she'rlarida o'ziga va yurtiga omonlik so'rab duo qiladi.

Keyingi sheri "Hojilar"ni o'qib ham kulasiz, ham ularning ahvoliga achinasiz:

Halollik islomda eng oly matlab,
To'g'rilik muslimning asl gultoji
Bir kuni o'rtada shayton oralab,
Hojining hamyonin urdiku hoji

Gunohlardan poklanish uchun borgan odam gunohligini bilib turib gunoh qilishi kuingizni keltirishi tabiiy. Ammo mana shu hoji bila turib gunoh qilayotgani uchun unga narigi dunyoda o'g'ir jazo berilishini o'ylab unga rahmingiz keladi. Shoir balki bunday voqeani ko'rmagandir, lekin Haj ziyoratiga borib ham nima maqsadda kelganini bilmaydigan "hoji"lar ham bor. Shundaylardan bo'lib qolishdan Allohning o'zi asrasin.

O'g'ri hoji esa mamnun ishidan,
Tinmayin sajdaga egilar boshi.
Nobakor bandaning bu qilmishidan,
Battarroq qoraydi Ka'baning toshi.

Deya shoir Ka'badagi toshning rangi qoraligiga ishora qilmoqda. Bu sartlarda husni ta'lil san'ati bor.

Biror bir odam Haj ziyoratiga borib kelganidan keyin, u odamni ko'rishga oshiqamiz, chunki Haj ziyorati qabul bo'lgan odam onadan yangi tug'ilgan chaqaloqdek gunohlardan holi bo'lishi muqaddas kitoblarda yozilgan. Xo'sh, hamma Hajga borganlarning ziyorati qabul bo'larmikan, hammasi ham hoji degan ulug' martabani olishga loyiqmikan? Shoir yuqorudagi "Hojilar" she'rida va quyidagi to'rtligida ana shunday hoji sharafiga noloyiq insonlar haqida so'z yuritadi:

Kezib bu shaharni balki horgaysan,
Va lekin Allohga diling yorgaysan.
Adasha-adasha Makkani topding,
Endi adashsang qayga borasan.

Ha, inson Makkaga, hajga islomning so'nggi farzi bo'lganligi uchun, qolaversa, umr bo'yi qilgan gumohlariga tavba qilish uchun, eng asosiysi, ziyoratim qabul bo'lgach, gunohim yuviladi, degan maqsadda boradi. Hajga borib kelganidan keyin hojining gunoh qilishga haqqi bormikan?

“Ehrom kiyib olgan ikki musulmon” deya boshlanuvchi to`rtligida shoir hajga borib Olloh farzini bajaryapman, deb aslida nima maqsadda kelganini bilmaydigan hojilar haqida so`z yuritadi:

Ehrom kiyib olgan ikki musulmon,
Bir-birin so`kishib choy talashardi.
Asli bilmasdilar shu zum ikkovlon,
Do`zaxning tubidan joy talashardi.

Mazkur she`rda shoir diniy motiv orqali, islom dinining qonun-qoidalarni targ`ib qilmoqda. Ehrom so`zi diniy atama bo`lib, faqat islom diniga xos termin hisoblanadi. Haj ehromsiz ado qilinmaydi. Ehromga kirmoqchi bo`lgan kishi tahorat yo g`usl qiladi. G`usl qilgani yaxshiroqdir. Tirnoq va mo`ylablarini qisqartiradi. Badanni olinishi lozim bo`lgan tuklardan tozalaydi. Erkaklar tikilgan kiyomlarini yechib, beldan pastini tizza bilan qo`shib toza oq choyshab bilan o`raydi. Ikki rakkat namozdan so`ng “Ilohim, men Hajni qasd qildim, uni menga oson et va qabul ayla”, deb niyat qilgan holda talbiya aytish bilan ehromga kirgan hisoblanadi. To`rtlikdagi qahramonlar jisman poklanganlar, lekin ularning ruhi jismidek toza emas. Chunki ehromga kirgan inson gunohlarning barcha turidan, jumladan, yo`ldoshlari bilan tortishuvdan saqlanishi lozim. Ular o`zlaricha Allohning buyurgan hamma ishlarini qilishdi, faqqat oddiy insoniy fazilatlarini, qadriyatlarini unutishdi. Agar ular boshqa joyda bu holatni qilishganda balki yengilroq jazolanarmidi, lekin ular Allohning uyida bu fazilatlarini unutganligi uchun shoir ularga do`zax “mukofot” tariqasida beriladi, demoqda.

Yana shunga o`xshash she`rlardan biri “Haj savobi” (hazil tariqasidagi) she`ridir. She`rni o`qib yuzingizga kulgu yugurishi turgan gap, kulgidan emas, hayratdan. She`r muhbir bilan Hoji bobonig savol-javobi asosiga qurilgan.

Muhbir:

So`raybersam, savollarim ham talay,
Mayda-chuyda ikir-chikir, alay-balay,
Madinada payg`ambarning daxmasi bor,
Hoji bobo ko`rdingizmi, uni qalay?

Hoji bobo:

Madina ham shahar ekan oliyhimmat,
Ayollari yurishibdi yuzda chimmat,
Atlas olib borgan edim arzon ketdi,
Muhbir bolam u joylarda asal qimmat.

Afsuski, oramizda ana shunday odamlar ham bor. Ularning asosiy maqsadi Haj savobi emas, balki dunyoviy maqsaddir. Sher`ning oxirgi qismida Muhbir tilidan aytilgan so`zlar aslida, shoir-muallifning ichidan otilib chiqqan qalb tug`yonlari edi:

Savolimni quloqqa hech ikdingizmi,
Qayga borib kelganingizni bildingizmi?
Man savobdan gapiraman, siz savdodan,
Hoji bobo aslida haj qildingizmi.

Haqiqatdan ham she`rning qahramoni-Hoji bobo Hajga nima maqsadda borganini ham bilmaydi. Bu turkumni hamma Haj safarini niyat qilganlar borishdan oldin bir o`qib chiqishi kerak. Muqaddas safarga chiqishdan oldin hoji maqomini olmoqchi bo`layotgan odam bu sharafni olishga loyiqmi, yo`qmi shu savolni o`ziga-o`zi berib keyin borishi kerak. Quyidagi turkumning oxirgi “Shayton” she`ri hoji maqomini olib bo`lganlarni ogohlikka chaqiradi:

La`natlab bo`lsa ham, qarg`ab bo`lsa ham,
Har kun tilovatda aytilar nomi.
Uning bosh suqmagan joyi kamdan-kam,
Ichilgan har qadah uning ham jomi...

Azozil farishta odamga bosh egmagandan keyin, Olloh uni la`natlab, iblisi la`in deb atadi. “ul holda azozil ujmohta erklik erdi. Bir kun “Lavhul-mahruzda” ko`rdi, farishtalar birisi mal`un bo`lg`ay deb. Farishtalar ani bilib qamug` qo`rqdilar. Azozilg`a kelib aytdilar: “Sen ustodimizsen, biz g`oyat qo`rqarbiz, duo qilg`il, azza va jalla bizni la`natdin kuzarsin”. Azozil duo qildi, farishtalar “omin” tedilar. Izi va jalla aning duosi birla qamug` farishtalarni la`natdin kuzardi va o`zi la`natga kirdi...”¹ Biz shularga asoslanib shaytonga doim la`nat so`zini qo`shib aytamiz. Shoir ushbu she`rida har bir ichkilik ichilgan qadahda shayton ham bor, degan fikrni “Moida” surasi, 90-oyatdagi so`zlarga va quyidagi rivoyatga asosan keltirmoqda: “Ey, imon keltirganlar, bilingki, sharobxo`rlik (ichkilikbozli), qimorbozlik, g`ayri shar`iy hiylalar va Alloh taolodan boshqaga qasam ichish shyton amallardandir.”

Rivoyat qilurlarki, Nuh (a.s.) kemadan tushgandan keyin, Alloh subhonahu va taolo amri bilan kemaga olib kirgan daraxtlar ko`chatiniyerga o`tqazdilar. Ko`chatlar orasidan tok ko`chatini topa olmadilar. O`g`illari Somdan so`radillar. Som qancha tokni izlamasin, ko`chatni topa olmadi. Jabroil (a.s.) kelib: “Yo Nuh, tok ko`chatini shayton o`g`irlagan, undan talab qilgin, topib bersin”, dedilar. Nuh (a.s.) chaqirganlarida shayton kelib: “Yo Nuh, agar meni tok ko`chatini sug`orishda sherik qilsang, topib beraman”, dedi. Nuh (a.s.) Jabroil (a.s.)ning aytganlatini qildilar. Shayton alayhilla`na darhol ko`chatni keltirib berdi. Nuh (a.s.) ko`chatni

¹ N. B. Rabg`uziy, “Qissasi Rabg`uziy”, 1-litob, 20-bet.

yerga o`tzadilar. Shaytoni la`in shoshilib sherni so`yib, qoni bilan ko`chatni sug`ordi. Keyin ayiqni so`yib tokni sug`ordi. Keyin yo`lbarsni so`yib qoni bilan ko`chatni sug`ordi. Undan keyin itni so`yib sug`ordi. Keyin bo`rini, keyin tulkini va tovuqni navbati bilan so`yib tok ko`chatiga suv berdi. Darhol tok ko`larib, hosilga kirdi va yetti hil uzum pishdi. Shayton uzumdan sharob tayyorladi.¹

She`rda yana shunday satrlar bor:
Minoda shaytonni qilidik toshbo`ron,
La`natga ko`mildi badbaxt bu la`in,
Dedik shuncha yukning ostidan Shayton,
Ming yillar chiqolmay yotmog`i tayin.

Haj amalining yana bir shartlardan biri bu Arofat tog`ida shaytonga tosh otishdir. Bu ramziy ma`noda bo`lib, aslida odamlar o`zlari bilan doim birga bo`lib, yomon ishlarga boshlaydigan shaytonga qarata tosh otadilar.

Shodumon yo`l oldik, Vatanga qarab,
Shayton qoldi deya chuqurda, chohda,
Manzilga qaytgandik, Shayton vo`ajab,
Bizni kutib oldi tayyoragohda.

She`rdan ko`rinib turibdiki shaytonga tosh otish bilan uni yo`qotib bo`maydi. Zero, Payg`ambarimoz (s.a.v) aytganlaridek: “Tanangizda qoningiz qanday aylansa, shayton ham ana shunday aylanadi”, deya marhamat qilganlar.

Shunday ekan barchamiz ichimizdagi shaytonni yenga olishda o`zimizda kuch topishimiz kerak. Asarda shoir Haj amallari orqali Haj sharafiga noloyiq insonlarga o`zlarini ko`rish uchun ko`zgu tutadi. Bu asarni ham biz bemalol “Jannatga yo`l” dramatik asari kabi didaktik, odamlarni yaxshilikka, ezgulikka chorlovchi asar deb baho berishimiz mumkin.

¹ Muhammad Salim ibn Muhammad Rahim Buhoriy “Durratul va`izin”, 108-bet.

IV bob. “Hikmat sadolari” turkumida islom dini g`oyalarining aks etishi

“Hikmat sadolari turkumi” 1991-1992-yillar oralig`ida yozilgan bo`lib, Payg`ambarimiz (s.a.v) ning tarixi va ularning aytgan gaplari, hadisleri asosida yozilgan. Asarda to`laligicha islom dini tarixi, qonun-qoidalari aks etgan.

Asarning biribchi she`ri “Ibodati” bo`lib, odamlarni yolg`iz Ollohga ibodat qilishga chaqiradi:

Dunyo ishlariga boqma hech xayron,
Jimgina nazar sol ko`hna bu korga,
Olis kechalari yolg`iz qolgan on,
Dilingni och faqat Parvardigorga.

Yuqoridagi boblarda Allohning asosiy to`rtta farishtalari haqida ma`lumot bergan edik. Turkumning ikkinchi she`ri Jabroil deb nomlanib, islom dini tarixiga to`g`ri keladi:

Ul kuni Muhammad-hoksor banda,
Alloh bazariga bo`lganda noil.
Sokin hujrasida o`ychan turganda,
Tushdi huzuriga Hazrat Jabroil.

Tarixiy haqiqat shuki Payg`ambarimiz (s.a.v.) otalaridan, onalaridan yetim qolgandan keyin Halima otli ayol Muhammadni o`z bag`riga oladi. Bu voqea haqida “Qissasi Rabg`uziy” asarida shunday deyiladi: “Bir yig`och yer chiqtilar esa, ikki oq qush havodin inib Muhammadni o`g`lonlar orasindin olib, havog`a oshurdilar. Biyik yerga eltib qo`yib Rasulni orqan yotqurib ko`kragini yordilar. Yuragini chiqarib bir oltun tasht ichinda yuvdilar yana yerinda o`rnattilar. Oltin igna birla yarasini tiktilar, qanot birla sivadilar. Ul ikaguda biri Jabroil erdu, yana biri Mikoil erdi.”

Avval Muhammadning ko`ksini yorib,
Shaytonoy hislarni yulib tashladi.
So`ng iymon nuriga hikmatni qorib,
Muhammad ko`ksiga joylay boshladi.

“Me`roj” she`rida Payg`ambarimiz (s.a.v)ning me`rojga chiqqanlari xususidadir:

Arshning suluv oti nurqanot Buroq,
Elti Muhammadni oily dargohga.
Tasviri joizmas bu holni biroq,
Visol nasib etdi Rasulullohga.

“Qissasi Rabg`uziy” asarida Payg`ambarimizning Me`rojga chiqqani to`grisida alohida “Qissai Me`roj An nabiyy salollohu alayhi va sallam” nomli hikoyat berilgan. Unda aytilishicha: “Rasul salollohu alayhi va sallam bir kecha Ummahoni evinda yotur edi. Ummahoni Abdul Mutallibning qizi erdi. Rivoyat qilur Molik ibn sa`sa`a, Rasul alayhi salom yorliqadi: “Yotur erdim Kelikli keldi, ko`ksumni yordi, yuragimni chiqardi. Oltun tasht kelturdi, ichi to`la imon hikmat erdi. Yuragimni aning ichinda yordi yana o`rnida qo`ydi. Andin so`ng bir Buroq kelturdi. Oq tukluk, xachirdin kichikroq, eshakdin ulug`roq. Aydilar: “Yo Rasululloh, Buroq bu turur! Ko`zi yetgan yerda ayoqin qo`yar erdi. Mani anga mindurdi. Jabroil maning birla erdi. Avvalg`i qat ko`kka tegdimiz ersa, dastur tiladi. Kimsen tedilar. Jabroil aydi: Man tururman. So`rdilar: Sening birlan kim bor, teb. Aydi: Muhammad Mustafo bor, tedi. Seni angamu yubordilar? teb so`radilar. “Xov” ded. Qapug` ochtilar, kirduk...Quy bog`qil! Dunyo olamindag`ilarni bir zarra tuproq ko`rundi. Arsh, aflokni, ujmohni, tamug`ni o`zindin ostin ko`rdi. Ya`ni Ey Muhammad, qamug` yaratilmish mavjudotni saning uchun yaratdim, sen bo`lmasang erdi, aflok bo`lmag`ay erdi. Lav laaka lama xalaqtul aflak...”” .

Me`roj she`ri to`laligicha diniy motiv, diniy atama va tarixiy haqiqat asosida qurilgan. Haqiqatdan ham Payg`ambarimiz (s.a.v.) Me`rojga chiqib Tangrining visolini ko`rishga muvaffaq bo`lganlar. Bu she`rda boshqa she`rlardan farqli o`laroq ijtimoiy problemalar umuman aks etmagan.

“Qum fa ma anzir!” so`zi arabchadan tarjima qilinganda tur va ogoh et ma`nolarini ifodalaydi. Ushbu she`rda shoir xuddi shunday so`zlardan foydalanib Yaratganning so`zlarini she`rga jo qilgan:

Qum fa ma anzir!-Tur va ogoh et,
Ayt, mo`minlar bo`lsinlar qoim.
Qum fa ma anzir!-Tur va ogoh et,
Ulug`lagin Rabbingni doim.

Ma`limki, Payg`ambarimizga Tangri taoloning so`zlari vahiy orqali kelgan. Vahiyning tarixi haqida “Qissasi Rabg`uziy” asarida shunday berilgan: “Aymishlar, Jabroil (a.s) ul surat uza yaratilmish tururkim, ikki qatla o`zin ko`rguzdi. O`zga vaqtlarda Vahiyat al-Kalbiy suratincha ko`rdi. Bu Vahiyat Rasulning yoshdoshi edi. Jabroil so`rdi Muhammadg`a: “Men senga kelsam kimning suratincha kelayin?” Rasul: “Vahiyat suratincha kelgin”, temish erdi...”¹ shuning uchun Rasulullohga Parvardigorning so`zlari vahiy oraqli kela boshlagan. Shoirning “Vahiy” she`rida bu atama sifatida qo`llangan:

Manman kimsalardan ranjidi Rasul,

¹ “Qissasi Rabg`uziy” 2-kitob, 148-bet.

Ko`ngli qolgandayin xatto do`st yordan.
G`orlarga bekinay deganda butkul,
Vahiy tusha keldi Parvardigordan.

Ushbu she`rning qolgan qismi esa quyidagi hadisning mazmuni aks etadi. “Manman kimsalar manmanlik qilmanglar. Manmanlik qilishga arzigulik biror fazilatingiz bormi. Yerni oyog`ingiz bilan urib tesha olasizmi yo tog`ni zarbingiz bilan parchala olasizmi?”

-Aytgil, Ey Muhammad, manman kimsalar,
Vahmkor bo`lsa ham nechog` siyog`i.
Qancha deysinmasin chiranib magar,
Teshib o`tdimikin yerni oyog`i?
-Aytgil, Ey Muhammad, manman kimsalar,
Vahmkor bo`lsa ham nechog` siyog`i.
Qancha kerilmasin chiranib magar,
Tog`larga yetdimi ekan dimog`i?

Turkumdan joy olgan “Ibrat” she`ri esa Payg`ambarimiz (s.a.v.) hayotlik chog`larida qilgan ishlari xususida. Rivoyat qilishlaricha: Payg`ambarimiz (s.a.v.) jihoddan qaytayotib bir daraxtga charchaganidan suyanib uxlab qoladilar. O`rnilaridan turib daraxtni kesish uchun bolta so`rab daraxtni chopib yuboradilar. Sahobalari nima maqsadda bunday qilganini so`rganlarida Payg`ambarimiz (s.a.v.): “Mendan keyin ummatlarim daraxtni ilohiylashtirib gunohkorlardan bo`lib qolmasin”, deya javob beradilar.

Rasul amr qildi:-Kesing daraxtni,
O`ylamang borliqqa yo`qdir himmatim.
Payg`ambar daraxti bergay deb baxtni,
Sig`inib yurmasin unga ummatim.

“Ro`za” she`rida esa, islom dinining farzlaridan biri Ro`za haqida so`z boradi.

Ro`zadan chiqqanlar sizga ham rahmat,
Farzingiz sinovli saodat erur.
Rasululloh demish:-“Sabr qil ummat”
Mo`minlik belgisi qanoat erur.

Rivoyat qilurlarli, Alloh taolo aqlni yaratdi va unga: “Yaqinroq kel”, dedi. Darhol yaqinroq keldi. Yana dediki: “Joyingga qayt”. Aql joyiga bordi. Alloh taolo unga dedi: “Sen kimsanu, men kimman?” Aql dedi: “Sen mening parvardigorimsan, men sening ojiz bandangman”. Alloh taolo dedi: “Ey aql, seni mahliqotlar ichida azizu-mo`tabar qilgum”. Undan keyin nafsni yaratdi va unga dedi: “Yaqinroq kel”. Nafs parvo qilmadi va joyidan jilmay

turaberdi. Alloh taolo unga dedi: “Sen kimsanu, men kimman”, dedi. “Sen sensan, men menman”, deb javob berdi. Alloh taolo nafsni Do`zaxda yuz yil yondirob, azobladi va Do`zaxdan chiqarib: “Men kimmanu, sen kimsan? Deb so`radi”. Nafs yana “Sen sensan, men menman”, deb javob berdi. Shundan keyin Alloh taolo nafsni ochlik azobiga duchor etib, azobladi va so`radi: “Sen kimsanu, men kimman”, dedi. Nafs dedi: “Men sening qulingman, sen meni yarangan parvardigorimsan”. Shu sabab biln Alloh taolo o`ttiz kun Ramazono sharif ro`zasini bandalariga farz qildi. (“Mushkot”)

Haqiqatdan ham Parvardigori olam ro`zani bandalarni sinash uchun farz qilgan. Chunki insondagi nafs odamni har ko`yga solishi mumkin.

“Farzingiz sinovli saodat erur” deyish bilan shoir o`quvchilarga Payg`ambarimiz (s.a.v)ning quyidagi rivoyatini eslatib o`tmoqda.

Rasululloh (s.a.v.) dan shunday rivoyat qilinadi. Jannat to`rt toifa insonlarga mushtaq bo`lib turadi:

Birinchi toifa Qur`on tilovat qiluvchilarga.

Ikkinchi toifa tilini har xilbekorchi so`zlarni aytishdan saqlaganlarga.

Uchinci toifa ochlarga taom berib to`ydirganlarga.

To`rtinchi toifa Ramazoni sharif ro`zasini mukammal tutganlarga.¹

Shoir nazarda tutgan saodat Jannatdir.

“Hayit” she`rida diniy atama hayit qo`llanib, bu barcha dinlar uchun xosdir.

Hayit kunlarida janglar ham to`xtab,

Qilichlar qiniga qaytib kirguvsi.

Mo`minlar egizak jonlarga o`xshab,

O`zgaga boqqan chog` o`zni ko`rguvs.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, hayit kunlarini bayram qilish, o`sha kuni dam olish odat tusiga kirdi. Aslida hayit kunlarini she`rda aytilafnidek, shod-hurramlik bilan o`tkazishi musulmon xalqiga necha ming yillardan buyon meros. “Qissasi Rabg`uziy” asarida ham hayit so`zi bayram ma`nosida o`sha kuni xursandchilik qilish ma`nosida qo`llaniladi: “...Ka`baning tengrisin tanuq qildi. Taqi aytdi: “Sening birla ahd qildimki, Muhammadni ezgu asrag`il. Iyd kunlari bo`lsa yangi to`nsiz qo`ymag`il” ”. Hayit so`zining sinonimi iyd ekanligi barchamizga ma`lum. O`sha kuni yangi kiyim kiyish ham Payg`ambarimiz (s.a.v) zamonlaridan qolgan. “Qissasi Rabg`uziy”da yana shunday deyiladi: “Iyd kunlari qarz qilib Muhammadga yangi to`nlar kiydurur erdi...”

¹ Muhammad Salim Ibn Muhamma Rahim Buxoriy “Durratul va`izin”.

“Hayit kunlarida janglar ham to`xtab, qilichlar qiniga qaytib kirguvsi” jumlasini shoir “Tavba” surasi 36-oyatdagi so`zlarga asoslangan holatda keltirmoqda: “Albatta, Allohning nazdida oylarning sanog`i Alloh osmonlar va yerni yaratgan kunida belgilab qo`yganidek, o`n ikki oydir. Bulardan to`rttasi urush harom qilingan oylardir. Mana shu haq dindir. Ushbu oylarda (urush halol deb) nafsingizga zulm qilmang. Mushriklar siz bilan to`planib jang qilsalar sizlar ham ularga qarshi jang qiling. Bilimgki, Alloh taqvodarlar bilan birgadir.” Ana shu surada keltirilayotgan oylarda ikkala hayit bo`lib o`tadi. Demak, har bir dinda hayit bayrami bo`lsa ham, lekin o`sha kunlarda jang qilmaslik faqat islom dinidagi hayitga tegishlidir.

Umidvor har kimsa topib kushoyish,
Qorong`I dillarga yo`gib turgay nur.
Uyquda farog`at yurtda osoyish,
Duolar ijobat, niyatlar manzur.

Haqiqatdan ham hayit kunlari qilingan duo ijobat bo`ladi. Imom G`azzoliyning “Ihyou ulumid din” asarida dusi qabul bo`lishni istaganlar amal qilishi lozim bo`lgan o`n qoida Qur`on va hadisga asoslanib birma-bir ko`rsatilgan. Ular quyidagilardir:

1. Ramazon oylari, arafa kuni, hayit kunlari, juma kuni kabi muborak kunlarda ko`proq duo qilish.

“Oyisha” sher`ida:
Oyisha, Oyisha, Oyisha ona,
Nechun ko`zlaringdan oqar marjon yosh.
Senga Rasullulohning o`zi parvona,
Bir muhring Oy bo`lsa, birisi Quyosh.

Oyisha Payg`ambarimizning suyuqli xotinlaridan biridir. “Qissasi Rabg`uziy” asarida ular haqida alohida bob ajratilgan. Payg`ambarimiz (s.a.v.) ularni olti yoshligida nikohlariga olgan. Rasululloh (s.a.v.)ning to umrlarining oxirigacha birga bo`lganlar. Ularning aytganlarini so`zsiz bajarganlar.

Barcha odamlar Oyisha onamizga havas bilan Payg`ambarimiz (s.a.v.)ning suyuqli zavjasi sifatida qaragan bo`lsalar, shoir ularga oddiy ayol sifatida qaragan:

Tonglarni orttirding juftingga qarab,
Shoni shon keltirdi, hasrati-ado...
Payg`ambar zavjasi bo`lmoq-ku sharaf,
Insonga yo`ldoshlik og`irdir, ammo.

Haqiqatdan ham, ular ayol sifatida Payg`ambarimiz (s.a.v) qayerda bo`lsalar ularning issiq-sovug`idan hamisha xabardor bo`lganlar. “Qissasi Rabg`uziy”ning Hadisi ifk Oyisha

raziyallohu anho nomli qissasida aytilishicha: “Oyisha raziyallohu anho aydi: “Qachon Rasul alayhis salom g`azotqa xotunlardan birisin qur`a birla yo navbat birla olub chiqar erdi. Navbat manga bo`ldi ersa uch qatla kumrig urur erdilar. Ilk urmishta, yilqi qora yig`ar edilar. Ikkinchda, yuk yuklayur erdilar...””.

Yuqorida aytib o`tganimizdek, turkum tarixiy haqiqatlar, rivoyatlar va hadislar asosiga yozilgan. “Hazrati Odam” she`ri ham tarixiy haqiqat va rivoyat asosida yozilgandir. Hazrati Odam Ollah yaratgan insonlarning eng birinchisi hisoblanadi. Ular haqida “Qissasi Rabg`uziy” asarida shunday ta`rif berilgan: “Ul tuproqdin yaratg`an, qudrat birla to`ritgan, adiz ko`kka og`g`an, ujmoh ichra kirgan, Havvotek juft berilgan, Iblis vasvasiga ilingan, yoruq ujmohdin azrilg`an, qorong`u dunyoga ingan, uch yiz yil *robbana zalamna anfusana* teb yig`lagan, va *la takroba xazixias-shajarata* xitobin eshitgan, *summiaj tabahu rabbuhu* tojin boshing`a urgan, *inna-llohi istafa Aadama* xil`atin qizgan, *usjudi li Aadama* karomati birla mukarram bo`lg`an va *allama Aadama al-asma`a kullaha* tashrifin bo`lgan Odam safiy, ul xalifai vafiy”, deya ta`rif berilgan ularga.

Joylari osmonda bo`lsa ham magar,
Hazrati Odamga qiyindir g`oyat.
O`ng yonga boqqanda ruhlari yayrar,
Chap yonga boqqanda o`rtanar faqat.

Xo`sh, nima uchun Hazrati Odam o`ng tarafga boqqanda xursand bo`ladiyu, chap tarafga boqqanda yuragi o`rtanadi, bunga sabab nimada? Ma`lumki, Odam alayhis salomning Qobil va Hobil ismli o`gillari bo`lgan. Momo Havo onamiz har tuqqanlarida egizak-o`g`il qiz tuqqanlar. Ulardan boshqa odam farzandi bo`lmaganlari uchun Yaratgan o`zlari bilan egiz tug`ilmagan qiz farzandni nikohlanishni buyurgan. Qobil bilan Iqlimo ismli g`oyat chiroyli qiz tugilgan bo`lsa, Hobil bilan Abudo otli ko`rksiz qiz dunyoga kelgan. Bu haqda “Qissasi Rabg`uziy” asarida alohida bir qissa bo`lib, shunday hikoya qilinadi: “Qachon Qobil tug`di ersa aning birla bir qiz tug`di, g`oyat ko`rklik, Iqlimo otlig`. Ikki yilda kezin Hobil tug`di. Aning birla tug`gan qiz g`oyat ko`rksuz erdi, Abudo otlig`. Odam o`z shari`atincha Qobil birla tug`g`an qizni Hobilg`a berur bo`ldi. Hobil birla tug`g`an qizni Qobilg`a berur bo`ldi ersa Qobil unamadi. “Maning birla tug`g`ann qizni olurman”, tedi. Odam aydi: “Shariat andog` ermas”. Qobil aydi: “Bu manga qarindosh bo`lur ersa ul ham qarindosh bo`lur”, teb taloshdi ersa Odam aydi: “Andog` ersa ikagu qurbon qiling, qayungizning qurboni qabul bo`lsa Iqlimoni ul olsun.””¹ Ikkovi ham qurbon qilishgach Hobilning qilgan qurbonligi qabul bo`lib va u Iqlimoga uylanadigan bo`ladi. Shunda

¹ "Qissasi rabg`uziy" 29-bet.

shayton Qobilning yo`lida paydo bo`lib uni gij-gijlab Hobilni o`ldirib o`zi Iqlimoga uylanishi mumkinlagini aytib uni yo`ldan ozdiradi. Qobil shunday ham qiladi. O`z ukasini o`ldirib gunohkorga aylanadi. Va ko`p shayton aytgan ishlarni qilib do`zaxiyalar qatoridan birinchilardan bo`lib joy oladi. “Rivoyatda andog` kelur: Qobil Hobilni o`lturdi ersa, Iblis kelib Qobilg`a so`zladi: Mavlo taolo ne uchun saning qurboningni qabul qilmadi? Aning uchunkim, san o`tg`a tobunmazsen. Butg`a tobunmazsen, un o`tkurmazsen. Qobil bu qamug`ni ishlab erdi. Andin kezin Qobil xamr ichdi, butg`a tobundi, unlar o`tkuru boshladi.”¹

Shundan keyin Hobil mazlum bo`lgani uchun jannati, Qobil zulmkor, Oллоh buyurgan ishlarni emas, shaytonning so`ziga kirganligi uchun do`zaxi bo`ldi. Shoir shu voqelarni bilgani uchun ham “Hazrati Odam” sher`ida:

Quvna o`ngga boqib Hazrati Odam,
Chap yonga boqqanda oshar nolasi.
Bir nasli jannatga noil bo`lsa ham,
Do`zaxda yonmoqda bitta bolasi.

Odam (a.s.) o`zlari jannati bo`lsalar ham, lekin gunohkor bo`lsa ham do`zaxi bo`lgan farzandiga qarab ichi achiydi. Odam (a.s.) payg`ambar bo`lsalar ham birinchi navbatda ota. Ota sifatida u do`zaxda yonayotgan bolasiga qarab jannatda bo`lsa ham taskin topolmaydi.

“Bilol habash” she`ri ham tarixiy voqea asosida yozilgan. Bilol habash Payg`ambarimiz bilan zamondosh bo`lib, doimo ularga ergashib kelgan. Ular aytgan ishlarni, so`zlarni sidqidil bilan bajarganlar. Payg`ambarimiz (s.a.v)ga Jabroil (a.s.) azonni qanday aytishni o`rgatgach, ular buni Bilol habashga o`rgatadi. Va azonni birinchi bo`lib Bilol habash aytadi.

Bilol aytar edi azonni yakkash,
Sazovor bo`lmishdi ishonchga andoq.
Rasuldan so`rashdi:-Bu qora habash
Jannat chehrasiga yarashgay qandoq.

Yuqoridagi she`rlar tarixiy haqiqat, tarixiy voqealr asosida yozilgan bo`lsa, “Ota”, “Ona” she`rlari Payg`ambarimiz (s.a.v)ning muborak hadislari asosiga yozilgandir:

Rasululloh dedi:-O`lim muqarrar,
Endi irodangni bardosh tomon bur.
Otangning tinchini o`ylasang agar,
Uning do`stlaridan xabar olib tur.

2 O`sha kitob, 31-bet.

Faqih aytadi: So'rovchi bo'lsa: "Agar ota-onasi o'g'liga g'azab qilib o'tgan bo'lsa, Ikkovini o'limlaridan keyin rozi qilishligi mumkin bo'ladimi?" deb. Aytiladi: "Ha!". Ikkalasini uch narsa bilan rozi qilish mumkin:

1. Farzand solih bo'lishligi. Chunki ota-onaga farzandi solih bo'lishidan yaxshiroq narsa yo'q.
2. Ota-onaning yaqinlari va do'stlari bilan bog'lanib turishi...

Payg'ambarimiz (s.a.v) yana aytadilar: "Ota-onangiz kim bilan bog'langan bo'lsa, u bilan aloqani uzmaglar" Bu bilan o'zingizning nuringizni o'chirasiz, sizning hurmatingiz otangizning hurmatidir!

"Ona" she'ri ham xuddi hunday hadis asosida yozilgan she'rlar sirasiga kiradi. Bahz ibn Hakim bobosidan rivoyat qiladi. Aytdilarki: "Yo Rasululloh! Kimga yaxshilik qilayin?" Aytdilar: "Onangga!" "Keyinchi?" "Onangga!" "Keyin kimga?" "Onangga!" Aytdim: "Keyin kimga?" Aytdilar: "Otangga, keyin yaqin qarindoshlaringga" dedilar.

She'r shu hadisdan kelib chiqqan holda yozilgan:

Rasul javob qildi:-Tiingla birodar,
Gapimni bir bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar,
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.

"Do'zaxiyalar" she'rida esa shoir islom dinida barch narsa niyatga bog'liq ekanini o'quvchilarga eslatib o'tmoqcho bo'ladi.

Yovlashdi bir kuni ikki musulmon,
Oradan adolat tamoman ko'chdi.
Ular olishdilar uzoq beomon,
Oqibat birining kallasi uchdi.

Aytishlaricha, biror dam suv qirg'og'iga suv toshib odamlarga zarari tegmasin, deb tosh qo'yib qo'yibdi. Ikkinchi odam esa o'sha toshni odamlar o'tganda zarari tegmasin deb olib qo'yibdi. Ularning ikkisi ham qilgan ishlari uchun savobga erishibdilar. Chunki ularning niyati xolis edi.

Ikrimadan, Alloh undan rozi bo'lsin, rivoyat qilinadi: Bizga aytdiki: "Bir kishi Allohni qo'yib, daraxtga sig'inadigan joydan o'tib qolibdi. U kishi Alloh uchun bu ishdan g'azablanibdi. Xudoni qo'yib bu daraxtga sig'inashayotgan edilar. Keyin u boltasini olib, eshagiga minib, o'sha daraxt tomonga, uni chopib tashlash uchun o'tlanibdi. Shaytoni la'in odam siratiga kirib uning yo'lidan chiqib: "Qayerga ketyapsan", deb so'rabdi. "Bir daraxtni ko'rdim, odamlar Allohni qo'yib, o'shanga ibodat qilishyapti. O'sha daraxtni bolta bilan chopib tashlayman, deb Allohga

ahd berdim”, dedi. Iblis: “U senga nima qildi? Qo`ygin ibodat qilishayotgan bo`lsa qilishaversin. Ularni Allohning o`zi uzoqlashtiradi”, dedi. U kishi qaytmadi. Iblis la`natulloh ilah aytdi: “Qaytgin, har kuni senga to`rt dirham beraman, har kuni ko`rpachangning bir chetini ko`tarsang, uni olasan.”. “Shunday qilasanmi?” deb so`radi. Iblis: “Albatta, har kuni senga o`sha pulni to`layman”. Keyin haligi kishi uyiga qaytdi. O`sha pulni ikki-uch kun Alloh xohlaganicha topdi. Shundan keyin bir kuni ertalab turib, ko`rpaning quyi tarafini ko`tarsa, hech narsa ko`rmadi. Keyin bir kun kutdi, dirhamlarni topolmaganidan keyin, boltasini olib eshagiga minib, o`sha daraxt tomon otlandi. Iblis odam suratiga kirib uning oldiga chiqdi. “Qayerga ketayapsan?”, deb so`radi. U kishi: “Allohni qo`yib sig`inayotgan daraxt oldiga ketyapman, uni kesib tashlayman”, dedi. Iblis aytdi: “Bunga kuching yetmaydi. Ammo oldingi gal seni Alloh uchun g`azablangan holda chiqqan eding. O`sha paytda osmon va yer ahllari jam bo`lsalar ham, seni qaytara olmas edi. Ammo hozir sening chiqishing nafsing uchun, sen dirhamlarni topa olmaganing uchun chiqyapsan. Agar o`sha joyga o`tsang boshingni yoramiz”. U daraxtni tinch qo`yib uyiga qaytibdi.”¹

“Do`zaxiyalar” she`rida ham ikkalasining ham niyati buzuq bo`lgani uchun shoir ularni do`zaxga loyiq ko`radi:

Rasululloh dedi:-U ham va bu ham,
Mahkum bo`lguvsidir do`zax to`riga.
Ikkov ham maydonga tushganlari dam,
O`lim tilaganlar biri biriga.

“Duo” she`rida duo qilish musulmonlarning odati ekanligi, Payg`ambarimiz (s.a.v) qo`llari ham hamisha duoda bo`lganligidan darak beradi.

Rasul bir ummatni alqab doimo,
Sha`niga duolar aytguvchi erdi.

...

Qo`ling baland bo`lsin desalar, illo,
Qo`ling past tushmasin sira ham derdi.

Duo qilish bandani Allohga muhtojligini bildirganligi bois Alloh nazdida sevimli ibodatlardandir. Shu sababli Qur`oni Karim va Hadisi shariflarda insonlarni duo qilishga da`vat qilingan. Inson o`zini Alloh oldida ojizligini, hamisha uning yordamiga muhtojligini his etib duo qilish maqsadga muvofiqdir. O`zini Allohga mihtoj emas, deb bilganlar esa qattiq yanglishadilar. Chunki Robbimiz Qur`oni karimda:

¹ As Samarqandiy “Tanbehul g`ofiliyn”, 1-kitob, 96-bet.

“Menga duo qilinganlar, duolaringizni ijobat qilaman, dedi. Albatta, menga ibodatdan kibrlanganlar yaqinda bo`yinlari egilgan holatda jahannamga kirurlar” (G`ofir, 60-oyat) deb marhamat qilgan.

“Tavba” she`rida ham Allohning so`zlari va hadislarining mazmuni aks etadi.

Sen gunoh qildingmi, bechora banda,
Sen shayton makriga uchdingmi nogoh.
Tinchning qolmadimi ruh ila tanda,
Endi nadomatlar bo`ldimi hamroh.

Odam shayton makriga uchrab, gunoh ishga qo`l urganda, Agar banda Allohdan qo`rqsa, qilgan gunohi uchun qanday jazo berilishini o`ylab, tinchi yo`qoladi. Shunda Qur`onda keltirilgan oyatlarni o`qib, hali vaqt borligida tavba qilishga ulgurish mumkinligini o`ylab taskin topishi mumkin.

Yo`q, hali olamda mavjuddir shafqat,
Yo`q, hali tebranar mehr beshigi.
Tavba qil, tavba qil, tavba qil faqat,
Senga ochiq faqat tavba eshigi.

Shoir bekorga odamlarni tavba qilishga chorlamaydi. Ular quyidagi rivoyatga asosan tavba qil so`zini uch marta qo`llaydi. “Muhammad ibn Mutarrifdan rivoyat qilinadi. Alloh aytdi: “Ey odam farzandi! Senga voy bo`lsin! Gunohni qilasan keyin yana kechirim so`raysan, uni kechiraman, gunohga qa ytasan, yana kechirim so`raysan, uni kechiraman. Sho`ring qursin! Gunohni tashlamagan, yana rahmatimdan noumid bo`lmagan banda! Ey maloikalarim, sizlarning shohidligingizda Men ularni kechirdim”. ”¹

Allohning mag`firatiga erishish uchun osiylikdan tavba qilish kerak. Tavba degani-qaytish demakdir. “Inson tavba qildi” degani “xatolardan, gunohlardan qaytdi, avval qilgan gunohlariga nadomat (afsus) qildi” deganidir. Qur`on tavbaga katta ahamiyat berib, ko`pgina oyatlarda eslatib o`radi: “Kim zulmidan keyin tavba etsa va yaxshi amal qilsa, Alloh, albatta, tavbasini qabul qiladi. Shubhasiz, Alloh mag`firatli va rahimli zotdir” (“Moida” surasi, 39-oyat)²

Hasan rivoyat qiladi: “Payg`ambarimiz (s.a.v.) bir xotinni zino qilgani uchun toshbo`ron ettirdilar, keyin unga janoza o`qidilar. Ba`zi sahobalar Payg`ambarimiz (s.a.v.)dan so`radilar: “Yo Rasululloh, uni toshbo`ron qildirdingiz va unga janoza ham o`qidingiz?” Aytdilar: “U tavba qilgan edi. Agar shunga o`xshaganini yetmish marta qilganda ham, Alloh taolo uning tavbasini qabul qilar edi (ya`ni uning tavbasi haqiqiy edi). Haqiqiy tavba qabul qilinadi. Agar o`sha katta gunoh bol`sa ham.”

¹ Shu kitob, 102-bet.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Iymon” 264-bet.

Shoir ushbu she`rida “tavba eshigi” birikmasini ham quyidagi tivoyatga asosan qo`llagan: “Ibn Abbosdan rivoyat: “Payg`ambarimiz (s.a.v.) tavba eshigi haqida zikr qildilar. Umar ibn Hattob: “Yo Rasululloh, tavba eshigi nima?” deb so`radi. Payg`ambarimiz (s.a.v.) aytdilar: “Tavba eshigi Mag`ribning orqasidadir, uning ikki tabaqasi tildan, dur va yoqutdan qoplangan. Eshikning birinchi tabaqasi bilan ikkinchisining orasi tez yurar ulovga mingan kishiga qirq yillik yo`ldir. Bu eshik Alloh taolo mahluqotlarni yaratgandan beri ochiqdir. Toki quyosh g`arbdan chiqquncha, Allohning bandalaridan qaysilari tavbai nasux qilsa, uning tavbasi o`sha eshikdan kiradi” Maoz ibn Jabal aytdi: “Ota-onam sizga fido bo`lsin, Yo Rasululloh tavbai nasux qanday bo`ladi? Aytdilarki: “Gunohkor o`zidan o`tgan gunohga pushaymon bo`lmog`idir. So`ngra Alloh taologa uzr aytib, bu gunohlarni qaytib qilmaydi. So`ng quyosh bilan oy bu eshikka botadi, keyin ikki tabaqa qaytib yopiladi Ikkovining orasida nima bor bo`lgan bo`lsa, hammasi yig`iladi. Go`yoki ikkovining orasida na bir teshik, na bir yorug` bol`magan holatga aylanadi. Shu vaqtdan keyin tavba qabul qilinmaydi. Islomda qilingan yaxshiliklari foyda bermaydi, magar oldin muhsin bo`lgan bo`lsa, foyda beradi va bu Alloh kalomida bordir: “Parvardigoringizning ayrim oyatlari keladigan kunda esa ilgari imon keltirmagan yoki imonida yaxshilik kasb qilmagan biron joyiga (endi keltirgan) imoni foyda bermas” (An`om, 158).”¹

Demak, hali Tavba eshigi ochiq ekan vaqr borligida chindildan Oллоhdan gunohlarimizni kechirishini yolvorib so`rashimiz kerak ekan.

Turkumdan yana shunday she`rlar joy olganki, islomda qoralangan nuqsonlar shoir she`rlarida ham qoralanadi. Ular qilgan gunohlari uchun islom dinining qoidalri aks etgan kitoblarda qanday jazo berilsa, shoirning she`rlari bilan mos tushadi. “Ezgulik”, “Hasad”, “G`iybat”, “Kibr” she`rlari ana shunday she`rlar sirasiga kiradi.

Hasad-bu ahloqiy razolatlatdandir. U insonning eng qabih xislatlaridan biri bo`lib, insonning osuda hayotini buzuvchidir. Chunki, hasadchi doimo o`zidan boshqalarga baxtsizlik, falokat tilayverib, o`zini shu hasad bilan badbaxt qilib qo`yadi. Hasadchi o`ziga yetgan yaxshiliklardan xursand bo`lish o`rniga, o`zgalarga yetgan yaxshiliklardan azoblanadi. Hasadchi o`ziga o`zi ishonmaydigan, maqsadga yetishga iloj topa olmagan omadsiz shaxsdir. Shuning uchun Qur`on hasaddan qaytaradi:

“Alloh ba`zilaringizni ba`zingizdan afzal etgan narsalarni (hasad ila) orzu etmang. Eraklarga o`z kasbidan nasiba bor. Ayollarga o`z kasbidan nasiba bor. Allohdan fazlini so`rang” (“Niso” surasi, 32-oyat).

Suradan ko`rib turibdiki, hasad onsondagi eng yomon illat. Shuning uchun shoir hasadchilarning hamkori shayton, boradigan joyi do`zax ekanligini e`tirof etadi.

¹ As SAmarqandiy “Tanbehul g`ofiliyn” 112-bet.

Hasadgo`y kimsalar-Iblisga hamkor,
Momiqqa cho`zdilar faqat qo`llarin.
Egasin kafanga ayladular zor,
Do`zaxga burmoqchi bo`ldi yo`llarin.

G`iybat- bir inson ikkinchisini g`oyibdan (ortidan) yomon narsalar bilan gapirishdir. Bu gap g`iybat qilingan kishining diniy yoki dinyoviy ishlariga, ahloqiga, tanasining tuzilishiga va boshqa narsalariga tegishli bo`lsa ham g`iybat hisoblanadi. Chunki g`iybat odamlar orasiga adovat soladi.

Do`zax yo`llaridan o`tarkan Rasul
Atrofga ko`z tashlar edi damodam.
Kimdir faryod urib yig`lardi nuqul,
O'tashda yonardi o`zga bir dam.

She`rda Payg`ambarimiz (s.a.v.) ning Me`rojga chiqqan paytlari tasvirlanmoqda va shunday holatga duch keladi:

Yo`lning kanorida-shundoq sarhadda,
O`limtik yer edi allaqanday zot.
Nogoh Rasululloh boqib hayratda,
Jabroilga dedi:-Bu kimdir, hayhot!

O`limtik yeyayotganlar kimlar edi? Nima uchun ular o`limtik yeyishmoqda? Bu savollarga javobni Jabroil (a.s.) beradi:

Jabroil aytdikim:-Bunda har kimsa,
Jazosin olgaydir qilmishiga xos.
O`limtik yeguvchi bul banda esa,
Umrin g`iybat bilan o`tkazgan, xolos.

Islom g`iybatdan nafrat qiladi. Bu nafrat shu darajaga yetganki, hatto g`iybatchini o`lgan musulmon birodarining go`shtini yegan kishiga tenglashtiradi. Birov o`lgan birodarining go`shtini yeyishdan qanday saqlansa, musulmon birodarini g`iybat qilishdan shunday saqlanmoqligi zarur. Bu haqda hikoyat bor: "Payg`ambar (s.a.v.) uylarida, ahli suffadagi sahobalar masjidida edi. Zayd ibn Sobit masjidida Payg`ambarimiz (s.a.v.) eshiyotganlarini so`zlayotgan edilar. Shu payt Payg`ambarimiz (s.a.v.)ga go`sht keltirishdi. Sahobalar ibn Sobitga "Payg`ambarimiz (s.a.v.) oldilariga kirib aytgin, bizlar falon kundan buyon go`sht tanovul qilgan emasmiz, kelgan go`shtdan bizga yuborsinlar", dedilar. Zayd ularning oldilaridan chiqib ketganidan keyin, ular: "Zayd ham bizlar Rasulullohdan olganchalik olgan, xolos, qanday qilib bizga hadis aytadi", deyishdi. Shu vaqt Zayd Payg`ambarimiz (s.a.v.) ning oldilariga kelib,

ularning istagini yetkazdi. Payg`ambarimiz (s.a.v.): “Ularga hozirgina go`sht yedilaringiz-ku, deb aytgin”, dedilar. Zayd ularning oldilariga kelib, bu gapni yetkazdi. Ular: “Allohga qasamki, biz falon kundan buyon go`sht yeganimiz yo`q”, deyishdi. Zayd yana Payg`ambarimiz (s.a.v.)ga, ularning so`zlarini yetkazdi. Payg`ambarimiz (s.a.v.) takror qilib: “Ularga hozirgina go`sht yedilar”, dedilar. Zayd yana qaytib, Payg`ambarimiz (s.a.v.) so`zlarini yetkazdi. Shundan so`ng ular o`rnilaridan turib Payg`ambarimiz (s.a.v.) yonlariga kelishdi va: “yo Rasululloh, bizlar falon-falon vaqtlardan beri go`sht tanovul qilgan emasmiz”, deyishdi. Payg`ambarimiz (s.a.v.) ularga: “Hozirgina birodarlaringizning go`shtidan yedingizku, go`shtning izi tishlaringizda bor, tupursalaringiz, go`shtning qizilligini o`zlaringiz ko`rasizlar”, dedilar. Shundan so`ng ular tupurganlarida og`izlaridan qonli tupuk tushganini ko`rdilar. Shu paytning o`zida tavba qildilar va Zayddan uzr so`radilar”.¹

Shoir ana shunday insonda bor yomon xislatlarni she`rida aks ettirib, ularning barchasi, albatta qilgan gunohlari uchun jazo oladi, degan g`oyani ilgari suradi.

“Hikmat sadolari” tyrkumi shoirning boshhqa asarlaridan ijtimoiy problemalar aks etmagani bilan ajarlib turadi. “Jannatga yo`l” dramatik asarida ham, xatto “Haj daftari” turkumida ham shoir diniy motiv, diniy termin orqalli ijtimoiy maishiy muammolarni ochishga harakat qilgan. “Hikmat sadolari” turkumida esa, Qur`oni karim va hadis sharif asosida yozilgan bo`lib, bu barcha odamlarni ezgulikk, yaxshilik qilishga chaqiradi. Zero muqaddas dinimizning asosiy maqsadi ham bitta odamlar bu dunyoda bir-biriga yaxshilik sog`inib, doimo bir-birlariga yordan beribm mo`minlar hayotini yaxshilashdir. Asarni shoir o`zim uchun yozdim deb aytib o`tadi. Shoir xalq nazaridagi odam bo`lsa ham, u birinchi navbatda Ollahning oddiy bandasidir. U ham qilgan gunohlarini kechirilishini so`raydi. Shuning uchun asarda oz bo`lsa ham hadislarning mazmunini she`rga jo qilishga harakat qiladi. O`zim uchin yozdim deyishiga Payg`ambarimizning quyidagi so`zlari sabab bol`gan bo`lsa kerak; “Kimda kim mening so`zlarimdan, aytgan hadislarimdan qirqtasini to`plab, unga umri davomida rioya qilsa, qiyomatda o`zim unga shafatchi bo`laman”, deganlar. Shu so`zlariga asoslanib shoir “Ona”, “Ota” ... she`rlarini hadislar asosida yozgan. Hadis mazmunini she`rga jo qilish mumtoz adabiyotimizga borib taqaladi. Dastlab Abdurahmon Jomiy fors-tojik tilida “Chixil hadis” (qirq hadis) asarini yatatib, unga Payg`ambarimiz (s.a.v.) aytganlaridek, qirqta hadisni to`plab sher`iy yo`lda bayon qiladi. Mana shu asarni Alisher Navoiy turkey tilga tarjima qilib “Arba`in” deb nomlaydi. Navoiydan keyin hech kim bunday qiyin ishni qilishga o`zida jur`at topolmagan. Chunki bu ishga qo`l urgandan keyin hadis matniga qat`iy rioya qilish kerak. Payg`ambar (s.a.v.) dan hadis bor: “Kim men aytmagan gapni mening nomimdan gapirsa, o`ziga do`zaxdan joy

As samarqandiy “Tanbehul g`ofiliyn”164-bet.

tayyorlayversin.” Yana hadisda bayon qilingan fikrni to`rt qatorga sig`dirish zarurati va arab tilining o`ziga xos xususiyatlari. Mana shu mas`uliyatlarni his qilgan holda 18-asrning oxirlarida Muhayyir shunday sharfli ishni qilishda o`zida kuch topib qirqta hadisni arab tilidan o`zbek tiliga tarjima she`riy yo`lda xalqqa yetkazadi. Ushbu hadislarni Navoiy “Arba`in”I bilan qiyoslaganlarida birortasi ham bir-biriga mos kelmadi. Bu narsa Muhayyirning , Navoiy “Arba`in”i bilan yaxshi tanish bo`lganligi, undagi hadislarni takrorlamaslikka intilgani isbotlaydi. Abdulla Oripov ham shu an`anani 20-asrda ilk boshlovchisi sifatida qirqta bo`lmasa ham besh-oltita hadisni o`z she`rlarida aks ettira oldi. A. Oripovning bundan keyingi ijodlarida Navoiy va Muhayyirlar qilgan hayrli ishning ya`ni qirq hadisni ham she`riy yo`lda xalqqa yetkazishini kutib qolamiz.

XULOSA

O`zbek adabiyoti qadim ildizga ega. Islom dini vatanimiz xalqlarining asosi bo`lgan uchun mumtoz adabiyotimiz ham to`laligicha islom dini qoidalariga asoslangan edi. Bu o`sha davr jamiyatida hukm surgan diniy, falsafiy, ahloqiy normalar bilan bog`liq. Shularning eng namunalisi, Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat” va Nosiriddin Rabg`uziyning “Qissasi Rabg`uziy” asarlaridir.

17-18-asrlardan boshlab esa, diniy va ijtimoiy masalalar adabiyotimizda teng olib borilgan. Buni Avaz O`tar, Turdi Farog`iy, Zavqiy ijodlarida ko`rishimiz mumkin.

20-asr boshlaridan esa ijtimoiy masalalar birinchi o`ringa chiqadi. Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Cho`lpon, Abdulla Qodiriylarning yaratgan asarlari fikrimizga misoldir.

Ateistik ta`limotga asoslangan sho`rolar tuzumi davrida adabiyot va san`atda ham dahriyona qarashlar birinchi planga chiqdi. O`sha paytlarda din to`grisida og`iz ocish ham mumkin emas edi. Shunday vaziyatga qaramasdan, keksa avlod shoirlarimiz oshkora bo`lmasada, ramzlar orqali diniy ruhiyatni o`z she`rlarida aks ettirgan. Bunga G`afur G`ulomning “Sog`inish” she`ri dalil bo`la oladi:

Zo`r karvon yo`lida yetim bo`tadek,

Intizor ko`zlarda xalqa-xalqa yosh.

Eng kichik zarradan yupitergacha,

O`zing murabbiysan xabar ber, Quyosh.

Shoir, avvalo shoir emas qalban oddiy odam Oллоhning bandasi. U yoshligidan otabobolaridan muqaddas dinimizdan xabar topib kamolga yetgan. U ham savob va gunohlarning farqiga borib ulg`aygan. Ijtimoiy vaziyat qaltisligi tufayli, 20-asrning ikkinchi yarmida o`zbek shoirlari dinga ochiq-oydin murojaat qilisha olmagan. Ana shunday ijtimoiy vaziyat qaltisligiga qaramasdan, Abdulla Oripov o`z she`rlarida diniy atamalarni asat-sekinlik bilan qo`llay boshlagan. Bu davrdagi shoirlar, jumladan, A. Oripov ijodida ham aks etgan diniy motivlarni, diniy terminlarni qo`llanilishini ikki hil tarzda ko`rishimiz mumkin. Birinchisi, o`zining ichki imon-e`tiqodi bilan bog`liq, ongli ravishda qo`llangan diniy motiv bo`lsa, ikkinchisi, xalqimizning milliy mentaliteti, turmish tarzi, urf-odatlarini, ahloqi bilan bog`liq bo`lgan, kelib chiqishi islom dini bilan bog`liq bo`lgan atamalarni qo`llash. Ya`ni beihtiyor qo`llangan diniy atamalar, diniy motivlar sirasiga 1960-yilda yozilgan “Suv parisi” she`rini misol tariqasida olishimiz mumkin:

Sen kimlar hayolida yurmoqdasan sarsari,

Xiyonatkor bir go`zal ruhimisan, yo pari.

Shoir shunday oddiy, ijtimoiy-maishiy mavzudagi sheʼrlarida ham din bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarni qoʻshib ketgan. Togʻri shoirning 90-yillargacha yozgan sheʼrlari din mavzusidan yiroq boʻlsada, dinga oid boʻlgan terminlarni qoʻllagan. “Kursdoshlarimga” sheʼri ham aslida shoir bilan birga oʻqigan doʻstlariga bagʻishlangan boʻlishiga qaramasdan, bu sheʼrida ham diniy motivni qoʻllagan. Chunki, oʻsha paytda xalq bunday sheʼrlarga muhtoj edi.

A. Oripov sheʼrlarini tahlil qilishda yuqoridagidek yondashadigan boʻlsak, shoirning diniy termin, diniy motiv ishtirok etmagan sheʼrlarini topish ancha mushkul.

Shundan maʼlum boʻladiki, Abdulla Oripov oʻz soʻziga, oʻz eʼtiqodiga mustahkam turgan shorlardandir. Chunki, shoirning sheʼrda toʻkilayotgan hislari uning qalbidan chiqayotgan gavharlaridir. Shoir oʻz sheʼrlarida xalqning dardini, xalqning hissiyotlarini oʻz sheʼrlarida mujassam eta olmasa u soxta shoir hisoblanadi. Abdulla Oripov esa sheʼrlari orqali oʻz dardi va xalq dardini mahorat bilan sheʼr satrlariga koʻchirgan. Bu masalani biz ishimizning 2-bobi boʻlmish 90-yillargacha boʻlgan davrda diniy motivlar masalasida tahlil qildik. Biz bu bobda Abdulla Oripovning ijodi keng qamrovli boʻlganligi uchun diniy terminlarni guruh-guruhga ajratgan holatda tahlil qildik. Tahlildan guvoh boʻldimki, shoir islom dinidagi motivlardan va tarihiy haqiqatlardan unumli foydalangan. Bu esa A. Oripovni diniy bilimlardan yaxshigina habardor ekanligidan darak beradi. Shoirning 1968-yilda yozilgan “Birinchi muhabbatim” sheʼri oʻzbek adabiyotida alohida voqea boʻlish bilan birga xalqimiz badiiy tafakkurida ham muhim rol oʻynaydi. Chunki hech kim shu paytgaca yurak yutib bunday sheʼr yozgan emas edi. Ochiq-oydin shoir oʻz hislarini masralarda jo qiladi:

Diladagi ohim mening, birinchi muhabbatim,

Yolgʻiz Ollohim mening, birinchi muhabbatim.

Shoirning xoh tabiat, xoh ijtimoiy masalalar, xoh ota-onaga boʻlgan muhabbat haqida sheʼr boʻlmasin barchasi diniy ruhiyat bilan sugʻorilgan. 1969-yilda yozilgan “Ruhim”, “Chorlash” sheʼrlari esa toʻlaligicha diniy mavzuda yozilganidek taasurot uygʻotadi. Chunki ruhga ishonish, uning boqiyiligiga ishora qilish dinga ishonganlarning eʼtiqodidir.

Shoirning baʼzi sheʼrlarida diniy atamalarning koʻchma maʼnoda qoʻllanganligiga ham guvoh boʻldik. “Tafakkur monologi” sheʼri fikrimizga dalildir:

Meni atadilar xudo deb avval,

Paygʻambar dedilar va daho tugal.

Tafakkur oʻzini xudo deb atashining boisi u insonni boshqarib turadi, insonning buyuk jihati bu uning tafakkurga, fikrlash qobiliyatiga ega ekanligidadir. Shuning uchun ham tafakkurni barcha narsadan ustun ekanligini koʻrsatish uchun shoir mubolagʻa sanʼatini qoʻllagan.

Ishimizning 3-bobi “Jannatga yoʻl” dramatik dostonida din va umuminsoniy gʻoyalar deb nomladik. “Jannatga yoʻl” dramatik dostoni ham oʻzbek adabiyotida burilish yasadi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Asar toʻlaligicha diniy motiv asosiga qurilgan boʻlib, mana shu diniy motivlar orqali har bir kishilik jamiyatidagi illatlarni ayovsiz fosh qilib va ularning alal-oqibat borar yeri qayer boʻlishini koʻrsatib bergan. Haqiqatdan ham Qurʻon va hadislarda qiyomat, savob va gunoh, tarozi, jannat, doʻzax soʻzlari muqaddas kitoblarda qanday tushunchaga ega boʻlsa muallif asarida ham oʻshanday uchraydi. Shunga qaramasdan asarning xarakterli jihati shundaki, insoniy qadriyatlar asarning bosh mavzusidir. Muallifning asar yozishdan ham asosiy maqsadi ana shu kir illatlarni din orqali yoʻqotmoqchi, fosh qilmoqchi boʻladi. Shuning uchun ham biz bu asarni didaktik ahamiyatga ega doston deya olamiz. Bu asarni oʻqigan oʻquvchi qay yoʻl jannatga boshlaydiyu, qay yoʻl doʻzaxga boshlashini darhol anglaydi.

Shoirning bu asari toʻlaligicha diniy motivga asoslangan boʻlsa ham asosiy maqsadi dinni targʻib qilish emas, balik unut boʻlib ketayotgan insoniy qadriyatlarni yana bir karra oʻquvchilarga eslatib oʻtish boʻlgan.

Yurtimiz mystaqillikka erishgandan soʻng shoir birinchilardan boʻlib Haj safariga borishga muvaffaq boʻlidi. Va safarda koʻrgan-kechirganlarini oʻzining “Haj daftari” turkumida mujassam qildi. Ishimizning toʻrtinchi bobi shu asarga bagʻishlangan. Bu asar diniy motiv, diniy termin shu bilan bir qatorda islom tarixi haqiqatlariga ham asoslangan. Bu asar shoirning Haj ziyorati vaqtidan toʻz yurtiga yetib kelguncha boʻlgan davrda yozilgan. Bu asarni ham “Jannatga yoʻl” dramatik dostoni kabi didaktik asar deb olishimiz mumkin. Chunki asar Haj ziyoratiga nima maqsadda kelganlarini bilmaydigan odamlarga oʻz aksini koʻrsatib beruvchi koʻzgu vazifasini ham oʻtaydi

Bundan farqli oʻlaroq, 1991-92-yillar oraligʻida yozilgan “Hikmat sadolari” turkumi, koʻproq hadis sharif va paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning qilgan ishlari, islom dini keng targʻib qilgan umuminsoniy fazilatlarni tarannum etilgan. Bu asar ham oʻquvchilarni ezgulikka va yaxshilikka chorlaydi. Aslida islom dinining asosiy goʻyasi ijtimoiy-maishiy masalarni yaxshilik bilan, ezgulik bilan olib borishdadir. Bu asarni oʻqigan oʻquvchi islom dini hadislaridan, qoidalaridan, shu bilan bir qatorda paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) ning qilgan ishlaridan ham bohobar boʻladilar.

Shoir ozining bu asarini turli manbalardan, hikoyatlardan, rivoyatlardan, lutflar taʻsirida yozilganligini aytib oʻtadi. U oʻz hikmatlarini “mening uchun oʻzgacha ziyoratgohdir, ular mening eʼtiqodimdir,” deydi. Bunday deyishiga sabab shoir turkumdan joy olgan baʼzi sheʼrlarni hadis asosida yozilganligidadir.

Ma`lumki, o`zbek adabiyotida Alisher navoiy boshlab bergan hayrli bir an`ana mavjud. Ulug` shoir 1481-1482-yillarda payg`ambarimiz (s.a.v.) hadislaridan 40 hadisni she`riy yo`l bilan turkuy tilga tarjima qilib “Arbain”yoki “Chil hadis” asarini yozadi. Navoiydan keyin bu qutlug` ishga 19-asrning oxirigacha hech kim jur`at qilolgan emas edi . 19-asrning oxirlarida Muhayyir ismli shoir shu ishni qilishga o`zida kuch topa olib hadislardan 40 tasini olib she`riy yo`l bilan xalqqa yetkazgan. Yana bir asr o`tib bu an`anani A. Oripov davom ettiradi. “Hikmat sadolari” turkumida jami she`rlari 40 tadan oshsada lekin ularning hammasi ham hadis asosida yozilgan she`rlar emas. Shulardan barmoq bilan sanarlisigina ana shunday hadis asosida yozilgan she`rlar tarkibiga kirgizsak bo`ladi. Qolganlarini esa yuqorida aytib o`tdik islom dini g`oyalarini va tarihiy haqiqatlar asosida yozilgandir.

Shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, Abdulla Oripov zamonaviy ozbek adabiyotining yirik vakili sifatida o`z sarlarida barcha zamonlar va tuzumlar uchun umumiy va umuminsoniy qadriyatlarni, falsafiy fikrlarni tarannum etdi. Ularni keng kitobxonlar ommasiga ta`sirchan ifodalashda denim motivlardan, diniy terminlardan samarali foydalandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Islom Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008.
2. Islom Karimov “Eng asosiy mezon hayot haqiqatini aks ettirish”
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1 tom. –T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000.
4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 2 tom. –T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 2001.
5. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 3 tom. –T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 2001.
6. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 tom. Adabiyot va san`at nashriyoti, 2001.
7. Abu Faqih Abu Lays As Samarqandiy. Tanbehul g`ofiliyn. –T.: Movarounnahr, 2003.
8. Sultonmurod Olim. Ishq, oshiq va ma`shuq. –T.: Fan, 1992.
9. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. –T.: Iymon, 2000.
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 1 juz. –T.: Movarounnahr, 2005.
11. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 2 juz. –T.: Movarounnahr, 2005.
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3 juz. –T.: Movarounnahr, 2005.
13. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 4 juz. –T.: Movarounnahr, 2005.
14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 5 juz. –T.: Movarounnahr, 2005.
15. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 6 juz. –T.: Movarounnahr, 2005.
16. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. –T.: Sharq, 2003.
17. Jaloliddin Rumiy. Ma`naviy masnaviy. –T.: Sharq, 1999.
18. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichingdadir. –T.: Yozuvchi, 1998.
19. Usmon Nuriy To`pbosh. Bir ko`za suv. –T.: Fan, 2007.
20. M.Qo`shjonov. Hayot adaboyot ko`zglasida. –T.: Adabiyot va san`at, 1985.
21. Muhammad Salim ibn Muhammad Rahim Buhoriy. Durratul va`izin. –T.: Fan, 2001.
22. Muqaddas oylar va mustajob duolar. –T.: O`zbekiston musulmonlar idorasi Movarounnahr, 2005.
23. Hamidullo Boltaboyev. Islom tasavvufi manbalari. –T.: O`qituvchi, 2005.
24. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. 1 kitob. –T.: Yozuvchi, 1996.
25. Norboy Hudoyberganov. O`z dunyosi, o`z qiyofasi. Adabiy o`ylar. –T.: Yosh gvardiya, 1986.

26. Norboy Hudoyberganov. Ishonch. –T.: Adabiyot va san`at, 1988.
27. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T.: Sharq, 2004.
28. Rabg`uziy. Qissasi Rabg`uziy. 1 kitob. –T.: Yozuvchi, 1990.
29. Rabg`uziy. Qissasi Rabg`uziy. 2 kitob. –T.: Yozuvchi, 1991.
30. Hamidullo Boltaboyev. Sharq mumtoz poetikasi. –T.: O`zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000; 2008.
31. Hamidullo Karomatov. Qur`on va o`zbek adabiyoti. –T.: Fan, 1993.
32. Ulug`bek Hamdam. Yangilanish ehtiyoji.